

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**  
**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QA YTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL  
ETISH BOSH ILMIY-METODIK MARKAZI**  
**TOSHKENT DAVLAT TEHNika UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

**“METROLOGIYA, STANDARTLASHTIRISH VA MAHSULOT  
SIFATI MENEJMENTI”**  
yo'nalishi

**“MAHSULOT VA HIZMATLARGA HALQARO  
TALABLAR ASOSIDA STANDARTLARNI ISHLAB  
CHIQISH, EKSPERTIZA QILISH VA ME'YORIY  
NAZORAT”**

**moduli bo'yicha**

**O'QUV USLUBIY MAJMUA**

**TOSHKENT 2022**

Mazkur o'quv - uslubiy majmua Oliy va o'rta mahsus ta'lif vazirligining 2021 yil 25 dekabrdagi 538 -sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan o'quv dastur asosida tayyorlandi.

**Tuzuvchilar:** TDTU “Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kaf.mudiri, prof, t.f.d., P.M.Matyakubova.

TDTU “Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kafedrasi kat.o'q., A.K.Miralieva

**Taqrizchilar:** TDTU “Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish” kafedrasi professori, t.f.d., O.SH. Hakimov

O va O'MTV ilmiy taddiqot faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig`i o'rindbosari, t.f.n. To'raev SH.A.

O'quv – uslubiy majmua Toshkent davlat texnika universiteti Kengashining 2021 yil 29-dekabrdagi 4-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilib, foydalanishga tavsiya etildi.

## **MUNDARIJA**

I.	<b>ISHCHI DASTUR.....</b>	<b>4</b>
II.	<b>MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....</b>	<b>12</b>
III.	<b>NAZARIY MATERIALLAR.....</b>	<b>18</b>
IV.	<b>AMALIY MASHG`ULOTLAR MATERIALLARI.....</b>	<b>69</b>
V.	<b>KEYSLAR BANKI.....</b>	<b>107</b>
VI.	<b>GLOSSARIY.....</b>	<b>110</b>
VII.	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>118</b>

## I. ISHCHI DASTUR

### KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta'lif muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g`risida”gi PF-4732-sonli, 2017 yil 7 fevraldagagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g`risida”gi PF-4947-sonli, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta'lif muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g`risida”gi PF-5789-sonli Farmonlari, shuningdek 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g`risida”gi PQ-2909-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ushbu dastur hozirgi kunda dolzarb bo'lgan masala- standartlarni halqaro talablar asosida ishlab chiqish, ularni horijiy, davlarlararo, mintqa standartlari bilan uyg`unlashtirish, tehnikaviy hujjatlarni metrologik va standartlashtirish ekspertizasi, turli sohalarda me'yoriy nazorat va metrologik ekspertizani tashkil etish, tehnikaviy va konstruktorlik hujjatlarni metrologik ekspertizalarini o'tkazish, ularni aniqlik me'yorlari, o'lchash birliklarini, nazorat usullari va o'lchash vositalarini to'g`ri tanlash asosalari ko'rib chiqilgan.

“Mahsulot va hizmatlarga halqaro talablar asosida standartlarni ishlab chiqish, ekspertiza qilish va me'yoriy nazorat” o'quv moduli o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchi halqaro talablar asosida standartlarni ishlab chiqish qoidalari, tehnikaviy hujjatlarni ekspertizasi va me'yoriy nazorati haqida bilimlarni egallashlari zarur, tinglovchi halqaro standartlarni o'rganish va ularni milliy standartlar bilan uyg`unlashtirish, standartlashtirish usullarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak, standartlar va boshqa tehnikaviy hujjatlar bilan amalda ishlay bilish bilimlarini egallah bo'yicha to'ldirib borilishi, standartlashtirish usullarini amaliyotda qo'llash malakasiga ega bo'lishi kerak.

Natijada “Mahsulot va hizmatlarga halqaro talablar asosida standartlarni ishlab chiqish, ekspertiza qilish va me'yoriy nazorat” modulining yuqorida keltirilgan bilim, malaka va ko'nikmalarini egallah tinglovchiga halqaro talablarlar asosida mahsulot va hizmatlarga standartlarni ishlab chiqish, ekspertiza qilish va me'yoriy nazoratdan o'tkazish, korhona va tashkilotlarda tehnikaviy hujjatlarni metrologik

ekspertizasini o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkil etish, tehnikaviy hujjatlarning me'yoriy nazorati, me'yoriy nazorat hizmatlarini davlat tehnik siyosatini amalga oshirish masalalarini mustaqil echish imkoniyatini ta'minlaydi.

### **Modulning maqsadi va vazifalari**

Modulni o'qitishdan maqsad - tinglovchilarda standartlarni zamonaviy halqaro talablar asosida ishlab chiqish, ularni halqaro talablar bilan uyg`unlashtirish, tehnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasi va me'yoriy nazorati sohasida bo'lgan ma'lumotlarni shakllantirish, nazoratning zamonaviy usullari bilan chuqurroq tanishish, ulardagi kamchiliklar va o'zaro tafovutlarni o'rganish bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim ko'nikma va malaka shakillantirishdir.

Modulning vazifasi - tinglovchilarga amalga oshiriladigan masalalar doirasida o'zining bo'lajak kasbini mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini, ishlab chiqarishda qo'llaniladigan tehnik, konstruktorlik, tehnologik, ekspluatacion hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazish, tehnik hujjatlar me'yoriy nazoratining mazmuni, mohiyati haqida bilimlar berishdan iboratdir.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikmasi, malakasi va kompetencyalariga qo'yiladigan talablar**

#### **Tinglovchi:**

- halqaro talablar asosida standartlarni ishlab chiqish qoidalarini;
- respublikada halqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlarni va horijiy mamlakatlarining standartlarini qabul qilish va qo'llash tartibini;
- tehnikaviy hujjatlarning turlari, ularning tabaqlanishi;
- standartlarni va boshqa tehnikaviy hujjatlarning standartlashtirish va metrologik ekspertizalari;
- standartlarni va boshqa tehnikaviy hujjatlarning me'yoriy nazorati bo'yicha bilimlarga ega bo'lishi kerak.

#### **Tinglovchi:**

- halqaro standartlarni o'rganish va ularni milliy standartlar bilan uyg`unlashtirish;
- standartlashtirish usullarini amaliyatda qo'llash;
- hujjatlarni metrologik va standartlashtirish ekspertizasini o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

#### **Tinglovchi:**

- standartlar va boshqa tehnikaviy hujjatlar bilan amalda ishlay bilish bilimlarini egallash bo'yicha to'ldirib borilishi,
- standartlashtirish usullarini amaliyatda qo'llash
- tehnikaviy hujjatlarni ekspertiza qilish malakasiga ega bo'lishi kerak.

#### **Tinglovchi:**

- halqaro talablarlar asosida mahsulot va hizmatlarga standartlarni ishlab chiqish, ekspertiza qilish va me'yoriy nazoratdan o'tkazish;

- korhona va tashkilotlarda tehnikaviy hujjatlarni metrologik ekspertizasini o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- hujjatlarni ekspertizasi va me'yoriy nazorati natijalarini rasmiylashtirish kompetencyalariga ega bo'lishi lozim.

### **Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar**

“Mahsulot va hizmatlarga halqaro talablar asosida standartlarni ishlab chiqish, ekspertiza qilish va me'yoriy nazorat” moduli ma'ruza, amaliy mashhulotlar va ko'chma mashhulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o'qitish jarayonida ta'llimning zamonaviy metodlari, pedagogik tehnologiyalar va ahborot-kommunikaciya tehnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter tehnologiyalari yordamida prezentacion va elektron-didaktik tehnologiyalardan;
- o'tkaziladigan amaliy mashg`ulotlarda tehnik vositalardan, ekspress-so'rovlari, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog`liqligi va uzviyligi “Mahsulot va hizmatlarga halqaro talablar asosida standartlarni ishlab chiqish, ekspertiza qilish va me'yoriy nazorat” moduli o'quv rejadagi quyidagi modullar bilan bog`liq: ”Ishlab chiqarish va sifat tizimini sertifikatlashtirish”, ”Metrologik ta'minotning asosiy vazifalari, muammolari va ularni hal qilish yo'llari”.

### **Modulning oliv ta'limgagini o'rni**

“Mahsulot va hizmatlarga halqaro talablar asosida standartlarni ishlab chiqish, ekspertiza qilish va me'yoriy nazorat” moduli halq ho'jaligining, sanoatning barcha tarmoqlari uchun o'ta zarur bo'lgan metrologik ta'minot, metrologik hizmat, o'lchashlar birliligi, o'lchash vositalari, hatoliklar, ularni baholash, standartlashtirish hamda uning davlat tizimi, sertifikatlashtirish, sifat tizimlari va sifat boshqaruvi kabi masalalari hususida etarli va zarur ma'lumotlarga ega bo'lgan yuqori sifatli kadrlarni tayyorlashda muhim o'rinni egallaydi.

### **Modullar bo'yicha soatlar taqsimoti**

№	<b>Modul mavzulari</b>	<b>Tinglovchining o`quv yuklamasi, soat</b>			
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg`ulot	Ko`chma mashg`ulot
1	Respublikada halqaro talablar asosida standartlarni ishlab chiqish va qo'llash.	2	2		
2	Korhona va tashkilotlarda tehnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasini tashkil etish.	8	2	2	4
3	Tehnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar.	4	2	2	-
4	Korhona standartlarining metrologik ekspertizasi.	2	-	2	-
5	Tehnikaviy hujjatlarning me'yoriy nazorati (standartlashtirish ekspertizasi).	2	2	-	-
<b>Ja`mi</b>		<b>18</b>	<b>8</b>	<b>6</b>	<b>4</b>

## **NAZARIY MASHG`ULOTLAR MAZMUNI**

### **1-mavzu: Respublikada halqaro talablar asosida standartlarni ishlab chiqish va qo'llash.**

Halqaro talablar asosida standartlarni ishlab chiqish. Respublikada halqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlarni va horijiy mamlakatlarining standartlarini qabul qilish va qo'llash tartibi. Standartlarni kelishish tartibi.

### **2-mavzu: Korhona va tashkilotlarda tehnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasini tashkil etish.**

Tehnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasini mohiyati. Metrologik ekspertizani rejalashtirish. Hujjatlarni metrologik ekspertizaga taqdim qilish tartibi va ekspertizada ko'rib chiqiladigan masalalar. Metrolog-ekspertlarni majburiyatları, huquqlari, ma'suliyati va ularga nisbatan qo'yiladigan malakaviy talablar.

### **3-mavzu: Tehnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar.**

Mahsulot ishlab chiqishga berilgan tehnik topshiriqning metrologik ekspertizasi. Davlat standartlarining loyihamalarini metrologik ekspertizadan o'tkazish. Metrologik va standartlashtirish ekspertizalarning ilmiy asoslari.

### **4-mavzu: Tehnikaviy hujjatlarning me'yoriy nazorati**

## **(standartlashtirish ekspertizasi).**

Tehnikaviy hujjatlarning me'yoriy nazoratini asosiy maqsadlari va vazifalari. Me'yoriy nazoratni mohiyati va o'tkazish ketma-ketligi. Me'yoriy nazorat hizmatlarini davlat tehnik siyosatini amalga oshirish masalalarini hal qilishdagi roli.

### **AMALIY MASHG`ULOTLAR MAZMUNI**

#### **1-amaliy mashulot: Tehnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasini o'tkazish tartibi va natijalarini rasmiylashtirish.**

Tehnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasini o'tkazish tartibi. Metrologik ekspertizani o'tkazish jarayonida ko'rib chiqiladigan masalalar. Metrologik ekspertiza natijalarini rasmiylashtirish.

#### **2- amaliy mashg`ulot: Metrologik ekspertizani o'tkazish jarayonida topiladigan tipik hatolar. Metrologik ekspertizani samaradorligini oshirish yo'llari.**

Hujjatlarda uchraydigan tipik hatolar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar. Metrologik ekspertizani samaradorligini oshirish yo'llari.

#### **3- amaliy mashg`ulot:Tashkilot standartlarining metrologik ekspertizasi.**

Tashkilot standartlarini tuzilishiga qo'yiladigan talablar. Tashkilot standartlarini belgilanishi va klassifikaciyasiga qo'yiladigan talablar. Tashkilot standartlarining metrologik ekspertizasi.

### **KO'CHMA MASHG`ULOT MAZMUNI**

#### **Mavzu: Korxona va tashkilotlarda texnikaviy xujjatlarning metrologik ekspertizasini tashkil etish.**

Kuchma mashg`ulotda tinglovchilarni "O'zstandart" agentligiga olib borish ko'zda tutilgan. Mavzu yuzasidan turli standartlarni metrologik ekspertizasini o'tkazish jarayoni bilan tanishish, metrologik ekspertiza jarayonida topiladigan tipik hatoliklar va metrologik ekspertiza natijalarini rasmiylashtirish bo'yicha amaliy ishlarni bajarish rejalashtirilgan.

### **TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI**

Ta'limdi tashkil etish shakllari aniq o'quv materiali mazmuni ustida ishlayotganda o'qituvchini tinglovchilar bilan o'zaro harakatini tartiblashtirishni, yo'lga qo'yishni, tizimga keltirishni nazarda tutadi.

Modulni o'qitish jarayonida quyidagi ta'larning tashkil etish shakllaridan foydalilanildi:

- ma'ruza;
- amaliy mashg`ulot;
- mustaqil ta'lim.

O'quv ishini tashkil etish usuliga ko'ra:

- jamoavy;

- quyidagili (kichik quyidagilarda, juftlikda);
- yakka tartibda.

**Jamoaviy ishslash** - Bunda o'qituvchi quyidagilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv maqsadiga erishish uchun o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun hilma-hil metodlardan foydalanadi.

Quyidagilarda ishslash - bu o'quv topshiriqini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o'quv jarayonida kichik guruhlarda ishslashda (2 tadan - 8 tagacha ishtirokchi) faol rol o'ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta'limdi tashkil etish shaklidir. O'qitish metodiga ko'ra quyidagini kichik quyidagilarga, juftliklarga va quyidagilarora shaklga bo'lish mumkin. Bir turdag'i quyidagili ish o'quv quyidagilari uchun bir turdag'i topshiriq bajarishni nazarda tutadi. Tabaqalashgan quyidagili ish quyidagilarda turli topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.

**Yakka tartibdagi shaklda** - har bir ta'lim oluvchiga alohida- alohida mustaqil vazifalar beriladi, vazifaning bajarilishi nazorat qilinadi.

## **II. MODULNI O`QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA`LIM METODLARI**


### **“Venn diagramma” metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

#### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ❖ ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga hos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- ❖ navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;
- ❖ juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

**Namuna: Tehnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasini asosiy vazifalari bo'yicha**



### “Keys-stadi” metodi

**«Keys-stadi»-** inglizcha so'z bo'lib, («case» - aniq vaziyat, hodisa, «stadi» - o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq ahborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### “Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish boqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning ahborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ ahborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ ahborot tahlili; u muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o'quv topshiriqni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik ierarhiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>

3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshiriqining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil echimlarni tanlash</li> </ul>
4-bosqich: Keys echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy hulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

**Keys.** Mashinasozlik korhonasi standartlashtirish va bir hillashtirishning past darajasiga ega bo'lgan stanoklar ishlab chiqardi. Bu ularni o'zlashtirish muddatlarining uzayishiga va ishlab chiqarish tannarhining ortishiga olib keladi. Sizning fikringizcha bu muammoni hal qilishning qanday yo'li yoki yo'llari mavjud? O'z fikringizni bildiring.

### Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar.

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhlarda).
- Brak mahsulot yoki nuqsonli, standartlar talablariga javob bermaydigan mahsulotni ishlab chiqishni bartaraf etish tadbirlari variantlarini muhokama qiling (juftliklardagi ish).

### “Blits-o'yin” metodi

**Metodning maqsadi:** o'quvchilarda tezlik, ahborotlar tizmini tahlil qilish, rejorashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo'llash samarali natijalarni beradi.

### Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to'htamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.
3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'qri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va o'quvchilardan bu javoblarni «to'g`ri javob» bo'limiga yozish so'raladi.
4. «To'g`ri javob» bo'limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo`lsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so'raladi. Shundan so'ng «yakka hato» bo'limidagi farqlar yuqorida pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig`indi hisoblanadi.
5. Huddi shu tartibda «to'g`ri javob» va «guruh bahosi» o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh hatosi» bo'limiga yozib, yuqorida pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig`indi keltirib chqariladi.
6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh hatolarini to'plangan umumiy yig`indi bo'yicha alohida-alohida sharqlab beradi.
7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

**“Mahsulot ishlab chiqishga berilgan tehnik topshiriqning metrologik ekspertizasi” mavzusi bo'yicha namuna.**

Guruh bahosi	Guruh hatosi	To'g`ri javob	Yakka hato	Yakka baho	Ta'minlash tizimining
		6			tekshiruvga taqdim qilingan hujjatlar jamlanmasining to'liqligi
		5			tehnik topshiriqda nazoratdan o'tkazishda ko'rib chiqiladigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'limlarning: nomlanishi va qo'llanilish sohasi, ishlab chiqish manbalari, tehnik talablar, ish davrlari va bosqichlari, shuningdek mahsulotning ilovalar ko'rinishidagi harakteristikalari,

					mazkur tehnik topshiriq bo'yicha mahsulotni ishlab chiqish munosabati bilan ishlab chiqilishi lozim bo'lgan o'lchash, nazorat qilish va sinovdan o'tkazish vositalari ro'yhatining borligi
		3			tehnik talablar ifodalanishining to'liqligi va aniqligi baholanadi, mahsulotning tehnik topshiriqda ko'rsatilgan har bir parametri uchun tehnik talablar ifodalanishining muayyanligi (konkretligi) - ulardan kelib chiqqan holda o'lchashlarning aniqligiga nisbatan qo'yiladigan talablarni asoslab berish mumkin bo'lgan boshqa talablarning borligi
		1			mahsulot parametrlarini talab qilinadigan aniqlikda amalda bo'lgan yoki yangidan ishlab chiqilgan o'lchash vositalari bilan o'lchashning ta'minlash imkoniyatlari baholanadi
		2			ishlab chiqilayotgan mahsulotni ekspluataciya qilish sharoitlariga nisbatan qo'yiladigan talablarning bo'lishi va to'liqligi
		4			metrologik atamalarining, fizikaviy kattaliklar va ularning birliklarining nomlanishi va belgilanishining to'qriligi

## NATIJANI BAHOLASH

8 ta to'g`ri javob uchun	“A'lo”
6-7 ta to'g`ri javob uchun	“Yahshi”
4-5 ta to'g`ri javob uchun	“Qoniqarli”

### III. NAZARIY MATERIALLAR

#### **1-mavzu: Respublikada xalqaro talablar asosida standartlarni ishlab chiqish va qo'llash.**

##### **Reja:**

- 1.Xalqaro talablar asosida standartlarni ishlab chiqish.
- 2.Respublikada Xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlarni va xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish va qo'llash tartibi.
- 3.Standartlarni kelishish va qo'llash tartibi.

##### **1. Xalqaro talablar asosida standartlarni ishlab chiqish.**

O‘zbekistonning eksport salohiyatini oshirish maqsadida mahsulot va xizmatlarga standartlarni xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarilishi maqsadga muvofiqdir.

Bunda quyidagi standartlar ko‘llanilishi mumkin:

- xalqaro standartlar — standartlashtirish bo‘yicha xalqaro tashkilot doirasida qabul qilingan standartlar;
- mintaqaviy yoki davlatlararo standartlar — standartlashtirish sohasida mintaqaviy tashkilot doirasida qabul qilingan standartlar;
- xorijiy mamlakatning standarti — xorijiy davlatning standartlashtirish bo‘yicha vakolatli organi tomonidan qabul qilingan standart.

Mahsulot va xizmatlarga standartlar standartlashtirish tizimi talablariga muvofiq holda standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalar (TQ) tomonidan ishlab chiqiladi.

Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mita (TQ) — faoliyatning biriktirilgan sohasi bo‘yicha milliy, mintaqaviy, davlatlararo va xalqaro standartlashtirish

ishlarini amalga oshirish bo‘yicha manfaatdor tomonlarning hamkorlik qilish shaklidir.

TQ o‘z ishida:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga;
- 2.O‘zbekiston Respublikasi a’zo bo‘lgan standartlashtirish bo‘yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning hujjatlariga;
- 3.O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan standartlashtirish sohasidagi xalqaro shartnomalar va bitimlarga;
- 4.O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tomonidan tasdiqlanadigan standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mita to‘g‘risidagi namunaviy nizomga amal qiladi.

TQ faoliyatiga umumiylar rahbarlikni O‘zstandart agentligi, uning faoliyatini monitoring qilish va muvofiqlashtirish, axborot-texnik jihatdan qo‘llab-quvvatlash va kuzatib borish — Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti (Standartlar instituti) tomonidan amalga oshiriladi.

#### *Standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitaning tuzilmasi*

TQ tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

1. rais,
2. rais o‘rinbosari (zarur bo‘lganda),
3. mas’ul kotib,
4. TQga a’zo tashkilotlar.

TQga rais boshchilik qiladi. Rais, rais o‘rinbosari tashkilotlar rahbarlari, rahbar o‘rinbosarlari, bosh konstruktorlar, bosh texnologlar va TQ a’zolari bo‘lgan bo‘limlar rahbarlaridan saylanadi.

TQ kotibi yati ishiga TQ mas’ul kotibi rahbarlik qiladi. Mas’ul kotib TQ kotibiyatini boshqaruvchi tashkilot xodimlaridan tanlanadi. TQ faoliyatiga tegishli tartibga solish sohasiga taalluqli bo‘lgan davlat va xo‘jalik boshqaruv organi vakili bo‘ligan TQ kotibiyati Standartlar instituti tomonidan yuritiladi.

TQ tuzilmasida TQ faoliyatining ayrim sohalari bo‘yicha ishlarning muayyan qismini bajarish uchun TQ faoliyati sohalari tegishlichcha chegaralangan holda quyi qo‘mitalar tuzilishi mumkin.

Standartlashtirish bo‘yicha quyi qo‘mitani tuzish uchun kamida uchta TQga a’zo tashkilot uning ishida ishtiroy etishga tayyorligini bildirishi kerak. Ishchi guruhning faoliyati loyiha tugagandan so‘ng to‘xtatiladi.

TQ tuzilmasi va tarkibining o‘zgarishi to‘g‘risidagi axborot qaror qabul qilingan kundan boshlab o‘n kun mobaynida Standartlar institutiga yuboriladi.

#### Standartlarni ishlab chiqish va tekshirish

TQ standartlashtirish tizimi talablariga muvofiq holda standartlarni ishlab chiqadi.

TQ standartlarning O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, texnik reglamentlarga, xalqaro (mintaqaviy) standartlarga muvofiqligini tahlil qilish maqsadida ularni tekshiradi, buning natijasida ularni qayta ko‘rib chiqilmasdan va o‘zgartirmasdan amalda saqlash yoki qayta ko‘rib chiqish, o‘zgartirish yoki bekor qilish zarurati to‘g‘risida xulosaga keladi.

Standartlarni tekshirishda TQ standartlashtirish tizimi talablariga amal qiladi.

Agar standartlarni tekshirish jarayonida standartni bekor qilish maqsadga muvofiqligi aniqlansa, u holda TQ kotibiyati standartlashtirish tizimi talablariga muvofiq ushbu standartni bekor qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etadi.

#### **2. Respublikada Xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlarni va xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish va qo‘llash tartibi.**

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 14 martdagи 220-sон qarori bo‘yicha “Respublikada xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlarni va xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish va qo‘llash tartibi to‘g‘risida” Nizom qabul qilindi. (3-Ilovasida keltirilgan). Ushbu Nizom xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlar va xorijiy mamlakatlarni standartlarini O‘zbekiston Respublikasida qabul qilish va qo‘llash tartibini belgilaydi.

*Standartlarni qabul qilish uchun quyidagilar asos bo‘lishi mumkin:*

1. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining topshiriqlarini bajarish maqsadida ishlab chiqilgan Standartlarni qabul qilish bo‘yicha rejalar, dasturlar va tadbirlar;
2. Texnik jihattan tartibga solish Agentligi tomonidan tasdiqlanadigan Respublika standartlashtirish yillik dasturi;
3. standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalarining ish rejalar;
4. manfaatdor tomonlarning Texnik jihattan tartibga solish Agentligiga buyurtmanomalari (murojaatlari).

Respublikada xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlarni va xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish 1-rasmida keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

#### Xalqaro standartlarni qabul qilish

**Xalqaro standartlar** O‘zbekiston Respublikasining davlat standartlari shaklida, davlat tilida va standartning asli yozilgan tillardan birida qabul qilinadi.

Respublikada xalqaro standartlarni qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlari shaklida quyidagicha amalga oshiriladi:

1. IDT qisqartirma bilan belgilangan, xalqaro standartlar bilan aynan o‘xhash;
2. MOD qisqartirma bilan belgilangan xalqaro standartga nisbatan modifikasiyalangan;
3. NEQ qisqartirma bilan belgilangan xalqaro standartlarga nisbatan ekvivalent bo‘lmagan.

Xalqaro standartlarni O‘zbekiston Respublikasining davlat standartlari sifatida qabul qilishga tayyorgarlik bo‘yicha ish standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalari, ular bo‘lmagan taqdirda — Texnik jihattan tartibga solish agentligi huzuridagi standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti (keyingi o‘rinlarda Institut deb ataladi) tomonidan shartnoma asosida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining davlat standarti quyidagi hollarda xalqaro standartlar bilan aynan o‘xhash hisoblanadi:

1. O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti texnik tarkibi, tuzilishi va mazmuni jihatidan aynan o‘xhash bo‘lsa;
2. O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti texnik tarkibi jihatidan aynan o‘xhash, biroq, unga tahririyo o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Xalqaro standartga aynan o‘xhash bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi davlat standartini qabul qilishda, xalqaro standartning identifikasiya raqami titul varaqda aynan o‘xhash xalqaro standartning raqami ko‘rsatilgan holda saqlab qolinadi. Masalan: O‘z DSt ISO 5524:2017 (ISO 5524:1991, IDT).

O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti quyidagi shartlar bilan xalqaro standartga nisbatan modifikasiyalangan hisoblanadi:

1. identifikasiyalangan va tushuntirish berilgan texnik og‘ishlarni o‘z ichiga olgan;
2. identifikasiyalangan va tushuntirish berilgan hamda har ikkala standart tuzilmasini oddiy taqqoslash imkonni bo‘lsagina o‘zgartirish kiritishga ruxsat beriladigan xalqaro standartning (xalqaro hujjatning) tuzilmasini aks ettiradi;
3. xalqaro standartlarga havolalarini almashtirishi mumkin bo‘lgan normativ havolalar shaklida O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlari mavjud bo‘lmasa — har bir havola o‘rniga havola qilinadigan xalqaro standart mazmunini (uning bo‘limlari, bo‘linmalarli, bandlarini, kichik bandlari, ilovalarini) muqobil almashtirishi mumkin bo‘lgan qoida keltiriladi;
4. qo‘llaniladigan xalqaro standart matnida aynan o‘xhash yoki modifikasiyalangan davlat standartlari sifatida qabul qilingan boshqa xalqaro standartlarga havolalar bo‘lsa — o‘zgartirilgan standart loyihasini tayyorlashda

xalqaro standartlarga havolalar o‘rniga ular bilan uyg‘unlashtirilgan davlat standartlariga havolalardan foydalanadi. Modifikasiyalangan standart matnida xalqaro standartga havola o‘rniga bir xil standartlashtirish ob’yektiga (mahsulot, jarayon yoki xizmat) tatbiq etiladigan, biroq havola qilinadigan xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirilmagan davlat standartiga havola qilishga ruxsat etiladi.

Xalqaro standartga nisbatan modifikasiyalangan O‘zbekiston Respublikasining davlat standartini qabul qilishda, xalqaro standartning identifikasiya raqami titul varaqda aynan o‘xhash xalqaro standartning raqami ko‘rsatilgan holda saqlab qolinadi.

Masalan: O‘z DSt 9227:2015 (ISO 9227:2012, MOD)

O‘zbekiston Respublikasining davlat standarti quyidagi shartlarda xalqaro standartga nisbatan noekvivalent hisoblanadi:

1. identifikasiyalanmagan va ularni kiritish sabablari tushuntirilmagan texnik og‘ishlarni o‘z ichiga olgan;
2. identifikasiyalanmagan va tushuntirilmagan, tuzilmasida xalqaro standart bilan oddiy taqqoslashni ta’milaydigan o‘zgarishlarga ega;
3. xalqaro standart talablarining katta bo‘lmagan (miqdori va/yoki ahamiyati jihatidan) qismini o‘z ichiga olgan.

Xalqaro standartga nisbatan noekvivalent O‘zbekiston Respublikasining davlat standartini qabul qilishda, xalqaro standartning identifikasiya raqami tartib raqamiga qo‘yilmaydi. Noekvivalent xalqaro standartning raqami titul varaqqa yozib qo‘yiladi.

Masalan: O‘z DSt 3722:2014 (ISO 3290-1:2008, NEQ).

### *Mintaqaviy yoki davlatlararo standarlarni qabul qilish*

Respublikada mintaqaviy standarlarni qabul qilish standartning identifikasiya raqamini davlat tilida va standartning asli yozilgan tillardan birida saqlangan holda bevosita qabul qilish orqali amalga oshiriladi. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi a’zo — mamlakatlarining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo‘yicha Davlatlararo kengashi doirasida qabul qilinadigan standartlar Davlatlararo kengashning standartlashtirish bo‘yicha ishlarni olib borish qoidalariga muvofiq qabul qilinadi.

Xalqaro, mintaqaviy yoki davlatlararo standarlarni bir vaqtning o‘zida qabul qilish bo‘yicha ish olib borishda, birinchi navbatda qabul qilinayotgan mintaqaviy yoki davlatlararo standart bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan va ularning talablari bajarilishini ta’milaydigan havola qilingan standarlarni qabul qilish muhimligini hisobga olish kerak.

### *Xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish*

Respublikada xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish standartning identifikasiya raqamini davlat tilida hamda standartning asli yozilgan tillardan birida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Xorijiy mamlakatlarning standartlashtirish bo‘yicha vakolatli organlaridan olingan ushbu mamlakatlarning standartlarini qo‘llash to‘g‘risidagi rozilik respublikada xorijiy mamlakatlarning standartlarini qabul qilish uchun asos hisoblanadi.

Босқичлар	Субъектлар	Тадбирлар	Муддатлар
1-босқич	Манфаатдор томон	Стандартни қабул қилиш учун буюртманомани бериш	Заруратта кўра
2-босқич	«Ўзстандарт» Агентлиги	Хорижий мамлакат стандартини кўллаш тўғрисида розилигини олиш учун ушбу мамлакатнинг ваколатли органларига сўровни юбориш	5 кун давомида
3-босқич	«Ўзстандарт» Агентлиги	Стандартни қабул қилиш буюртманомасини техник кўмиталарга ёки Институтга юбориш	5 кун давомида
4-босқич	Манфаатдор томон, Стандартлаштириш бўйича техник кўмиталар, Институт	Стандартни қабул қилишга (ишлаб чиқиш, таржима қилиш, расмийлаштириш) тайёрлаш	Шартномада келишилган муддатларда
5-босқич	Стандартлаштириш бўйича техник кўмиталар, Институт	Қабул қилинадиган Стандартни манфаатдор томонлар билан келишиш	15 кун давомида
6-босқич	Стандартлаштириш бўйича техник кўмиталар, Институт	«Ўзстандарт» Агентлигига Стандартни республикада қабул қилиш мақсадга мувофиқлиги ёки мувофиқ эмаслиги тўғрисидаги хуносани киритиш	5 кун давомида
7-босқич	«Ўзстандарт» Агентлиги	Стандартни Республика ҳудудида кўллаш мақсадга мувофиқлиги ёки мувофиқ эмаслиги тўғрисидаги қарорни қабул қилиш	5 кун давомида
8-босқич	«Ўзстандарт» Агентлиги	Стандартни кўллаш ҳақидаги қарор қабул қилинганда уларни амалга киритиш	уч ойдан кечикмай
9-босқич	«Ўзстандарт» Агентлиги, Институт	Республика ҳудудида қабул қилинган Стандарт тўғрисидаги маълумотни расмий сайтларда эълон қилиш	5 кун давомида

1-rasm. Respublikada xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlarni va xorijiy mamlakatlarining standartlarini qabul qilish sxemasi

Qabul qilinayotgan xorijiy mamlakatlar standartida respublikada qabul qilinmagan boshqa Standartlarga havolalar mavjud bo‘lsa, ularning bir vaqtida qabul qilinishi bo‘yicha ishlar olib borilishi kerak. Havola qilingan Standartlarni bir vaqtning o‘zida qabul qilish bo‘yicha ish olib borishda, birinchi navbatda qabul qilinayotgan xorijiy mamlakatning standarti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan va ularning talablari bajarilishini ta’minlaydigan havola qilingan Standartlarni qabul qilish muhimligini hisobga olish kerak.

### **3. Standartlarni kelishish va qo‘llash tartibi.**

Standartlarni qabul qilish bo‘yicha Texnik jihattan tartibga solish Agentligiga ariza tushganidan so‘ng, Texnik jihattan tartibga solish Agentligi besh kundan ortiq bo‘lmagan muddatda xorijiy mamlakatlarning standartlarini qo‘llash to‘g‘risida roziligin olish uchun ushbu mamlakatlarning vakolatli organlariga so‘rov yuboradi. Qabul qilinayotgan Standartlarni manfaatdor tomonlar bilan kelishish standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalari, ular bo‘lmagan taqdirda — Standartlashtirish instituti tomonidan amalga oshiriladi.

Qabul qilinayotgan Standart manfaatdor tomonlar tomonidan o‘n besh kundan ortiq bo‘lmagan muddatda ko‘rib chiqiladi va ushbu standartni respublikada qabul qilishning maqsadga muvofiqligi (maqsadga muvofiq emasligi) bo‘yicha takliflar kiritiladi. Manfaatdor tomonlar tomonidan o‘n besh kun mobaynida takliflar kiritilmasa, ushbu Standart kelishilgan hisoblanadi. Kelishish natijalariga ko‘ra standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mitalari (ular bo‘lmagan taqdirda — Standartlashtirish instituti) besh kun muddatda Texnik jihattan tartibga solish Agentligiga ushbu Standartni respublikada qabul qilish maqsadga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to‘g‘risidagi xulosani taqdim etadi.

Standartlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash maqsadga muvofiqligi yoki maqsadga muvofiq emasligi to‘g‘risida Texnik jihattan tartibga solish Agentligi tomonidan besh kundan ortiq bo‘lmagan muddatda qaror qabul qilinadi. Standartlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lmagan hollarda «O‘zstandart» Agentligi manfaatdor tomonlarga asoslangan rad javobini yuboradi.

Standartlar ularni amalga kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan boshlab uch oydan kechikmay kuchga kiradi.

Amaldagi davlat standarti o‘rniga yangi Standart qabul qilingan taqdirda o‘n ikki oydan ko‘p bo‘lmagan o‘tish davri nazarda tutiladi. O‘zbekiston Respublikasi hududida qabul qilingan Standartlar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarning Davlat fondi tarkibiga kiritiladi.

Texnik jihattan tartibga solish Agentligi qabul qilingan standartlar reyestrini yuritadi. O‘zbekiston Respublikasi hududida qabul qilingan Standartlar to‘g‘risidagi

ma'lumot Texnik jihattan tartibga solish Agentligi va Institutning rasmiy saytlarida qo'llash haqidagi qaror qabul qilingandan so'ng 5 kundan kech bo'limgan muddatda e'lon qilinadi.

Xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlar va xorijiy mamlakatlarning standartlari ularni qo'llash doirasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va boshqa manfaatdor tomonlar tomonidan qo'llaniladi.

### **Nazorat savollari:**

1. O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish uchun qanday standartlar qo'llaniladi?
2. Mahsulot va xizmatlarga standartlar kim tomonidan ishlab chiqiladi?
3. Texnik qo'mita (TQ) o'z ishida nimalarga amal qiladi?
4. TQ tuzilmasiga kimlar kiradi?
5. "Respublikada xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlarni va xorijiy mamlakatlarining standartlarini qabul qilish va qo'llash tartibi to'g'risida" Nizom kachon va kim tomondan qabul qilindi?
6. Respublikada xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlarni va xorijiy mamlakatlarining standartlarini qabul qilish uchun nimalar asos bo'lishi mumkin?
7. Qanday hollarda O'zbekiston Respublikasining davlat standarti xalqaro standartlar bilan aynan o'xshash hisoblanadi?
8. Qanday hollarda O'zbekiston Respublikasining davlat standarti xalqaro standartlarga noekvivalent hisoblanadi?
9. Respublikada mintaqaviy standartlarni qabul qilish qanday amalga oshiriladi?
10. Respublikada xorijiy standartlarni qabul qilish qanday amalga oshiriladi?
11. Xalqaro, davlatlararo, mintaqaviy standartlar va xorijiy mamlakatlarning standartlarini kelishish va qabul qilish tartibini keltiring.

### **Foydalanilgan va tavsiya qilinadigan adabiyotlar**

1. Matyakubova P.M., Ismatullaev P.R, To'raev SH.A. «Standartlashtirish asoslari». Darslik -T:TDTU, 2019, 435bet
2. Лифиц, И.М. Стандартизация, метрология и подтверждение соответствия: учебник / И.М. Лифиц. М.: Юрайт; ИД Юрайт, 2014.411 с.
3. Клевлеев В.М. Метрология, стандартизация и сертификация. Учебник. Москва, ИМПРАМ., 2004, 422 стр.
4. Сергеев А.Г. Основы метрологии, стандартизации и сертификации.

Учебник, Москва, ЛОГОС, 2001,398 стр.

5. Isaev R.I., Karimova U.N. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik -T: «Aloqachi», 2017, 612 bet.
6. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi,( 15.03.2019y, 09/19/220/2770-son)

## **2-mavzu: Korxona va tashkilotlarda texnikaviy xujjatlarining metrologik ekspertizasini tashkil etish.**

Reja:

1. Texnikaviy xujjatlarning metrologik ekspertizasini mohiyati.
2. Metrologik ekspertizani rejalashtirish.
3. Xujjatlarni metrologik ekspertizaga taqdim qilish tartibi va ekspertizada ko‘rib chiqiladigan masalalar.
4. Metrolog-ekspertlarni majburiyatları, xuquqlari, ma’suliyati va ularga nisbatan qo‘yiladigan malakaviy talablar.

### **1.Texnikaviy xujjatlarning metrologik ekspertizasini mohiyati.**

Maxsulot sifatini oshirishning asosiy vositalaridan biri -konstruktorlik va texnologik xujjatlarni metrologik ekspertizadan o‘tqazishdir.

*Texnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasi* – bu buyumlarni tayyorlash, sinovlardan o‘tkazish, ekspluatasiya qilish va ta’mirlash jarayonida ularni o‘lchanadigan parametrlarini tanlash, aniqlik me’yorlarini o‘rnatish, o‘lhash vositalarini tanlash bo‘yicha texnik yechimlarni tahlil qilish va baholashdir.

Metrologik ekspertizaga taqdim etiladigan xujjatlarning ruyxati O’zRH 51-106:2001 “Texnikaviy xujjatlarning metrologik ekspertizasi.Tashkil etish va o‘tkazish tartibi” da keltirilgan. Ularga matnli konstruktorlik xujjatlar, chizmalar va va texnologik xujjatlar kiradi.

Matnli konstruktorlik xujjatlar turkumiga tashkilot standartlari, tushuntirish xati, sinovlar dasturlari va metodikalari, ekspluatasion va remont xujjatlarini kiradi.

Ekspluatasion xujjat – matnli konstruktorlik xujjat bulib, maxsulotni ekspluatasiya qilish qoidalarini belgilaydi va uni ishlab chiqaruvchi tomonidan kafolatlangan asosiy xarakteristikalarini va parametrlarini aks etadi. Ekspluatasion xujjatlar matnli, grafik va multimedia shaklida ishlab chiqariladi.

Chizmalarga yig‘ma chizmalar, montaj, gabarit chizmalarini xamda detal chizmasi kiradi.

Texnologik xujjatlar kuyidagilardir: marshrut kartasi, operasion kartasi, tipik operasion kartasi, eskizlar kartasi, texnologik instruksiyalar, reglamentlar va xokazo.

Metrologik ekspertizaning asosiy vazifalari texnikaviy xujjatlardagi ma’lumotlarni baholash, tahlil qilish va nazorat qilishdan iboratdir.

Texnikaviy xujjatlarda quyidagilar baholanadi:

- 1.o‘lchanadigan parametrlar nomenklaturasining rasionalligi;
- 2.o‘lhashlarning aniqligiga qo‘yiladigan talablarning optimalligi;
- 3.o‘lhash vositalariga qo‘yiladigan talablarning to‘liqligi va aniqligi;
- 4.berilgan parametrlarni o‘lhashlarning aniqlik talablariga muvofiqligi;
- 5.buyumning (o‘lhash tizimlarining) nazorat qilishga yaroqliligi;

6.tanlangan o‘lchashlarni bajarish vositalari va uslublarining rasionalligi.  
Quyidagilar tahlil qilinadi:

1.o‘lchash operasiyalarida hisoblash texnikasidan foydalanilishi (o‘lchashlar xatoligining hisoblash algoritmining mukammal emasligi tufayli yuzaga keladigan uslubiy tarkib toptiruvchisi).

Quyidagilar esa nazorat qilinadi:


1.Atamalar, kattaliklarning nomlari va belgilanishlarining ishlatilishi va ularning birliklarining qo‘llanilishining to‘g‘riligini tekshirish;

2.Atamalar, kattaliklarning nomlari va belgilanishi, ularning birliklarining me’yoriy xujjatlar talablariga mos kelmaydigani ishlatilishi va qo‘llanilishiga yo‘l qo‘ymaslik.



1-Rasm. Metrologik ekspertizaning asosiy vazifalari.

Hujjatlari metrologik ekspertizaga tortiladigan mahsulotlarning nomenklaturasini aniqlashda barcha ishlab chiqarilayotgan va ishlab chiqilayotgan mahsulotlarning metrologik ekspertizasini o‘tkazish talabi metrologik ta’milot masalalari bo‘yicha qo‘llaniladigan yechimlarning bir tipli bo‘lishi evaziga ko‘pincha rasional bo‘lmasligidan kelib chiqish lozim bo‘ladi.



Rasm 2. Metrologik ekspertizasining asosiy maqsadlari.

Bundan tashqari bunday hollarda metrologik ekspertizaning yuzaki, tekshirilayotgan hujjatlarni yetarlicha tahlil qilmasdan o‘tkazilish xavfi paydo bo‘ladi. Metrologik ekspertizaani tashkil qilishda ekspertizani yangi mahsulotlardan, buyurtmachi tomonidan qabul qilib olinadigan mahsulotlardan, sertifikatlashtirishga taqdim qilingan mahsulotlardan, shuningdek eksportga yuboriladigan mahsulotlardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Mahsulotlar nomenklaturasini belgilashda o‘lchashlarning holatini tahlil qilish ma’lumotlaridan, o‘lchashlar holatini tahlil qilish natijalaridan, shuningdek ishlab chiqarishda yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarilishining sabablarini tahlil qilish natijalaridan va iste’molchilardan kelgan reklamasiyalardan (reklamasiya – mahsulot sifati iste’molchini qanoatlantirmagan taqdirda mahsulotni ishlab chiqaruvchiga qaytarish) foydalanish lozim.

Texnikaviy hujjatlarni ishlab chiqishning metrologik ekspertiza o‘tkaziladigan bosqichlarini va metrologik ekspertizaga tortiladigan hujjatlarning turlarini aniqlash – muhim tashkiliy jihatlardan biridir.

***Ekspertizani o‘tkazish quyidagilarga yo‘naltirilishi lozim:***

1. Ishlab chiqarishga texnik asoslangan aniqlik, mehnat sig‘imini kamaytirish va nazorat qilish operasiyalarining tannarxini pasaytirish bilan ta’minlangan zamonaviy va ilg‘or nazorat qilish uslublari va vositalarini joriy qilish.

**2.** Korxonaning barcha bo‘limlarida qabul qilinadigan o‘lchash vositalari va uslublari, texnologik jarayonning optimal rejimlari va mahsulotning sifatini nazorat qilishning muvofiqligini ta’minlash.

Korxonalar konkret tarmoqlarning spesifikasini hisobga olish bilan ularda ekspertiza o‘tkaziladigan quyidagi hujjatlarni ishlab chiqish bosqichlarini belgilashi lozim bo‘ladi:

- texnik topshiriq,
- texnik taklif
- eskitli yoki texnik loyiha,
- ishchi hujjatlarni ishlab chiqish.

Metrologik ekspertizani barcha bosqichlarda o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi, har bir holatda optimal variant qidiriladi. Metrologik ekspertizani ishlab-chiqarish-texnik bo‘linmalarining yoki metrologiya xizmatining mutahassislari o‘tkazishi mumkin.

**Birinchilari** ekspertizga texnik hujjatlarda aks ettiriladigan ishlab chiqarish yechimlarini tortadi (parametrlarni o‘lchash hajmi va nomenklaturasi, parametrlar va o‘lchashlarning o‘zgarishlar diapazonlari, beriladigan yo‘l qo‘yilishlar, ta’sir ko‘rsatuvchi shart-sharoitlar va hokazolar).

**Ikkinchilari** – ekspertizaga parametrlarni o‘lchash uslubiyati va o‘lchash qositalarini tanlashni tortadi. Ko‘pincha bu ikkita yo‘nalish bo‘yicha ekspertizani bitta mutaxassis o‘tkazadi, biroq bu uning samaradorligini pasaytiradi, chunki mutaxassisning malakasi bir tomonlama bo‘lganligi tufayli tahlil qilish kerakli darajada bo‘lmaydi. Ekspertlar va ekspertlik komissiyalari korxona yoki bo‘linma bo‘yicha buyruqlar yoki farmoyishlar bilan ma’lum bir davrga tasdiqlanishi mumkin.

Hujjatlarni ishlab chiqishning metrologik ekspertiza o‘tkaziladigan bosqichlarini aniqlashda shuni nazarda tutish kerak-ki, bu o‘rinda metrologik ekspertizani texnik hujjatlarni ishlab chiqishning dastlabki bosqichlarida o‘tkazish ko‘proq yuqori samaralarni beradi, bunda metrologik ekspertiza natijalarini amalga oshirish uchun ketadigan xarajatlar minimal bo‘ladi. Ishchi hujjatlarini ishlab chiqish bosqichida metrologik ekspertiza natijalarini amalga oshirish va joriy qilish (agar ilgari metrologik ekspertiza o‘tkazilmagan bo‘lsa) bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Hujjatlarni ishlab chiqishning har bir bosqichida (texnik topshiriq, texnik taklif, qoralama loyiha, texnik loyiha, ishchi hujjatlarni ishlab chiqish) metrologik ekspertiza o‘tkazish ko‘pincha maqsadga muvofiq bo‘lmaydi, shu sababli har bir tarmoq (korxona) uchun uning spesifikasini (o‘ziga xosligini) hisobga olgan holda optimal variantni topish lozim bo‘ladi. Amaldagi tarmoq me’yoriy-texnik hujjatlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, metrologik ekspertiza

ko‘pincha loyihalashtirish bosqichlvaridan birida (texnik topshiriq yoki qoralama loyiha), so‘ngra esa ishchi texnik hujjatlarni ishlab chiqish bosqichida o‘tkaziladi,

Har bir tarmoq va korxona uchun texnik hujjatlarning metrologik ekspertizaga tortiladigan muayyan (konkret) turlarini aniqlash lozim bo‘ladi. Faqatgina o‘lchanadigan parametrlar, o‘lchashlar aniqligining me’yorlari, o‘lchash, sinovlardan o‘tkazish va nazorat qilishning uslublari va vositalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan texnik hujjatlarni tekshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni texnologik jihatdan tayyorlashda o‘lchashga tortiladigan parametrlarning vazifasiga, texnologik jarayonni boshqarish va nazorat qilish uchun o‘lchash vositalarini tanlashga har doim ham yetarlicha e’tibor berilavermaydi.

Texnologik jarayonlarning ishlab chiqarilayotgan mahsulotga nisbatan parametrlari nazoratga tortiladigan ishchi o‘rinlarida texnik hujjatlarni ishlab chiquvchining aybi bilan zaruriy o‘lchash vositalarining bo‘lmasligi, o‘lchash uslublarining yetarlicha samarali bo‘lmasligi standartlar va texnik shartlarning talablaridan chetlashishlarga ega bo‘lgan mahsulotning ishlab chiqarilishiga olib keladi. Texnik hujjatlarni ularni ishlab chiqish bosqichlarida metrologik ekspertizadan o‘tkazish aynan shu kamchiliklarning oldini olishga qaratilgan.

Metrologik ekspertiza hujjatlarni passiv tekshirishdan iborat emas, u mahsulotni ishlab chiqish, ishlab chiqarish va ekspluatasiya qilishning majmuaviy metrologik ta’minotini taklif qiladi. Mahsulot chizmalarini ham, texnologik jarayonlarni ham ekspertizadan o‘tkazish natijalari bo‘yicha zaruriy o‘zgartirishlar kiritiladi, mahsulotni ishlab chiqarishga beriladigan ruxsat etiladigan yo‘l qo‘yilishlar qat’iylashtiriladi, maxsus nazorat vositalari ishlab chiqiladi va tayyorlanadi, maxsus o‘lchash jihozlari loyihalanadi va tayyorlanadi.

Metrologik ekspertizani faqatgina me’yoriy hujjatlarda belgilangan metrologik qoidalar, me’yorlar va talablarni tekshirishga keltiriladigan metrologik nazorat bilan aralashtirmaslik lozim.

Metrologik ekspertiza – ishlab chiqarishni tayyorlashni metrologik ta’minalash ishlarining bir qismidir, u ekspertizaning bir qismi bo‘lib ham hisoblanishi mumkin.

O‘lchanadigan parametrlar nomenklaturasining optimalligini va sifatni nazorat qilishning ishonchliligi va samaradorligini hamda o‘zaro almashinuvchanlikni ta’minalash maqsadida ularni o‘lchash aniqligining optimalligini baholash metrologik ekspertizaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘lchanadigan parametrlar va o‘lchashlar aniqligining me’yorlari nomenklaturasi ikkita muhim ko‘rsatkich: ishonchlilik va uning mehnattalabligini belgilaydi. Ishlab chiquvchilar va texnologlar ko‘pincha jarayonning mehnattalabligini va bu omil yetarlicha katta ahamiyatga ega ekanligini hisobga olmasdan texnologik jarayon, asbob-uskunalar va jihozlarning rejimlarini maksimal

darajada nazorat qilish yo‘lidan boradilar, nazorat-o‘lhash operasiyalvarining mehnattalabligi mahsulotni tayyorlashning umumiy mehnattalabligidan o‘rtacha 10 % ni tashkil qiladi, bir qator sohalaroda esa bu ko‘rsatkich anchagini yuqoridir.

Barcha tekshiriladigan hujjatlarda o‘lchanadigan parametrlarni yozishning to‘g‘ri shakli belgilanadi. Har bir me’yorlashtiriladigan parametr yoki yo‘l qo‘yiladigan chetlashishlar bilan minimal qiymatda, yoki eng chekka qiymatlarda, yoki maksimal, yoki minimal qiymatlarda berilgan bo‘lishi mumkin. Bularning ichida birinchisi ko‘proq afzal hisoblanadi.

O‘lhash vositalariga va o‘lhashlarni bajarish uslubiyotlariga nisbatan qo‘yiladigan talablarning to‘g‘riliqi va to‘liqligi ham metrologik ekspertizaning muhimlikda boshqalaridan qolishmaydigan masalalaridan hisoblanadi, bu talablarni o‘lhashlar xatoliklarini hisobga olgan holda o‘rnatish lozim.

Tanlangan o‘lhash vositalarining standartlashtirilganligini, bir xillashtirilganligini va avtomatlashtirilganligini, ular nazorat-o‘lhash operasiyalarining zaruriy unumdoorligini ta’minlay olish-olmasligini tekshirish metrologik ekspertiza tomonidan yuqorida ko‘rsatilgan vazifani hal qilishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Ishlab chiqariladigan mahsulotni nazorat qilish jarayonida, zarur texnologik jarayon parametrlarini o‘lhashda, texnik xujjat ishlab chiquvchining aybi bilan zarur bo‘lgan o‘lhash vositalarini yo‘qligi yoki belgilangan o‘lhash usulining yetarlicha samarali bo‘lmasligi texnik shart va standart talablari doirasidan chetga chiquvchi maxsulot ishlab chiqarilishiga sabab bo‘ladi. Ishlab chiqish bosqichlarida texnikaviy xujjatlarning metrologik ekspertizasini o‘tkazilishi bunday kamchiliklarni oldini oladi.

Metrologik ekspertizani o‘tkazish jarayonida o‘lchanadigan parametrlar nomenklaturasi sinchiklab tahlil qilinadi, ular orasida mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan korrelyasion bog‘liqliklar aniqlanadi hamda o‘lchanishi zarur bo‘lmagan parametrlar topiladi.

## **2. Metrologik ekspertizani rejallashtirish.**

Korxonada metrologik ekspertizani o‘tkazish ishlari rejallashtirilishi lozim. Rejani tuzishning quyidagi tartibi taklif qilinishi mumkin: texnik hujjatlarni ishlab chiqish bo‘linmasi metrologiya xizmatiga metrologik ekspertizani o‘tkazish bo‘yicha o‘zining takliflarini kiritadi, metrologiya xizmati bu takliflarni umumlashtiradi, metrologik ekspertizani o‘tkazish rejasining loyihasini tuzadi, uni bo‘linmalar bilan muvofiqlashtiradi va rahbariyatga tasdiqlatadi. So‘ngra reja ularni korxonada hujjatlarni metrologik ekspertizadan o‘tkazishda ishtiroq etish to‘g‘risidagi taklif bilan birgalikda metrologiya xizmatining bazaviy yoki bosh tashkilotiga yuboriladi. Bazaviy yoki bosh tashkilot korxonalarda hujjatlarni

metrologik ekspertizadan o'tkazishda ishtirok etish bo'yicha o'zining rejasini tuzadi.

Metrologik ekspertizani o'tkazish reja-grafigi bir yillik yoki choraklik qilib tuziladi. Unga yangidan ishlab chiqilgan hujjatlar ham, amalda bo'lgan, biroq hali metrologik ekspertizadan o'tkazilmagan hujjatlar ham kiritiladi. Yil davomida reja-grafikka belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Hujjatlarni o'z vaqtida metrologik ekspertizaga taqdim qilish bo'yicha javobgarlik hujjatlarni taqdim qilishi lozim bo'lgan bo'linma rahbarining zimmasida bo'ladi.

Bir qator hollarda metrologik ekspertizani o'tkazish majburiy xarakterga ega bo'ladi, biroq bu vaziyatda ham uning xujjatlarini va amalga oshirish tartibini aniqlash amaldagi qonunchilik bilan qat'iy reglamentlanadi. Shu bilan birqalikda, uning maqsadi xujjatning tavsiflarining tashkilotning ichki talablari va standartlariga muvofiqligini aniqlash bo'lib hisoblanadigan metrologik ekspertizani ixtiyoriy ravishda o'tkazishda mazkur proseduraga tortilishi mumkin bo'lgan xujjatlarning spektri juda keng bo'lishi mumkin.

Xususan, bunday hollarda tegishli xujjatlarning ro'yxati, qoidaga ko'ra, berilgan korxonaning oldida turgan konkret ishlab chiqarish vazifalari bilan belgilanadi. Bu vazifalar qanday ifodalanishi, ekspertizani o'tkazishda ekspertlarning oldiga qanday vazifalar qo'yilishiga bog'liq ravishda metrologik ekspertizadan o'tkaziladigan xujjatlar ro'yxatiga quyidagi masalalar kiritilishi mumkin:

- ekspertizani o'tkazishning uslub va uslubiyat tamoyillari, shuningdek o'lchashlarning aniqlik darajasi;
- tahlil qilinadigan xujjat yoki konstruksiyaning texnik imkoniyatlari, shuningdek uning talab qilinadigan parametrлarni nazorat qilishni amalga oshirish uchun yaroqliligi;
- tahlil qilinadigan xujjat yoki konstruksiyanı muqobil qo'llash imkoniyatlari, shuningdek tadqiq qilinadigan xujjatning tavsiflarini yaxshilash potensiali;
- xujjatlarni ekspluatasiya qilishning optimal va yo'l qo'yiladigan shart-sharoitlari va buzilishlar sodir bo'lganda ta'mirlashga yaroqliligi.

Sanab o'tilgan parametrлarning ahamiyatini aniqlash, shuningdek metrologik ekspertizani o'tkazish uchun mas'ul bo'lgan mutaxassislarning oldiga qo'yilgan qo'shimcha savollarga javob olish maqsadida o'lchash xujjatlarining u yoki bu xususiyatlarini tavsiflaydigan turli hujjatlardan foydalaniishi mumkin. Bunday hujjatlarga, xususan, quyidagilar kiradi:

- xujjatlarni ishlab chiqishga texnik topshiriqlar va ularni ishlab chiqish davomida konstruktorlik jamoasi tomonidan shakllantirilgan tushuntirish yozuvlari;
- qilingan ishlar, bajarilgan sinovlar to'g'risida hisobotlar, loyiha hujjatlari va texnologik kartalar;

- xujjatlarni ekspluatasiya qilishning texnik shartlari, standartlar va ularning qo'llanilishi, reglamentlar va yo'riqnomalar;

- tahlil qilinadigan xujjatlarning xususiyatlarini tavsiflaydigan boshqa hujjatlar.

Konstruktorlik va texnologik hujjatlar metrologik tekshiruvga me'yoriy nazoratdan oldin keladigan muvofiqlashtirishlar va barcha tekshirishlardan o'tgan asl nusxalarda, jamlangan holda taqdim qilinadi. Ba'zi bir korxonalarda kiritilgan tanbehtarlar va takliflarni hisobga olishni osonlashtirish maqsadida yangidan ishlab chiqilgan hujjatlarning metrologik ekspertizasi ikki bosqichda o'tkaziladi: tanbehtarlar va takliflar ro'yxatini tuzish bilan birlamchi hujjatlarni tekshirish va hujjatlarga viza qo'yish bilan asl nusxalarni tekshirish.

Ekspert (metrologik ekspertizani o'tkazish uchun mas'ul bo'lган shaxs) tomonidan hujjatlarni tekshirish paytida qalam bilan qo'yilgan belgilar yangidan ishllab chiqilgan hujjatlar uchun hujjatlarga viza qo'yilgunga qadar yoki amaldagi hujjatlar uchun o'zgartirishlar to'g'risidagi xabarnomalar rasmiylashtirilgunga qadar saqlanadi.

Metrologik ekspertizadan kamchiliklarsiz o'tgan hujjatlar, shuningdek metrologik ekspertiza natijalari bo'yicha tuzatilgan hujjatlarga viza qo'yiladi: viza asosiy konstruktorlik hujjatining birincha betiga, hujjatlarni tikish uchun mo'ljallangan hoshiyaga, texnologik hujjatning esa titul varag'iga, hujjatlar jamlanmasining asosiy imzolar grafasiga qo'yiladi.

Standartda yoki korxonaning boshqa me'yoriy-texnik hujjatlarida metrologik ekspertizaga tortiladigan texnik hujjatlar me'yoriy nazoratga faqatgina uni ishlab chiqqan shaxsning vizasi bo'lган taqdirda taqdim qilinishini ko'zda tutish lozim bo'ladi.

Boshqa korxonalardan kelgan hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazish natijalari bo'yicha, shuningdek metrologik ekspertiza ekspertlar komissiyasi tomonidan o'tkazilgan bo'lsa, texnik hujjatlardagi o'zgarishlarni rasmiylashtirish talab qilingan yoki metrologik ta'minotning samaradorligini oshirish choratadbirlarini ishlab chiqish talab qilingan hollarda ekspert xulosasi rasmiylashtiriladi.

Ishlab-chiqaresh-texnik bo'linmalarning mutaxassislari ekspertizaga texnik hujjatlarda aks ettiriladigan ishlab chiqaresh yechimlarini tortadi (parametrlarni o'lhash hajmi va nomenklaturasi, parametrlar va o'lhashlarning o'zgarishlar diapazonlari, beriladigan yo'l qo'yilishlar, ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlar va hokazolar).

**Metrologiya xizmati mutaxassislari** – ekspertizaga parametrlarni o'lhash uslubiyati va o'lhash qositalarini tanlashni tortadi. Ko'pincha bu ikkita yo'naliish bo'yicha ekspertizani bitta mutaxassis o'tkazadi, biroq bu uning samaradorligini pasaytiradi, chunki mutaxassisning malakasi bir tomonlama bo'lganligi tufayli tahlil qilish kerakli darajada bo'lmaydi. Ekspertlar va ekspert komissiyalari korxona

yoki bo‘linma bo‘yicha buyruqlar yoki farmoyishlar bilan ma’lum bir davrga tasdiqlanishi mumkin.

Ko‘pgina korxonalarda hujjatlarni metrologiya xizmati bilan kelishishga muhim o‘rin ajratiladi.

Kelishishga o‘lhashlarni bajarishga qo‘yiladigan bevosita yoki bilvosita talablar aks ettirilgan xujjatlar tortiladi – bu:

- mahsulotni ishlab chiqishga buyurtmalar;
- o‘lhash vositalarini sotib olishga buyurtmalar;
- texnik topshiriqlar va texnik shartlar;
- eskizli va texnik loyihalar;
- sinovlardan o‘tkazish dasturlari va uslubiyatlari;
- o‘lhashlarni bajarish uslubiyatlari;
- nostandard o‘lhash vositalarini yaratishga hujjatlar to‘plamadir.

### **3. Xujjatlarni metrologik ekspertizaga taqdim qilish tartibi va ekspertizada ko‘rib chiqiladigan masalalar.**

Metrologik ekspertizadan o‘tkaziladigan xujjatlar quyidagicha taqdim qilinishi mumkin:

- konstrukturlik hujjatlari bilan (chizmalar to‘plami, har qanday turdagи buyumlarning umumiyo‘ ko‘rinishining chizmalari, texnologik asbob-uskunalar va o‘lhash vositalarini ham o‘z ichiga olgan holda, murakkab detallarning chizmalari);
- texnologik asbob-uskunalar va o‘lhash vositalarini ekspluatasiya qilish hujjatlari bilan (ekspluatasiya qilish bo‘yicha yo‘riqnomalar, pasport);
- texnologik hujjatlar bilan (nazorat qilish operasiyalarini albatta ko‘rsatish bilan texnologik jarayonlarning tasvirlanishi);
- metrologik tadbir hujjatlari bilan (o‘lhashlarni bajarish uslubiyati, o‘lhash bilan nazorat qilish uslubiyati, o‘lhash vositalarini qiyoslash va kalibrlash uslubiyati, o‘lhash vositalarini metrologik attestasiyadan o‘tkazish uslubiyati);
- ilmiy tadqiqotlarning materiallari bilan, masalan, ilmiy-tadqiqot ishi to‘g‘risida hisobot, risola, maqola va hokazolar;
- me’yoriy hujjat bilan (davlat standarti, tarmoq me’yoriy hujjati, korxona standarti, texnik shartlar va boshqalar);
- ilmiy-texnik adabiyotlar bilan, spravochniklar va o‘quv adabiyotlarini ham o‘z ichiga olgan holda.

Umuman xujjatga yoki uning tarkibiy qismlariga qo‘yilgan standart talablarning bo‘lishi, shuningdek xujjatning metrologik ekspertizadan o‘tkazish uchun mo‘ljallangan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladigan elementlarining bo‘lishi

(parametrlarni aniqligiga qo‘yiladigan talablar, o‘lchash operasiyalari va/yoki o‘lchash nazoratining bo‘lishi) majburiy shart bo‘lib hisoblanadi.

Xujjatlarni metrologik ekspertizadan o‘tkazishning konkret maqsadlarini ekspertizadan o‘tkaziladigan xujjat bilan dastlabki tanishishdan keyin, masalan, quyidagi variantlardan biri ko‘rinishida ifodalash mumkin:

1. xujjatning yaqqol xatolarini aniqlash va qayd qilish (rasmiy lashtirishdagi nuqsonlar, mazmundagi nuqsonlar, parametrlarni nazorat qilib bo‘lmasligini ham o‘z ichiga olgan holda) va ularni bartaraf qilish bo‘yicha takliflarni berish;
2. xujjatning asosiy kamchiliklarini aniqlash, ularning paydo bo‘lish sabablarini tahlil qilish va ularni bartaraf qilish choralarini belgilash;
3. xujjatning takrorlanuvchi (tiplashgan) kamchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf qilish yo‘llarini taklif qilish;
4. xujjatning barcha ahamiyatga molik bo‘lgan kamchiliklarini aniqlash va ularni bartaraf qilish yo‘llarini ishlab chiqish.

Ekspertizadan o‘tkaziladigan xujjat qanchalik yaxshi ishlab chiqilgan bo‘lsa, tadqiq qilinadigan masalalarning doirasi shunchalik tor va kamchiliklarni tahlil qilish shunchalik chuqur va ularni bartaraf qilish uslublari bo‘yicha takliflar shunchalik kattaroq hajmli bo‘ladi.

Me’yoriy hujjatlar bilan taqdim qilingan xujjatlar rasmiy va funksional metrologik ekspertizaga tortilishi mumkin. Odatta rasmiy metrologik ekspertiza xujjatni ishlab chiquvchining yechimlarining to‘g‘riligini shubha ostiga olmaydi va metrologik talablarning to‘g‘riliği va belgilangan parametrlarning nazorat qilishga yaroqliligi to‘g‘risidagi savollarga javob berishi lozim bo‘ladi. Bunday holda u yoki bu sabablarga ko‘ra ularning nazorat qilishga yaroqliligi aniq bo‘lmagan parametrlarni nazorat qilishni ta’minlash imkoniyatini tekshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Nazorat qilish va sinovlardan o‘tkazish uslublari tasvirlangan bo‘lganda qabul qilingan nazorat qilish va sinovlardan o‘tkazish uslublarining to‘g‘riliği va sinovdan o‘tkaziladigan xujjatlarning parametrlari va tavsiflari to‘g‘risida ishonarli ma’lumotlarni olish imkoniyatini tekshirish lozim bo‘ladi. Bunday holda aosiy tekshirishlardan biri o‘lchashlarning talab qilinadigan aniqligining va seriyali ishlab chiqarishni hisobga olish bilan nazorat qilish va sinovlardan o‘tkazish natijalarining ishonchliligining (ularni taqdim qilish mumkinligining) ta’minlanishini tekshirish bo‘ladi.

Funksional metrologik ekspertiza metrologiya uslublari bilan, parametrlarning aniqlik me’yorlarini hatto ulardan ba’zi birlarini yo‘q qilishgacha o‘zgartirishni ham o‘z ichiga olgan holda, xujjatning sifatini oshirish imkoniyatlari to‘g‘risidagi masalani qo‘yadi, bu xujjatni tubdan qayta loyihalashni chaqirishi mumkin.

Hujjatlarda o‘rnatilgan nazorat qilish va sinovlardan o‘tkazish uslublarining to‘g‘riliğini tahlil qilish avvalambor quyidagi savollarga javob berishi lozim:

1. mahsulotning ular uchun me'yorlar va talablar o'rnatilgan barcha eng muhim parametrlari va tavsiflari ishonarli va aniq o'lchaydigan nazorat qilish bilan ta'minlanganmi?

2. sinovlardan o'tkazish uslubiyati xujjativ va ishonarli ma'lumotlarni olishni ta'minlaydimi?

3. snovlardan o'tkazish uslubiyatlariga, xususan, o'lchashlarni bajarish uslubiyatiga qo'yiladigan talablar yetarlicha to'liqlik bilan ifodalanganmi?

Xususiy masalalar yo'l qo'yiladigan o'lchashlar xatoligini, sinovlardan o'tkazishda foydalilanligi o'lhash vositalarini ham o'z ichiga olgan holda o'lhash vositalarini tanlashning to'g'riligi, sinoqdan o'tkaziladigan xujjatga ko'rsatiladigan kiruvchi ta'sirlarni qayta yaratishning aniqligi va sinovlardan o'tkazish paytida bu ta'sirlarni nazorat qilish va hokazolarga taalluqli bo'ladi.

Me'yoriy hujjatlarni metrologik ekspertizadan o'tkazish natijalari bo'yicha uni qo'shimcha ishlab chiqish, ba'zi bir bo'limlarni qayta ishlash yoki hatto butun hujjatni tubdan qayta ishlash tavsiya qilinishi mumkin.

Texnikaviy xujjatning turiga qarab, unda turli, o'ziga xos masalalar ko'rib chiqiladi. Masalan, keltirilgan o'lhash vositalarining to'g'ri tanlanganligi, ularning rasionalligi deyarli barcha xujjatlarda tekshiriladi. Konstruksiya parametrlarini o'lhash imkoniyati borligi eskiz loyihalarida, loyihalash xujjatlarida, ekspluatasion va ta'mirlash xujjatlarida tekshiriladi.

Metrologik ekspertizani o'tkazish jarayonida texnikaviy xujjatlarda quyidagi masalalar taxlil qilinadi:

Jadval 1

№	Metrologik ekspertizani o'tkazish jarayonida taxlil qilinadigan masalalar.	Texnik xujjatlar turlari							
		Texnik topshirilqlar, takliflar (huvurtnma)	Ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha hisobotlar, eskitiz	Sinov protokollari	Texnik shartlar,	Ekspluatasion va ta'mirlash xujjatlari	Sinovlar dasturlari va	Texnologik vo'riyanomalar va	Texnologik kartalar
1.	O'lchanadigan parametrlar nomenklaturasining rasionalligi.	+		+	+	+	+	+	+
2.	O'lhashlar aniqligiga qo'yiladigan talablarning optimalligi.	+	+	+		+	+		+

3.	O'lhash vositalarining aniqligiga qo'yiladigan talablarning to'liqligi va xujjativligi.	+	+		+	+	+	+		+
4.	O'lhashlarni amaldagi aniqligini talab etilgan aniqlikka muvofiqligi.		+	+	+	+	+	+	+	
5.	Konstruksiyani (sxemani) parametrlarini o'lhash imkoniyatlari borligi.		+			+				+
6.	O'lhash vositalarini samarali metrologik xizmatini amalga oshirish imkoniyatlari.	+	+		+	+		+		+
7.	Tanlangan o'lhash vositalarini va uslubiyotlarini rasionalligi.		+	+	+	+	+	+	+	+
8.	Konstruksiyani (shemani) parametrlarini o'lhash imkoniyatlari borligi.		+			+				+
9.	O'lhash vositalarini samarali metrologik hizmatini amalga oshirish imkoniyatlari.	+	+		+	+		+		+
10.	Tanlangan o'lhash vositalarini va uslubiyotlarini racionalligi.		+	+	+	+	+	+	+	+

#### **4. Metrolog – ekspertlarning majburiyatları, xuquqlari, ma'suliyati va ularga nisbatan qo'yiladigan malakaviy talablar.**

Metrologik ekspertizani o'tkazish bo'yicha tarmoq va korxona standartlarida "Ekspertlarning huquq va majburiyatları" bo'limi bo'ladi. Bu bo'limlarga kiritilgan talablar, tarmoq va korxonaga taalluqli spesifik (o'ziga xos) talablar bilan bir qatorda, ko'pgina umumiylklarga ham egadir. Masalan, ekspertning majburiyatlariga, qoidaga ko'ra, aniq va asoslangan tanbehlarni taqdim qilish, ekspertiza natijalarini o'z vaqtida rasmiylashtirish, metrologik ekspertizani takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish, hujjatlarni ishlab chiqish uchun ularni metrologik ishlab chiqish

masalalari bo'yicha konsultasiyalar o'tkazish, kelgusida tahlil o'tkazish, xatolar klassifikatorini tuzish va xatolar kelib chiqishining oldini olish bo'yicha ishlab chiquvchilarga tavsiyalarni ishlab chiqish uchun tanbehtar va takliflarni hisobga olib borishni yuritish, tekshiriladigan hujjatlar va ularni tekshirish natijalarini qayd qilish va qat'iy hisobga olishni yuritish, metrologik ekspertizadan o'tgan hujjatlarga vizalar qo'yish, metrologik ekspertiza natijalarini amalga oshirshga hamkorlik qilish kiradi.

*Ekspert quyidagi huquqlarga ega:*

- 1) metrologik ekspertiza o'tkazish paytida aniqlangan xatolarni tuzatish va to'g'irlashlarni albatta tegishli hujjatlarga kiritishni ishlab chiquvchidan talab qilish;
- 2) zarur bo'lgan muvofiqlashtiruvchi imzolar bo'lman, hujjatlar to'liq jamlanmagan yoki ishlab chiquvchi yo'llanma berayotgan hujjatlar bo'lman, shuningdek hujjatlar pala-partish rasmiylashtirilgan hollarda ularni ko'rib chiqmasdan turib ishlab chiquvchiga qaytarish;
- 3) tanbehtar soni katta bo'lganda kamchiliklarning to'liq hajmini aniqlamasdan turib hujjatlarni qayta ishlashga yuborish;
- 4) ishlab chiquvchidan asosiy texnik yechimlar bo'yicha qo'shimcha hujjatlar va tushuntirishlarni talab qilish.

Ekspert ishlab chiquvchilar bilan bir qatorda texnik hujjatlarda metrologik ta'minot bo'yicha amaldagi standartlar va boshqa me'yoriy-texnik hujjatlarning talablariga rioya qilinishi uchun mas'uldir. Ekspert ishlab chiquvchilardan Konstruktorlik hujjatlarning yagona tizimi (KXYAT) va Texnologik xujjatlarning yagona tizimi (TXYAT) hamda korxonada amalda bo'lgan boshqa me'yoriy-texnik hujjatlarda ko'zda tutilmagan maxsus tuzilgan hujjatlarni talab qilishga haqli emas.

Korxonada ekspluatasiyada bo'lgan standartlashtirilmagan o'lhash vositalari attestasiyadan o'tkazilgan va o'z vaqtida qiyoslangan bo'lishi lozim.

Konstruksiya mahsulotni ishlab chiqarish, ekspluatasiya qilish va ta'mirlash jarayonida zaruriy parametrlarni nazorat qilish imkonini berish-bermasligini baholash ekspertizaning navbatdagi vazifasi bo'lib hisoblanadi. Bu chizmalarini metrologik ekspertizadan o'tkazishning asosiy vazifasidir. Bu vazifani hal qilishda ekspert faqatgina nazoratga yaroqsiz bo'lgan o'lchamlarni (yetib borish qiyin bo'lgan ichki diametrlar, ariqchalar, bo'rtiklar) aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, ularni o'lhash standartlashtirilmagan o'lhash vositalarini qo'llashni talab qiladigan o'lchamlarni ham aniqlashi zarur.

Fizikaviy kattaliklar va ularning birliklarining nomlanishi va belgilanishining to'g'riligini aniqlash va mehnat xavfsizligini ta'minlash mvaqsadida o'lhashlar o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalarning to'g'riligini tekshirish ham ekspertning vazifalari qatoriga kiradi.

*Hujjatlarni ekspertiza qiluvchi metrolog quyidagilarni bilishi shart:*

1. Seriyali ishlab chiqarilayotkan ulchash vositalarini konstruksiyasini, ishslash prinsipi va ishlatish sharoitini;
2. O‘lchashlarni bajarish usullarini va ularga tegishli bo‘lgan boshqa normativ – texnik hujjatlarni;
3. Ishlab chiqarilayotkan maxsulotni zamonaviy nazorat usullarini va shu nazoratni tashkil etish uslubiyatlarini;
4. Iqtisodiyot asoslarini va ishlab chiqarishni tashkil etish qoidalarini;

*Ekspert – metrologni majburiyatları quyidagilardan iborat:*

1. Ishlab chiqarilayotkan hujjatlarni standart talablariga javob berishini tekshirish;
2. Tekshirilayotkan hujjatlar bo‘yicha muloxazalarni o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirish va ulchash metodlarini takomillashtirish bo‘yicha o‘z takliflarini kiritish;
3. Metrologik xatoni oldini olish uchun yuqorida keltirilgan taklif va muloxazalarni xisobga olish;
4. Yetarli darajada aniqlikni ta’minlab bera olmaydigan o‘lchash vositalarini va usullarini ishlatish natijasida yaratilgan sifatsiz maxsulotni (brakni) aniqlashda qatnashish;
5. Yaroqsiz mahsulotni yoki brakni yuq qilish choralarini ishlab chiqishda qatnashish.

*Metrologik ekspertizani olib borishga injener – metrolog va ishlab chiqaruvchi qo‘yidagilarga javobgardir:*

1. Maxsulot sifatini nazorat qilinganda, yetarli aniqlikni ta’minlovchi o‘lchash sxemalarini to‘g‘ri tanlanganligiga;
2. Loyixalashtirish amaliyotiga eng progressiv va yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan nazorat vositalarini va usullarni kiritishga;
3. Kiritilgan muloxaza va takliflarni to‘g‘rililiga, to‘laliliga va texnikaviy asoslanishiga .

Metrolog – ekspert lavozimiga metrologiya, standartlashtirish soxasida ma’lum bir ish stajiga ega bo‘lgan va yetarli tajriba hamda malakaga ega bo‘lgan mutaxassislar tayinlanadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Tehnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasini ta’rifini bering?
2. Tehnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasi qanday maqsadlarda amalga oshiriladi?
3. Tehnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizani asosiy vazifalari nimalardan iborat?

4. Tehnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasi ob'ektlariga nimalar kiradi?
5. Tehnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasi qanday ketma-ketlikda o'tkaziladi?
6. Metrologik ekspertizani o'tkazish reja-grafigi qanday tuziladi?
7. Metrologik ekspertizani o'tkazishda tehnikaviy hujjatlarda nimalar baholanadi?
8. Metrologik ekspertizani o'tkazishda tehnikaviy hujjatlarda nimalar tahlil qilinadi?
9. Korhonalarda qanday hujjatlarni metrologiya hizmati bilan kelishishga muhim o'rinni ajratiladi?
10. Metrologik ekspertizaga hujjatlar qanday tartibda taqdim etiladi?
11. Hujjatlarda o'rnatilgan nazorat qilish va sinovlardan o'tkazish uslublarining to'g`rilingini tahlil qilish uchun qanday savollarga javob berish lozim?
12. Metrolog-ekspertning majburiyatları nimalardan iboratdir?
13. Metrolog-ekspertning ma'suliyatiga nimalar kiradi?
14. Metrolog-ekspertning huquqlari nimalardan iboratdir?

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

- 1.Polyakova O.V. Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii./V pomosh nachinayushim metrologam//Prakticheskiy jurnal “Glavniy metrolog” 2009
- 2.MI1317 «GSI Rezulstati izmereniy i xarakteristiki pogreshnostey izmereniy. Formi predstavleniya. Sposobi ispitaniy pri ispitaniy obrazsov produksii i kontrolya ix parametrov.»
- 3.GOST 2.111 YESKD Normokontrol. M.Standart inform 2007
- 4.Miralieva A.K. Bekmurodov Ch.A. «Meyoriy nazorat va texnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasi» fanidan uslubiy ko'rsatmalar TDTU 2014yil
- 5.RMG 63-2003. GSI. Obespecheniye effektivnosti izmereniy pri upravlenii texnologicheskimi protsessami. Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii.
- 6.O`zDSt 1.21:2002 GSS RUz. Ekspertiza ND.
- 7.O`zRH 51-106:2001 O'z.R. O'DT Texnikaviy xujjatlarning metrologik ekspertizasi. Tashkil etish va o'tkazish tartibi.
- 8.Pravikov Y.M. Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii: metodicheskiye ukazaniya k praktichskim zanyatiyam. Ulyanovsk UlGTU, 2005.

9. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi

10.<http://www.standart.uz> – “O'zstandart” agentligi

### **3-mavzu: Texnikaviy xujjatlarning metrologik ekspertizasini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar.**

Reja:

1. Mahsulot ishlab chiqishga berilgan texnik topshiriqning metrologik ekspertizasi.
2. Metrologik va standartlashtirish ekspertizalarning ilmiy asoslari.

#### **1. Mahsulot ishlab chiqishga berilgan texnik topshiriqning metrologik ekspertizasi.**

Texnik topshiriq (TT) –ishlab chiqarilayotgan maxsulotning dastlabki xujjati bo'lib, uning asosiy vazifasini, o'lchamlariga va massasiga qo'yiladigan talablarni, chidamliligini, tashish va saqlash sharoitlarini, ma'lum bir mexanik, iqlimiyl va boshqa ta'sirlar ostida ishga yaroqligini belgilaydi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot parametrlarini talab qilinadigan aniqlikda o‘lchash imkoniyatlarini tahlil qilish, mahsulotni ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan eksperimental tadqiqotlarni metrologik ta’minlash imkoniyatini aniqlash, shuningdek ishlab chiqishga mo‘ljallangan mahsulotni tayyorlash va ekspluatasiya qilishning metrologik ta’minotini oldindan baholash va mahsulotni ishlab chiqishning, ishlab chiqarishning, sinovdan o‘tkazishning va ekspluatasiya qilishning metrologik ta’minotiga nisbatan qo‘yiladigan talablarning to‘liqligini baholash - texnik topshiriqni metrologik ekspertizadan o‘tkazishning asosiy maqsadlari bo‘lib hisoblanadi.

Texnik topshiriqning metrologik ekspertizasi kuyidagi tartibda o‘tkaziladi :

1. tekshiruvga taqdim qilingan hujjatlar jamlanmasining to‘liqligi tekshiriladi;
2. texnik topshiriqda nazoratdan o‘tkazishda ko‘rib chiqiladigan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan bo‘limlarning: nomlanishi va qo‘llanilish sohasi, ishlab chiqish manbalari, texnik talablar, ish davrlari va bosqichlari, shuningdek mahsulotning ilovalar ko‘rinishidagi xarakteristikalari, mazkur texnik topshiriq bo‘yicha mahsulotni ishlab chiqish munosabati bilan ishlab chiqilishi lozim bo‘lgan o‘lchash, nazorat qilish va sinovdan o‘tkazish vositalari ro‘yxatining borligi tekshiriladi;
3. texnik talablar ifodalanishining to‘liqligi va aniqligi baholanadi, mahsulotning texnik topshiriqda ko‘rsatilgan har bir parametri uchun texnik talablar ifodalanishining muayyanligi (konkretligi) – ulardan kelib chiqqan holda o‘lchashlarning aniqligiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni asoslab berish mumkin bo‘lgan boshqa talablarning borligi tekshiriladi;
4. mahsulot parametrlarini talab qilinadigan aniqlikda amalda bo‘lgan yoki yangidan ishlab chiqilgan o‘lchash vositalari bilan o‘lchashning ta’minlash imkoniyatlari baholanadi;
5. ishlab chiqilayotgan mahsulotni ekspluatasiya qilish sharoitlariga nisbatan qo‘yiladigan talablarning bo‘lishi va to‘liqligi tekshiriladi;
6. metrologik atamalarning, fizikaviy kattaliklar va ularning birliklarining nomlanishi va belgilanishining to‘g‘riligi tekshiriladi;
7. mahsulotni ishlab chiqish, ishlab chiqarish, sinovdan o‘tkazish va ekspluatasiya qilishning metrologik ta’minoti bo‘yicha talablarning yetarliligi baholanadi.

Texnik topshiriqlarda kuyidagilar metrologik ta’minot bo‘yicha kiritilishi zarur bo‘lgan tipik talablar hisoblanadi:

- ishlab chiqarish, sinovdan o‘tkazish va ekspluatasiya qilishda o‘lchashga tortiladigan parametrlar nomenklaturasining asoslanganligi;
- nazorat qilinadigan parametrlarni o‘lchash aniqligi me’yorlarining asoslanganligi;
- ekspluatasiya qilish jarayonida mahsulotning texnik holatini nazorat qilish tizimini yaratish variantlarini tahlil qilish va tanlash;

- mahsulotlarni nazorat qilish uchun zarur bo‘ladigan, kiritiladigan yoki tashqi maxsus o‘lhash vositalarini ishlab chiqish ;
- maxsus o‘lhash vositalarini tekshiruvdan o‘tkazish uslubiyatini, zarur bo‘lgan hollarda esa ularni tekshiruvdan o‘tkazish vositalarini ishlab chiqish;
- mahsulot parametrlarini o‘lhashlarni o‘tkazish uslubiyatlarini ishlab chiqish va attestasiyadan o‘tkazish.

Metrologik ekspertiza o‘tkazishda quyidagi bo‘limlarga alohida e’tibor qaratiladi: texnik talablar, nazorat va qabul qilish tartibi.

Mahsulotning chiqish parametrlarining borligi, ularning yozilish shaklining to‘g‘riliği tekshiriladi. Aniqlikning berilgan me’yorlarida korxonada mavjud bo‘lgan o‘lhash vositalari bilan parametrlarni nazorat qilish imkoniyati baholanadi. Yangi maxsus o‘lhash vositalari va o‘lhashlarni bajarish uslubiyatlarini ishlab chiqishga bo‘lgan ehtiyojlar, mahsulotni ishlab chiqish va keyinchalik ekspluatasiya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus metrologik tadqiqotlarni o‘tkazish zarurati aniqlanadi.

Xorijiy o‘lhash vositalarini sotib olish zarurati aniqlashtiriladi.

Shuningdek, metrologik atamalarning, fizikaviy kattaliklar va ularning birliklarining nomlanishi va belgilanishining to‘g‘riliği baholanadi. Nazorat qilishning zaruriy vositalari va uslublari bilan mehnat xavfsizligi talablarining bajarilishini ta’minlash imkoniyati tekshiriladi.

## **2. Metrologik va standartlashtirish ekspertizalarning ilmiy asoslari.**


Metrologik va standartlashtirish ekspertizalarning maqsadlari oldindan belgilanishi va ular kam xarajatli va xatosiz bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ularni o‘tkazish jarayonida ma’lum bir ilmiy tamoyillarga rioya qilish kerak. Ekspertizaning ilmiy tamoyillari asosida aniq belgilangan qoidalar va me’yorlar ishlab chiqiladi va ular ekspertizani yuqori sifatini kafolatlaydi. Bunday yondashuv ekspertizadan keladigan maksimal iqtisodiy samarani belgilaydi.

Ekspertlarni faoliyatini tahlil qilish va ularni tajribasini o‘rganish natijasida quyidagi metrologik va standartlashtirish ekspertizalarning ilmiy tamoyillarini ifodalash mumkin:

- Ekspertiza ishlarini kvantlash ( avtonom qismlarga bo‘lib chiqish);
- Bajariladigan ishlarni ahamiyatliligin (muhimligini) belgilash;
- Ekspertiza ishlarini va ularni natijalarini unifikasiyalashtirish (birhillashtirish);
- Standartlashtirish va metrologiyaning ilmiy asoslarini qo‘llash;
- Ekspertiza natijalari iste’molchisini axborot xavfsizligini ta’minlash.

Ekspertizani sifatli va kam xarajatli o'tkazish maqsadida barcha ishlar avtonom qismlarga bo'linib, ularning xar birini muhimlik darajasi baholanadi. Shundan so'ng barcha qismlarda qo'yilgan masalalarini hal qilish tartibi o'rnatiladi va ekspertriza belgilangan reja bo'yicha bajariladi. Bunday yondashuv dastlabki ikki tamoyil: ishni kvantlash (qismlarga bo'lish) va shu qismlarni muhimligini belgilashga asoslangan.

### Метрологик ва стандартлаштириш экспертизаларни илмий тамоиллари




Rasm.1. Metrologik va standartlashtirish ekspertrizalarni tayyorlash va o'tkazish tamoyillari.


Ekspertiza maqsadini umumiyl jihatdan ifodalash mumkin, lekin ulardan kelib chiqadigan masalalar xar doim muayyan xarakatlarni bajarish va aniq natijalarni olishga yo'naltirilgan. Aniq natijalarni olish va muayan xarakatlarni bajarish zarurati **birinchi ilmiy tamoyil - ekspertriza ishlarini kvantlash ahamiyatini tasdiqlayli**. Misol sifatida ob'yeqtin nazorat qilishga yaroqliligin tahlil qilishda qo'yiladigan metrologik ekspertrizasining masalalarini strukturaviy sxemasini ko'rib chiqamiz. Bu sxema metrologik ekspertriza masalalarini hal qilishdagi umumiyl sxemaning bir qismi bo'lishi mumkin.

#### EKSPERTIZA MAQSADLARI

Ob'yeqtga qo'yilgan talablarni amalga oshirish mumkinligini tasdiqlash (ob'yeqt parametrlarini nazorat qilish yaroqliligi va zarurat tug'ilganda, ularni to'g'rilash imkoniyati)



EKSPERTIZANING MASALALARI (NAZORAT QILISHGA YAROQLILIGINI ANIQLASH)



Rasm 2. Metrologik ekspertiza masalalarini strukturasi (fragmenti).

*Ekspertiza ishlarini kvantlash variantini qurib chiqamiz (buyum konstruksiyasining metrologik ekspertizasi misolida).*

Agar metrologik ekspertizasining oldindan qo'yilgan maqsadi – ob'yektga qo'yilgan talablarni amalga oshirish mumkinligini tasdiqlash bo'lsa, ohirgisi esa – parametrlni nazorat qilishga yaroqligini ta'minlash bo'lsa, bunda maqsadga erishish yo'lini bir nechta bosqichga bo'lib chiqish maqsadga muvofiqdir. Xar bir bosqich aniq masalalarini hal qilishni talab qiladi. Agar ekspertizaning maqsadi - ob'yektga qo'yiladigan talablarni optimalligini tasdiqlash bo'lsa, u holda yechiladigan masalalar ham ma'lum darajada o'zgartiriladi.

*Buyum konstruksiyasining metrologik ekspertizasi masalalari.*  
 (ekspertizani maqsadi - o'rnatilgan talablarni amalga oshirish mumkinligini tasdiqlash)

Jadval1

Masala	Masalani yechish yo'li	Kutiladigan natija	Ahamiyat liliq darajasi
Metrologik talablarni to'g'rilagini baholash	Talablarni to'g'rilagini tekshirish	Talablarni me'yoriy xujatlar talablariga muvofiqlashtirish	uchinchchi

Eksperimental me'yorlar va talablar nomenklaturasini aniqlash	Barcha me'yor va talablarni tahlil qilish (arzimaydiganlarini olib tashlash)	Ob'yeqtning majburiy ko'rib chiqiladigan elementlarini ro'yxati	birinchi
Me'yor va talablarni nazorat qilishga aniq yaroqlilarga va shubhalilarga bo'lib chiqish	Eksperimental me'yor va talablarni nazorat qilishga yaroqliligin oldindan tekshirish	To'g'ri qo'yilgan me'yor va talablarni dastlabki ro'yxati. Shubhali me'yor va talablarni ro'yxati.	ikkinchi
Noto'g'ri ko'yilgan me'yor va talablarni aniqlash	Shubhali me'yor va talablarni va ularni nazorat qilish imkonini tahlil qilish	To'g'ri va noto'g'ri qo'yilgan me'yor va talablarni aniqlashtirilgan ro'yxatlari	birinchi
Noto'g'ri ko'yilgan me'yor va talablarni to'g'rakash	Me'yor va talablarni o'zgartirish va yangi qo'yilgan me'yor va talablarni nazorat qilishga yaroqliligin o'rganish	Me'yor va talablarni to'g'rakash to'g'risida takliflar. <sup>1</sup> Nazorat qilish usullari va vositalari, sxemalar ro'yxati. Mahsus o'lchash vositalariga texnik topshiriqlar (TT).	ikkinchi
To'g'ri qo'yilgan me'yor va talablarni nazorat usullarini izlash	Standartlashtirilgan, attestatlangan va birhillashtirilgan nazorat usullarini qo'llash imkoniyatlarini tahlil qilish	Nazorat usullarining tavsiflari va ro'yxati	birinchi
Ekspertiza natijalarini tekshiruvi	O'z o'zini tekshirish yoki bir birini tekshirish	Xatolarni topish va to'g'rakash	birinchi

<sup>1</sup>Ekspert tomonidan topilgan tanbehtarlar va takliflarni eng so'ngi kat'iy xulosa deb qabul qilish shart emas, ular ishlab chiquvchi faoliyatini keyingi yo'nalishini belgilab berishi mumkin.

<sup>2</sup>Agar nazorat usullarini tavsiflari va ro'yxatlarida, nazorat sxemalarida va boshqa elementlarda eksperimental ob'yeqt xujjalari kiritilishi zarur bo'lgan materiallar bo'lsa, ular majburiy ravishda ekspertiza natijalariga kiritiladi. Boshqa hollarda bunday materiallarni taqdim etilishi ekspertiza buyurtmachisi tomonidan oldindan kelishiladi.

--

Umuman ob'yektga yoki uning tarkibiy qismlariga qo'yilgan standart talablarning bo'lishi, shuningdek ob'yektning metrologik ekspertizadan o'tkazish uchun mo'ljallangan ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan elementlarining bo'lishi (parametrlarni aniqligiga qo'yiladigan talablar, o'lhash operasiyalari va/yoki o'lhash nazoratining bo'lishi) majburiy shart bo'lib hisoblanadi.

Ekspertiza ishlarni tashkil qilishda uning **2-chi ilmiy tamoyilini qo'llash (bajariladigan ishlarni ahamiyatliligin belgilash va darajalash)** maqsadga muvofiqdir. Amalda, ko'pincha, vaqt, ekspertlar malakasi, moliyaviy resurslar va h.k.z. cheklangan bo'ladi va bajariladigan ishni imkon boricha kamaytirishga to'g'ri keladi. Ekspertiza ishlarni kvantlash natijasida ma'lumotlar xajmini, ularni olish va taqdim etish muddatlarini oldindan baholash imkoniyati tug'iladi va bu ishlarni muhimligiga qarab oldindan vaqt bo'yicha taqsimlash mumkin bo'ladi.

Me'yoriy xujjat (standart) loyihasining standartlashtirish ekspertizasi masalalarini ko'rib chiqamiz. Quyidagi jadvalda faqat ba'zi bir oldindan qo'yilgan masalalar keltirilgan.

#### *Standart loyihasining standartlashtirish ekspertizasi masalalari.*

Jadval2

Masala	Masalani yechish yo'li	Kutiladigan natija	Ahamiyat lilik darajasi
Xujjatni ishlab chiqish zaruriyatini baholash	Loyihani xuddi shu ob'yektga talablarni belgilaydigan amaldagi me'yoriy xujjatlar bilan taqqoslash	Xujjatni yoki uning qismlarini zarurligini yoki keraksizligini aniqlash	birinchi
Xujjat mazmunini ishlanma maqsadiga muvofiqligini baholash	Xujjat loyihasi mazmunini loyihaning tushuntirish xatida (TT) <sup>1</sup> ko'rsatilgan maqsadga muvoqligini baholash	Xujjat mazmunini ishlanma maqsadiga muvofiqligi yoki nomuvofiqligini aniqlash	birinchi
Loyihaning mazmunida shu yoki bundan yuqori darajadagi me'yoriy	Loyihani xuddi shu ob'yektga talablarni belgilovchi amaldagi me'yoriy	Ziddiyatlarni mavjudligini yoki mavjud emasligini aniqlash	birinchi

xujjatlarga ziddiyatlar yo‘qligi baholanadi	xujjatlar bilan taqposlash		
Loyiha mazmunida ichki ziddiyatlarni yo‘qligini baholash	Xujjat loyihasining mazmunini tahlil qilish	Ziddiyatlarni mavjudligini yoki mavjud emasligini aniqlash	birinchi
Loyihada o‘rnatilgan talablarni to‘g‘riligini baholash	Loyihada o‘rnatilgan talablar mazmunini tahlil qilish	Noto‘g‘ri talablarni mavjudligini yoki mavjud emasligini aniqlash	birinchi
Loyihani to‘g‘ri tuzilganini baholash	Loyiha tuzilganini tahlil qilish	Loyihani tuzilishida xatolar mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash	ikkinchi
Loyihani savodli ishlanganligini baholash	Loyihani grammatik va stilistik jihatdan taxlil qilish	Grammatik xatolarni mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash	uchinchi
Ekspertiza natijalarini tekshiruvi	O‘z o‘zini tekshirish yoki bir birini tekshirish	Ekspert xatolarini topish va to‘g‘rilash	birinchi
Loyihaga taqriz yozish	Taqrizni tayyorlash va tahrir qilish	Taqriz loyihasi	birinchi

<sup>1</sup>Amaldagi me’yoriy xujjat ekspertizasida tushuntirish xati (TT) bo‘lmaydi, xujjatning maqsadi uning nomi va boshqa elementlaridan aniqlanadi.

Beriladigan ma’lumotlarni muhimligi bo‘yicha ekspertiza ishlarining kutiladigan natijalarini kvantlashda ularni 3-ta bosqichga bo‘lish maqsadga muvofiqdir:

1. buyurtmachiga eng zarur bo‘lgan ma’lumotlar (bu ma’lumotlarsiz ekspertizani o‘tkazish va uning natijalarini taqdim etish ilojsi bo‘lmaydi);
2. buyurtmachiga kerak bo‘lgan ma’lumotlar; (yuqoridagi bosqichga kirmagan, lekin yetarli darajada muhim bo‘lgan ma’lumotlar);
3. foydali ma’lumotlar (buyurtmachi va ekspertlarga foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar).

Bunday kvantlashni ekspertizani maqsadi aniqlanganidan keyin, yechiladigan masalalar qo‘yilishi bosqichida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Natijada ekspertizaning hajmini kamaytirishga imkon yaratiladi.

Ekspertiza masalalarini vaqt bo‘yicha kvantlash ishlari o‘ziga hos xususiyatlarga egadir:

1. ishlar navbatma-navbat, murakkab masalalarni strukturasi bilan belgilangan holda olib boriladi, murakkab masalalar esa o‘z ichiga soddaroq masalalarni oladi (masalan, o‘lchash natijasini analitik baholash uchun oldindan har bir manbadan kelib chiqqan xatolikni baholash zarur);

2. Ko‘p mexnat talab qilmaydigan va nisbatan avtonom bo‘lgan masalalarni bиринчи navbatda yechish mumkinligi (masalan, standartlashtirish ekspertizasida umumiy joizliklarga qo‘yilgan talablarni tahlil qilish).

**Ekspertiza ishlarini uchinchi ilmiy tamoyili – ishlarni va ularning natijalarini unifikasiyalashtirish (birhillashtirish)** – xar qanday ilmiy – texnikaviy ishlarni tartibga keltiradi. O‘z o‘zidan ko‘rinib turibdiki, ekspertizaning tayyorlash va o‘tkazish jarayonlari qanchali yaxshi rasmiy lashtirilgan bo‘lsa yoki “ekspertiza standartlari” bo‘yicha bajarilgan bo‘lsa, shunchali bu ish muvaffaqiyatli bajariladi. “Ekspertiza standartlari”ni ekspert yoki ekspertizani o‘tkazuvchi tashkilot ishlab chiqadi.

Ekspertiza elementlarini va ularning natijalarini taqdim etish shakllarini birhillashtirish natijasida ekspertizani avtomatlashtirish yoki kompterning ma’lumotlar bazasidan, mahsus dasturlash mahsulotlaridan keng foydalanish imkoniyati tug‘iladi.

Ekspertizani o‘tkazuvchi mutahassis o‘zining ishlarida har doim standartlashtirish va metrologiyaning ilmiy tamoyillariga, postulatlariga, usullariga, matematik apparatga tayanadi yoki **ekspertizani to‘rtinchchi ilmiy tamoyilini - metrologiya va standartlashtirishning ilmiy asoslarini** qo‘llaydi. Bu tamoyilni amalga oshirish o‘ziga hos hususiyatlarga egadir:

- Metrologiya va standartlashtirish jadal rivojlanayotgan sohalar bo‘lib, xozirgi kunda hamma bilan tan olingen ilmiy tamoyillarga ega emasdir;
- Metrologik va standartlashtirish ekspertizalarning ilmiy asoslari hozirgi kunda yetarli darajada rivojlanmaganligi tufayli ularni ekspertizani o‘tkazish jarayonida metrologiya va standartlashtirish sohalarida xamma bilan e’tirof etilgan tamoyillarni, postularlarni, usullarni, matematik apparatni qo‘llash qiyinchiliklar tug‘diradi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, metrologik va standartlashtirish ekspertizalar nazariyasini samarali rivojlanishi uchun metrologiya va standartlashtirishning ilmiy asoslarini tanqidiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

**Ekspertizaning beshinchi ilmiy tamoyili - ekspertiza natijalari iste'molchisini axborot xavfsizligini ta'minlash** – ma'lumotlar bilan foydalanish xuquqiga ega bo'lgan is'temolchining xavfsizligini nazarda tutadi. Ilmiy – texnikaviy axborot xavflarning sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:

1. ma'lumotlar sifatining pastligi (yolg'on ma'lumotlar, tamoyilial xatolar, ma'lumotlarni yetarli yoki to'liq emasligi va h.k.z.);
2. yuqori sifatli ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish (shart-sharoitlarni, boshlang'ich ma'lumotlarni mos tushmasligi va h.k.z.)

Bunday xavflarni oldini olish maqsadida ekspert:

- Faqat tekshirilgan, sinalgan va amaldagi ma'lumot manbalaridan, masalan me'yoriy xujjatlardan foydalanishi kerak, ishonchli bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlarning xisobotlaridan, monografiyalardan, maqolalardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ekspertiza jarayonida tug'iladigan shubxali savollarni tahlil kilib, o'r ganib chiqishi kerak;
- Tekshirilayotgan ma'lumotlarni ishonchlilik bahosini, masalan, ruhsat etilgan o'lhash xatoliklarini, o'lhash, sinash va nazorat qilish natijalarini, analitik ma'lumotlarni, boshqa eksperimental ma'lumotlarni aniqlash kerak;
- Xar qanday shubxa tug'diradigan birlamchi ma'lumotlarni ularni dastlabki manbalari bo'yicha tekshirishi kerak;
- Barcha xulosalar aniq va lo'nda bo'lib, o'tkazilgan ekspertizaning natijalariga asoslangan bo'lishi talab qilinadi;
- Ekspert ishlarining natijalarini nazorat qilish va o'z o'zini nazorat qilish tizimini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Masalan, materiallarni ikki marta tekshirish, dastlabki natijalarni buyurtmachida sinab ko'rish, "havfli elementlarni" kuchaytirilgan nazorati, mahsus savollar tug'ilganida boshka ekspertlarni jalb qilish va h.k.z.

Ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanish oqibatida kelib chiqadigan xavflarni oldini olish uchun ekspertiza natijalariga quyidagilar kiritilishi maqsadga muvofiqdir:

- Ekspertizani o'tkazish jarayonida qabul qilingan soddalashtirishlar va farazlar, masalan, yaqinlashtirilgan matematik formulalarini qo'llash, ishonchli extimolliklarning qiymatlari, tasodifiy kattaliklar taqsimlanishining tanlangan turlari, chiziqlar va yuzalar approksimasiyasini qo'llash va x.k.z;
- Olingan natijalarni qo'llash doirasi chegaralanganligi to'g'risida;
- Ekspertiza natijalari uchun muhim bo'lgan koida va nizomlarni analitik ravishda tasdiqlash.

Shunday qilib, standartlashtirish va metrologik ekspertizalarninig ilmiy asoslari ularning o'tkazish muddatlarini qisqartirishga yordam beradi, ekspertlardan samarali foydalanishga sharoit yaratadi, ekspertiza sifatini kafolatlaydi.

## **NAZORAT SAVOLLARI:**

1. Tehnik topshiriq nima?
2. Tehnik topshiriqda nimalar yoritiladi?
3. Tehnik topshiriqning metrologik ekspertizasi qanday maqsadlarda o'tqaziladi?
4. Tehnik topshiriqning metrologik ekspertizasida nimalar tekshiriladi?
5. Metrologik ta'minot bo'yicha tehnik topshiriqlarga kiritilishi zarur bo'lgan tipik talablarga nimalar kiradi?
6. Davlat standarti loyihamining metrologik ekspertizasida nimalar tahlil qilinadi va aniqlanadi?
7. Davlat standarti loyihamining metrologik ekspertizasida ulardagi o'lchanadigan parametrlar nomenklaturasining racionalligini tahlil qilish va aniqlashda ekspert qanday qoidalarga asoslanishi lozim?
8. Standartlashtirish va metrologik ekspertizaning qanday ilmiy tamoyillari bor?
9. Standartlashtirish va metrologik ekspertizaning ekspertiza ishlarini kvantlash tamoyilini tushuntirib bering.
10. Standartlashtirish va metrologik ekspertizaning metrologiya va standartlashtirishning ilmiy asoslarini qo'llash tamoyilini tushuntirib bering.
11. Ekspertizada metrologiya va standartlashtirishning ilmiy asoslarini qo'llash principini qanday o'ziga hos hususiyatlari bor?

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Polyakova O.V. Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii./V pomosh nachinayushim metrologam//Prakticheskiy jurnal "Glavniy metrolog" 2009
2. MI1317 «GSI Rezul'jat i zmereniy i xarakteristiki pogreshnostey izmereniy. Formi predstavleniya. Sposobi ispitaniy pri ispitaniy obrazsov produksii i kontrolya ix parametrov.»
3. GOST 2.111 YESKD Normokontrol. M.Standart inform 2007
4. Miralieva A.K. Bekmurodov Ch.A. «Meyoriy nazorat va texnikaviy hujjalarning metrologik ekspertizasi» fanidan uslubiy ko'rsatmalar TDTU 2014yil

5. RMG 63-2003. GSI. Obespecheniye effektivnosti izmereniy pri upravlenii texnologicheskimi protsessami. Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii.
6. O`zDSt 1.21:2002 GSS RUz. Ekspertiza ND.
7. O`zRH 51-106:2001 O`z.R. O`DT Texnikaviy xujjatlarning metrologik ekspertizasi. Tashkil etish va o`tkazish tartibi.
8. Pravikov Y.M. Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii: metodicheskiye ukazaniya k praktichskim zanyatiyam. Ulyanovsk UlGTU, 2005.
9. <http://www.lex.uz> – O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi
10. <http://www.standart.uz> – Texnik jihattan tartibga solish Agentligi

#### **4 mavzu. Texnikaviy xujjatlarning me'yoriy nazorati (standartlashtirish ekspertizasi).**

Reja:

1. Texnikaviy xujjatlarning me'yoriy nazoratini asosiy maqsadlari va vazifalari.
2. Me'yoriy nazoratni mohiyati va o`tkazish ketma-ketligi.
3. Me'yoriy nazorat xizmatlarini davlat texnik siyosatini amalga oshirish masalalarini hal qilishdagi roli.

##### **1. Texnikaviy xujjatlarning me'yoriy nazoratini asosiy maqsadlari va vazifalari.**

Mahsulot sifatining qay darajada bo`lishiga bo`lg`usi mahsulotni loyihalashtirishning dastlabki bosqichlaridayoq tamal toshi qo`yiladi, shu sababli mahsulot sifati texnikaviy

hujjatlarning (loyihalashtirish hujjatlari, konstruktorlik hujjatlari, texnologik hujjatlar, me'yoriy-texnik hujjatlar) sifati bilan chambarchas bog'liqdir. Ularni ishlab chiqish jarayonida me'yoriy nazorat yoki standartlashtirish ekspertizasi bosqichi yakunlovchi bosqich hisoblanadi.

Bu texnik hujjatlarni ishlab chiqishning shunday bosqichi-ki, bu bosqichda hali qimmat turadigan va uzoq vaqt davomiyligini talab qiladigan jarayonlarni qo'llamasdan turib texnik hujjatlarga zarur bo'lgan o'zgartirishlar va tuzatishlarni kiritish mumkin bo'ladi. Bundan bu bosqichning naqadar muhimligi va uni amalga oshiruvchi shaxslarning qanchalik mas'ul ekanligi kelib chiqadi. Me'yoriy nazoratni va metrologik ekspertizani to'g'ri tashkil qilish va uni o'tkazish uslubiyotining qanchalik muhim ekanligi ham o'z-o'zidan tushunarli, albatta.

Me'yoriy nazorat yoki standartlashtirish ekspertizasi ishlab chiqilayotgan mahsulotlarda (ishlanmalarda) standartlarda belgilangan me'yor va talablarga rioya qilinishiga, texnik hujjatlarning to'g'ri bajarilishiga, bir xillashtirishning (unifikasiyaning) yuqori darajasiga erishishga yo'naltirilgan.

Unifikasiya (birhillashtirish) – bu standartlashtirish usullaridan biri bo'lib, asosiy extiyojlarni qondirish uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlarning optimal o'lchamlari va turlarini tanlashdir.

Me'yoriy nazorat loyihalash bosqichida standartlarni joriy qilish yo'llaridan biri, ya'ni loyihalash va konstruksiyalashning tarkibiy qismi sifatida, shuningdek standartlarni korxonalarda standartlashtirish va unifikasiyalash bo'yicha ishlarning tarkibiy qismi sifatida joriy qilish yo'llaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Me'yoriy nazorat faqatgina chizmalarini bajarish sifatining yaxshilanishiga ko'maklashib qolmasdan, balki bir-birining o'rnini bosish darajasining ortishi, standartlashtirish darajasining ortishi, mashinalarning detallari va uzellarini unifikasiyalash va seriyalashtirish, ularning og'irligi va solishtirma material sarfini kamaytirish, materiallarning markalari va sortamentini qisqartirishga ham ko'maklashadi, bularning barchasi sifatning ortishi, mehnat sig'imining kamayishi va mashinasozlik mahsulotlarining tannarxining pasayishiga olib keladi.

**Texnik hujjatlarning me'yoriy nazorati quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:**

1. ishlab chiqilayotgan loyihalarda standartlarda belgilab qo'yilgan me'yorlar, qoidalar va talablarga rioya qilish, konstruktorlik, texnologik va loyihalashtirish hujjatlarini KXYaT (Konstruktorlik Xujjatlarning Yagona Tizimi) va TXYaT (Texnologik Xujjatlarning Yagona Tizimi) standartlari talablariga muvofiq to'g'ri rasmiylashtirish;
2. ishlab chiqilayotgan loyihalarda oldindan loyihalashtirilgan, ishlab

chiqarishda o‘zlashtirilgan standartlashtirilgan va bixillashtirilgan (unifikasiyalangan) detallar va qismlardan, tayanch konstruktorlik va texnologik yechimlardan keng foydalanish asosida standartlashtirish va bir xillashtirishning (unifikasiyalashning) yuqori darajasiga erishish;

3. tarmoqlar va zavodlarda joriy qilingan cheklovchi standartlar asosida konstruktorlik va texnologik elementlarni (rezbalar, tishli g‘ildiraklarning modullari, ruxsat beriladigan joizliklar va hokazolar), metall va metall bo‘lmagan materiallarning markalari va sortamentlarini rasional tarzda qo‘llash.

Quyidagilar **me’yoriy nazoratning asosiy vazifalari** hisoblanadi:

- 1) taqdim qilinayotgan materialning tashqi ko‘rinishini tekshirish;
- 2) ijro qiluvchi, tekshiruvchi va tasdiqlovchi shaxslarning imzolari borligini va to‘liqligini tekshirish;
- 3) qo‘llaniladigan materiallar, konstruktorlik elementlari va buyumlarning qismlarini bixillashtirish (unifikasiyalash) tamoyilining (prinsipining) to‘liqligini tekshirish;
- 4) bo‘linmalar – ishlab chiquvchilar tomonidan taqdim qilinadigan hujjatlarning korxonada amalda bo‘lgan me’yoriy-texnik hujjatlarda belgilab qo‘yilgan me’yorlar va talablarga muvofiqligini tekshirish;
- 5) mikrofotoli nusxa ko‘chirishga va tanlanma tarzda bosib chiqarishga mo‘ljallangan hujjatlarga nisbatan qo‘yiladigan talablarga rioya qilinishini tekshirish;
- 6) hujjatlar zamonaviy hisoblash texnikasini qo‘llashni hisobga olish bilan rasimylashtirilganligini tekshirish;
- 7) boshqa tashkilotlardan kelgan texnik hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazishda ishtirok etish, mahsulot sifatining me’yoriy-texnik hujjatlarda belgilab qo‘yilgan me’yorlar va talablarga muvofiqligini tekshirish;
- 8) boshqa tashkilotlardan kelgan hujjatlarga kirish me’yoriy nazoratini o‘rnatish, me’yoriy nazoratdan o‘tkazish paytida aniqlangan hamda .ishlab chiquvchi tashkilot bilan kelishilgan holda konstruktorlik hujjatlariga kiritilgan tuzatishlar va to‘g‘irlashlarni tekshirish;
- 9) me’yoriy nazoratda aniqlangan xatolarni va ishlab chiquvchilarning ular tomonidan me’yoriy nazoratga taqdim qilinadigan texnik mahsulotlarining sifati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni hisobga olish va tahlil qilishni yo‘lga qo‘yish;
- 10) turli xil ob’yektlarni (konstruktorlik va texnologik me’yorlar, parametrlar, talablar, qoidalar va hokazolar) standartlashtirish va bir xillashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarda ishtirok etish, me’yoriy-texnik hujjatlarni ishlab chiqish bo‘yicha takliflar berish;
- 11) me’yoriy nazoratning iqtisodiy samaradorligiga baho berish.

Tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan va ishlab chiqarilayotgan barcha texnik hujjatlar **me'yoriy nazorat ob'yeqtari** bo'lib hisoblanishi lozim:

- ilmiy tadqiqot hamda tajriba konstruktorlik ishlanmalariga va me'yoriy-texnik hujjatlarni ishlab chiqishga nisbatan qo'yiladigan tashkilot standartlari;
- KXYaT (Konstruktorlik Xujjatlarning Yagona Tizimi) ga muvofiq keluvchi konstruktorlik hujjatlari;
- TXYaT (Texnologik Xujjatlarning Yagona Tizimi) ga muvofiq keluvchi texnologik hujjatlar, me'yoriy-texnik hujjatlarning loyihalari;
- konstruktorlik hujjatlari, texnologik hujjatlar va me'yoriy-texnik hujjatlarni o'zgartirishga bo'lgan hujjatlar.

Ishlab chiqarishga qo'yilishi lozim bo'lgan mahsulotga boshqa tashkilotdan kelgan texnik hujjatlar majburiy tartibda kirish me'yoriy nazoratiga tortilishi lozim. Texnik va metrologik nazoratdan o'tmagan texnik hujjatlar me'yoriy nazoratdan o'tkazish uchun qabul qilinmaydi. Me'yoriy nazorat bilan shug'ullanuvchi bo'linmalar yoki alohida ilmiy-texnik xodimlar to'g'ridan-to'g'ri korxonaning standartlashtirish bo'limiga bo'ysunishi lozim.

## 2. Me'yoriy nazoratni mohiyati va o'tkazish ketma-ketligi.

**Me'yoriy nazorat** – texnik hujjatlarni ishlab chiqishning yakunlovchi bosqichi bo'lib, barcha ishlar, tekshirish, muvofiqlashtirish va tuzatishlar kiritish bosqichlari to'liq tugallangandan keyin amalga oshiriladi.

Shu bois hujjatlarning asl nusxalarini texnik hujjatlar bo'limiga yoki uning o'rnni bosuvchi bo'linmaga topshirishni me'yoriy nazoratchining zimmasiga yuklash tavsiya qilinadi.

Tashkilotda ishlab chiqiladigan konstruktorlik hujjatlarining soni va mazmuniga bog'liq ravishda me'yoriy nazoratni bitta me'yoriy nazoratchi yoki quyidagilarga ixtisoslashgan bir nechta me'yoriy nazoratchi o'tkazishi mumkin:

a) konstruktorlik hujjatlari o'z ichiga oladigan ma'lumotlarning xarakteri bo'yicha. Bunda ixtisoslashgan me'yoriy nazoratchilar har bir hujjatda rasmiylashtirish, tasvirlash qoidalariga rioya qilinishi, materiallarning belgilanishi va sortamenti, unifikasiya, ilgari loyihalangan mahsulotlarning qo'llanilishi, cheklaydigan nomenklaturalarga rioya qilinishi va hokazolarni birin-ketin tekshiradilar;

b) hujjatlarning turlari bo'yicha. Bunda me'yoriy nazoratchilar hujjatlar, chizmalar, sxemalar, spesifikasiyalar, vedomostlar va hokazolarning alohida turlarini tekshirishga ixtisoslashadi.

Hujjatlarni me'yoriy nazoratdan o'tkazish ikki bosqichda amalga oshirilishi lozim. **Birinchi bosqich** – bu asl nusxalarda bajarilgan grafik va matnli hujjatlarni tekshirishdan iborat bo'lib, me'yoriy nazoratga taqdim qilanadigan barcha asl

nusxalarda ijrochilarning, texnologik va metrologik nazorat qilish xodimlarining imzolari bo‘lishi zarur.

Hujjatga tashqi jihatdan shakl berilishini tekshirishda format o‘lchami, ramkalarga olinishi, asosiy yozuv shakli, hujjatning nomlanishi tekshiriladi, alohida grafalarning to‘ldirilishi standartlashtirishga va tasdiqlangan namunalarga qat’iy mos kelishi lozim.

Hujjatlar me’yoriy nazoratga bitta mahsulot doirasida majmuaviy (kompleks) tarzda taqdim qilinishi lozim.


Tashqi ko‘rinish, imzolarning borligi va jamlanganlik tekshirilgandan keyin nazoratga taqdim qilingan hujjatlar jamlanmasini qabul qilish amalga oshiriladi. Kamchiliklar aniqlangan taqdirda me’yoriy nazoratni amalga oshiruvchi xodim ularni “Xato va kamchiliklarni qayd qilish ro‘yxati” ga kiritadi va tekshirilgan hujjatlar jamlanmasi bilan birgalikda ishlab chiquvchiga qaytaradi.


Hujjatlarga ishlab chiquvchi tomonidan “Xato va kamchiliklarni qayd qilish ro‘yxati”ga muvofiq tuzatishlar kiritilgandan keyin me’yoriy nazoratni amalga oshiruvchi xodim hujjatlarning asl nusxalarini imzolaydi. Hujjatlarning me’yoriy nazoratni amalga oshiruvchi xodimning imzosi bo‘lmagan asl nusxalari buyumning (mahsulotning) asl nusxasini tayyorlash uchun qabul qilinmasligi lozim.

**Ikkinchি bosqich** – grafik va matnli hujjatlarning uzil-kesil rasimylashtirib bo‘lingan asl nusxalarini tekshirish va imzolashdan iborat. Me’yoriy nazoratni amalga oshiruvchi xodim hujjatlarning asl nusxalariga texnik hujjatlarning mazmuni va bajarilishi uchun mas’ul bo‘lgan barcha xodimlarning imzolari mavjud bo‘lgan holdagina imzo qo‘yadi.

Me’yoriy nazoratni amalga oshiruvchi xodimning imzosi bo‘lmagan texnik hujjatlar texnik arxivlarga saqlash uchun qabul qilinmaydi, ular ro‘yxatga olinishi va ko‘paytirilishi mumkin emas.

### **Standartlashtirish sohasida xujjatlarni me’yoriy nazoratdan o‘tkazishning texnologik sxemasi**





Rasm 1. Xujjatlarni me'yoriy nazoratdan o'tkazishning texnologik sxemasi.

Standartlashtirish xizmatining imzolarisiz texnik hujjatlarni ishlab chiqarish va korxonaning mahsulot ishlab chiqarish tizimiga uzatganlik uchun ushbu hujjatlarni ishlab chiqargan shaxslar javobgar bo'ladilar.

Hujjatlarning me'yoriy nazoratni amalga oshiruvchi xodim tomonidan imzolangan asl nusxalariga mazkur xodimning roziligidisiz tuzatish va o'zgartirishlar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Me'yoriy nazorat passiv yoki aktiv (faol) bo'lishi mumkin. Passiv nazoratda faqatgina texnik hujjatlarni tekshirish amalga oshiriladi, aktiv nazoratda esa – faqat tekshirish o'tkazish bilan cheklanib qolmasdan, balki boshqa hujjatlavrning chizmalarida ham keltirilgan ma'lumotlar, shuningdek ba'zi bir holatlarga konstruktiv, texnologik va ekspluatasion yechimlarni yaxshilash maqsadida kiritilgan o'zgartirishlar ham nazorat qilinadi.

### **3. Me'yoriy nazorat xizmatlarini davlat texnik siyosatini amalga oshirish masalalarini hal qilishdagi roli.**

Bir qator korxona va tashkilotlarda me'yoriy nazoratning ahamiyatiga yetarlicha baho berilmaydi va uni joriy qilish zarur emas deb hisoblashadi, yangi mashinalarni loyihalashtirishda esa berilgan mahsulot ishlab chiqarishga qabul qilingandan keyingina bixillashtirish (unifikasiyalash) va davlat standartlari

talablariga rioya qilish zarur deya ta'kidlash bilan uni umuman kerak emas deb hisoblaydilar.

Bunday qarashlarga ega bo'lish chuqur xatoga yo'l qo'yishdir. Amaliyot shuni ko'rsatadi-ki, mashinalarning yangi konstruksiyalarini o'zlashtirish muddatlarining qisqaligi oqibatida birxillashtirish (unifikasiyalash) bilan bog'liq bo'lgan biror-bir o'zgartirishlarni kiritish qiyinlashadi. Bir qator hollarda mashinalarni loyihalashtirishda ularda standartlashtirilgan detallar va qismlarning qo'llanilishini maksimal darajada oshirish, konstruktiv elementlarning tiplashgan o'lchamlarini, foydalaniladigan materiallarning markalari va sortamentini qisqartirish kabi o'ta muhim masalalar konstruktorlar e'tiboridan chetda qoladi, buning natijasida ishlab chiqarishga standartlashtirish va bir xillashtirishning past darajasiga ega bo'lgan mashinalar qabul qilinadi. Bu ularni o'zlashtirish muddatlarining uzayishiga va ishlab chiqarish tannarxining ortishiga olib keladi.

Tajribaning ko'rsatishicha, diqqat bilan me'yoriy nazoratdan o'tkazilmagan texnik hujjatlar ko'pincha faqatgina standartlashtirish va bir xillashtirishning past darajasiga ega bo'lib qolmasdan balki texnologik jihozlash va asosiy ishlab chiqarish ob'yektlarining detallari va qismlarini noto'g'ri shifrlash bilan bog'liq bo'lgan ko'plab xatolarni, bekor qilingan texnik shartlar va standartlarga yo'llanmalarini ham o'z ichiga oladi. Bu xatolar texnologik jihozlarni, tajriba namunalarini tayyorlash jarayonida, sotiladigan detallar, qismlar va materiallarga buyurtmalarni bajarish jarayonida yuzaga chiqadi. Buning natijasida hujjatlarni to'g'irlash va xato shifrlangan detallar va qismlar partiyalarini qaytadan tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan vaqt yo'qotilishi sodir bo'ladi.

Ixtisoslashtirilgan korxonalar tomonidan yetkazib beriladigan sotib olinadigan detallar va materiallarda standartlar va texnik shartlar raqamlarining noaniq yozilishi kerak bo'lмаган nomenklatura va tiplashgan o'lchamdagи detallar va materiallarni yetkazib berishga olib keladi. Bularning barchasi mashinalarning yangi konstruksiyalarini o'zlashtirish muddatlarining uzayishiga olib keladi.

Me'yoriy nazoratni o'tkazish yuqori malakali xodimlarga topshirilishi lozim. Zamonaviy mashinasozlik sohasi katta sifat o'zgarishlari bilan, xususan, mashinalar tiplari sonining o'sishi, murakkablikning, ishonchlilik va uzoq muddat xizmat qilish talablarining ortishi, avtomatlashtirishning rivojlanishi, mashinalarning ishchi va tashish tezliklarining oshishi, yangi turdagи materiallarning qo'llanilishi va texnik estetika (texnik madaniyat) talablarining ortishi bilan xarakterlanadi.

Bunday sharoitlarda me'yoriy nazorat bilan shug'ullanuvchi standartlashtiruvchi-muhandis o'z malakasini uzlusiz ravishda oshirib borishi juda muhimdir. U faqatgina chizmalar va boshqa texnik hujjatlarda standartlar va texnik shartlarda belgilab qo'yilgan talablar va parametrlarga rioya qilinishini tekshirish bilan cheklanib qolmasdan, balki konstruktiv va texnologik yechimlar bo'yicha

mashinalarning sifatini va mashinasozlik ishlab chiqarishining texnik-iqtisodiy darajasini oshirish imkonini beradigan tanqidiy fikrlarni ham bildirishi lozim.

### **Nazorat savollari:**

- 1) Me'yoriy nazorat (standartlashtirish ekspertiza)ning ta'rifini bering?
- 2) Me'yoriy nazorat qanday maqsadlarda amalga oshiriladi?
- 3) Me'yoriy nazoratning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- 4) Me'yoriy nazorat ob'ektlariga nimalar kiradi?
- 5) Me'yoriy nazorat qanday ketma-ketlikda o'tqaziladi?
- 6) Qaysi me'yoriy nazorat aktiv hisoblanadi, qaysi biri passiv?
- 7) Me'yoriy nazorat hizmatlarining davlat tehnik siyosatini amalga oshirish masalalarini hal qilishdagi rolini yoriting.
- 8) Me'yoriy nazoratni amalga oshiruvchi hodimga nisbatan qanday malakaviy talablar qo'yiladi?
- 9) Hujjatlarni me'yoriy nazoratdan o'tkazish nechta bosqichda amalga oshirilishi lozim.
- 10) Tehnik hujjatlarni sifatsiz me'yoriy nazoratdan o'tkazish qanday oqibatlarga olib keladi?

### **Foydalanimgan adabiyotlar.**

1. Polyakova O.V. Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii. /V pomosh nachinayushim metrologam//Prakticheskiy jurnal “Glavniy metrolog” 2009
2. MI1317 «GSI Rezultati izmereniy i xarakteristiki pogreshnostey izmereniy. Formi predstavleniya. Sposobi ispitaniy pri ispitaniy obrazsov produksii i kontrolya ix parametrov.»
3. GOST 2.111 YESKD Normokontrol. M.Standart inform 2007
4. Miralieva A.K. Bekmurodov Ch.A. «Meyoriy nazorat va texnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasi» fanidan uslubiy ko'rsatmalar TDTU 2014yil
5. RMG 63-2003. GSI. Obespecheniye effektivnosti izmereniy pri upravlenii texnologicheskimi protsessami. Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii.
6. O`zDSt 1.21:2002 GSS RUz. Ekspertiza ND.
7. O`zRH 51-106:2001 O'z.R. O'DT Texnikaviy xujjatlarning metrologik ekspertizasi. Tashkil etish va o'tkazish tartibi.

8. Pravikov Y.M. Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii: metodicheskiye ukazaniya k praktichskim zanyatiyam. Ulyanovsk UlGTU, 2005.
9. <http://www.lex.uz> – O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma`lumotlari milliy bazasi
10. <http://www.standart.uz> – Texnik jihattan tartibga solish Agentligi

## **IV. AMALIY MASHG`ULOTLAR MATERIALLARI**

### **1-amaliy mashg`ulot**

**1-amaliy mashg`ulot: Texnikaviy xujjatlarning metrologik ekspertizasini o`tkazish tartibi va natijalarini rasmiylashtirish.**

**Ishdan maqsad-** texnikaviy xujjatlarning metrologik ekspertizasini o`tkazish tartibi bilan tanishish, ekspertiza natijalarini rasmiylashtirish to‘g‘risida bilimlar shakllantirish.

#### **Masalaning qo‘yilishi**

##### **Mashg`ulot vazifalari:**

- Texnikaviy xujjatlarning metrologik ekspertizasini o`tkazish tartibi to‘g‘risida bilimlarni mustahkamlash;
- Metrologik ekspertizani o`tkazish jarayonida ko‘rib chiqiladigan masalalarni o‘rganish va tahlil qilish;
- Metrologik ekspertiza natijalarini rasmiylashtirish bo‘yicha ko‘nikmalar shakllantirish.

#### **Metrologik ekspertizani o`tkazish tartibi.**

Metrologik ekspertizadan o`tkaziladigan xujjatlarni ishlab chiqish bosqichlari belgilanayotganda shuni e’tiborga olish kerakki, metrologik ekspertiza boshlangich bosqichlarda o`tkazilsa samaraliroq bo‘ladi va metrologik ekspertiza natijasini

amalga oshirishga ham kamroq xarajat sarflanadi. Texnikaviy xujjatni ishga kiritish bosqichida metrologik ekspertiza natijasini kiritilishi va amalga oshirilishi (agar avval metrologik ekspertiza o'tkazilmagan bo'lsa) ancha qiyin bo'ladi. Metrologik ekspertizani xujjat ishlab chiqishning har bir bosqichiga (Tyexnik topshiriq, texnik taklif, eskiz loyixa, texnik loyixa, ishchi xujjatni ishlab chiqish) o'tkazish maqsadga muvofiq emas, shuning uchun har bir soha (tashkilot) optimal variant topishi kerak. Amaldagi sohaviy me'yoriy texnikaviy xujjalar taxlili shuni ko'rsatadiki, ko'pincha metrologik ekspertiza loyxalashning biror (texnik topshiriq yoki eskiz loyixa) bosqichida, keyin esa ishchi texnik xujjat ishlab chiqishda o'tkaziladi.

Metrologik ekspertizaning yana bir vazifasi - o'lhash vositalari va o'lhashni bajarish va to'liqligini belgilashdir, bunda o'lhash xatoliliga qarab bu talablar belgilanadi.

Metrologik ekspertizaga hujjat asl nusxada, meyyoriy nazoratining buyurtmachi vakilining va xujjatni tasdiqlovchi shaxsning imzosidan boshqa hamma imzolar bilan birga taqdim etiladi. Ekspertizani ikki bosqichda ham o'tkazish mumkin, bunda xujjat avval original ko'rinishda tekshirishdan utiladi, keyin esa asl nusxada tekshirishdan utadi.

Metrologik ekspertizani o'tkazish tartibi quyidagi sxemada ko'rsatilgan:

Metrologik ekspertizaga texnikaviy xujjatlarni taqdim etgan ishlab chiqaruvchi – mutaxassis bilan suxbatlashish. Texnikaviy xujjatlarni butligini tekshirish. Metrologik ekspertizaga taqdim etilgan xujjatlarni xisobga olish jurnalida qayd qilish.



Texnikaviy xujjatlar bilan tanishish, xujjatlardagi metrologik ta'minot to'g'risida ma'lumotlarni o'rganish. Texnikaviy xujjatlarni turiga qarab va ularni metrologik ekspertizasini asosiy vazifalariga muvofiq texnikaviy xujjatlarni metrologik ekspertizasini aniq vazifalarini ro'yxatini belgilash.



Berilgan mahsulotni (buyumni) ishlab chiqarilishini texnologik jarayonini yoki uning konstruksiyasini (texnik xujjatlar bo'yicha yoki ishlash joyida) o'rganish, kerakli me'yoriy xujjatlarni yig'ish va o'rganish.



Metrologik ta'minot qismi bo'yicha texnik yechimlarni taxlil qilish va baholash. Xulosa va takliflarni qayd qilish. Ekspert-metrolog yoki ekspert komissiyasining takliflarini amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlash.



Texnikaviy xujjatlar metrologik ekspertizasi natijalarini muloxaza va takliflar ro'yxati shaklida rasmiylashtirish yoki ekspert xulosa yozish.



Texnikaviy xujjatlarni metrologik ekspertiza natijalari bilan ishlab chiquvchiga qaytarish. Jiddiy xato va muloxazalar topilsa, ishlab chiquvchi ekspert-metrolog bilan birgalikda ularni bartaraf etish bo'yicha o'tkaziladigan choratadbirlarni rejasini ishlab chiqish.

### **Metrologik ekspertizani o'tkazish jarayonida ko'rib chiqiladigan masalalar**

Texnikaviy xujjatlarni metrologik ekspertizasini o'tkazish davomida maxsulotni o'lchanadigan parametrlarini tanlash, aniqlik meyyorlarini o'rnatish, maxsulotlarni ishlab chiqish, nazorat qilish, sinash, ekspluatasiya qilish va ta'mirlash jarayonlarida, ular o'lhash vositalari va usullari bilan ta'minganligi va ularni amaldagi me'yoriy xujjatlar talablarga rioya qilishi tekshiriladi, taxlil qilinadi va baxolanadi.

Metrologik ekspertizani o'tkazish jarayonida texnikaviy xujjatlarda quyidagi masalalar taxlil qilinadi:

		Texnik xujjatlar turlari
--	--	--------------------------

	Metrologik ekspertizani o‘tkazish jarayonida taxlil qilinadigan masalalar.		
1	O‘lchanadigan parametrlar nomenklaturasining rasionalligi.	+ +	+ Ilmiy-tadqiqot ishlari bo‘yicha hisobtolar, eskiz va eskiz loyiham
2	O‘lchashlar aniqligiga qo‘yiladigan talablarning optimalligi.	+ +	+ Texnik shartlar, standartlar loyiham
3	O‘lchash vositalarining aniqligiga qo‘yiladigan talablarning to‘liqligi va ob’yekтивлiği.	+ +	+ Ekspluatasion va ta’mirlash xujjatlari
4	O‘lchashlarni amaldagi aniqligini talab etilgan aniqlikka muvofiqligi.	+ + + +	+ Sinovlar dasturlari va uslubiyotlari
5	Konstruksiyani (sxemani) parametrlarini o‘lchash imkoniyatlari borligi.	+ +	+ Texnologik yo‘riqnomalar va reglamentlar
6	O‘lchash vositalarini samarali metrologik xizmatini amalga oshirish imkoniyatlari.	+ + + +	+ Texnologik kartalar
7	Tanlangan o‘lchash vositalarini va uslubiyotlarini rasionalligi.	+ + + + + + + +	+ Loyihalash xujjatlari

Metrologik ekspertizani o‘tkazish vaqtida o‘lchanadigan parametrlar nomenklaturasini yaxshilab tahlil qilish, ular orasida mavjud bo‘lishi mumkin

bo‘lgan korrelyasion bog‘liqlikni, hamda o‘lchamasa ham bo‘ladigan parametrlarni aniqlash kerak bo‘ladi.

Barcha tekshiriladigan hujjatlarda o‘lchanadigan parametrlarni yozilish shakli to‘g‘riliqi tekshiriladi. Xar bir me’yorlanadigan parametr ruxsat etiladigan munosabati ko‘rsatilgan nominal qiymat yoki chegaraviy qiymatlari yoki maksimal va minimal qiymatlari bilan berilishi kerak. nominal qiymat va ruxsat etilgan og‘ish murosabati bilan berilishi maqsadga muvofiqdir.

O‘lhash vositalarini me’yoriy hujjatlari va texnikaviy topshiriqlari “O‘zstandart” agentligi metrologiya bo‘linmalarini yoki Standartlashtirish, sertifikatlashtirish va texnik jihatdan tartibga solish ilmiy-tadqiqot instituti (Standartlar instituti) mutaxassislari tomonidan ekspertiza qilinadi. Metrologik ekspertiza ishlarini olib borish bo‘yicha tashkiliy raxbarlikni “O‘zstandart” agentligi amalga oshiradi, ilmiy – uslubiy raxbarlik esa Standartlar instituti tomonidan olib boriladi.

Har bir soha va korxona uchun metrologik ekspertizadan o‘tkaziladigan aniq texnikaviy xujjatlar turi belgilanishi kerak. O‘lchanadigan parametrlar, o‘lhash aniqligi me’yorlari, o‘lhash, nazorat, sinash usul va vositalari xaqida ma’lumotlarga ega texnik xujjatlarni metrologik ekspertizadan o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Ishlab chiqarishda texnologik tayyorlashda parametrni muljallanishiga, texnologik jarayonni boshqarish va nazorat qilish uchun shu parametrni o‘lhash vositasini ishiga hamma vakt ham e’tibor berilmaydi.

Ishlab chiqariladigan mahsulotni nazorat qilishda kerak bulgan texnologik jarayon parametrlarini o‘lhashda texnik xujjat ishlab chiquvchining aybi bilan o‘lhash vositalarini mavjud bo‘lmasligi yoki belgilangan o‘lhash usulining yetarlicha samarali bulmasligi texnik shart va standart talablari doirasidan chetga chiquvchi maxsulot ishlab chiqarilishiga sabab bo‘ladi. Ishlab chiqish bosqichlarida texnikaviy xujjatning metrologik ekspertizasini o‘tkazilishi bunday kamchiliklarni oldini oladi.

Mahsulot ishlab chiqarishning turli bosqichlarida o‘tkaziladigan konstruktorlik xujjatlarning metrologik ekspertizasida ko‘rib chiqiladigan masalalari (jadval 1) da keltirilgan:


Jadval 1

Xujjat turi	Nima tekshiriladi
1. Texnik loyixa, eskiz loyixa, texnik taklif xujjatlari va	- konstruktorlik xujjatni belgilanishini amaldagi konstruktorlik xujjatlarni belgilanish tizimiga muvofiqligi;

eskiz konstrukturlik xujjatlar (maketlar xujjatlari).	<ul style="list-style-type: none"> <li>- texnik topshiriq bo'yicha xujjatlarning jamlanmasi to'liqligi;</li> <li>- asosiy yozuv va qisqartirilgan so'zlarni to'g'ri yozilganligi;</li> <li>- standartlar va boshqa me'yoriy xujjatlarga havolalar borligi va ularning to'g'riliqi;</li> <li>- xujjatlarni tashqi ko'rinishi;</li> <li>- xujjatlarni bajarilishiga mas'ul bo'lgan barcha xodimlarning imzolari mavjudligi;</li> <li>- loyihalashtirilayotgan buyumning asosiy parametrlarini buyumlarning tasdiqlangan tiporazmer nomenklaturasi standartlariga, xarakteristikalariga muvofiqligi;</li> <li>- texnik ko'rsatkichlarni, sifatga qo'yiladigan talablarni, sinovlar usullarini standartlar va boshqa me'yoriy-texnik xujjatlarga muvofiqligi;</li> <li>- loyihalashtirilayotgan buyumning standartlashtirish va unifikasiyalashtirish darajasi va shu ko'rsatkichlarni ko'tarish imkoniyatlari.</li> </ul>
2. Matnli xujjatlar (tushuntirish xatlari, texnik shartlar, yo'riqnomalar, dasturlar, sinovlar uslubiyatlari, jadvallar, hisoblashlar, ekspluatasion va ta'mirlash xujjatlari	<ul style="list-style-type: none"> <li>- jadvalning 1-punktida berilgan ma'lumotlar;</li> <li>- matnli konstrukturlik xujjatlari standartlarining talablariga rioya qilish;</li> <li>- ko'rsatkichlarni va xisoblangan kattaliklarni standartlarda ko'rsatilgan me'yoriy qiymatlarga mos tushushi;</li> </ul>
3. Qaydnomalar va spesifikasiyalar	<ul style="list-style-type: none"> <li>- jadvalning 2-punktida berilgan ma'lumotlar;</li> <li>- qaydnoma va spesifikasiyaga yozilgan buyumlarga va xujjatlarga to'g'ri nom berilganligi va ularni to'g'ri belgilanishi;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- qo‘llaniladigan, standartlashtiriladigan va sotib olinadigan buyumlar nomenklaturasini qisqartirish imkoniyatlari;</li> <li>- qo‘llaniladigan, standartlashtiriladigan va sotib olinadigan buyumlar tiporazmerlarini o‘rnatilgan cheklovchi nomenklaturalarga (ro‘yxatlarga) muvofiqligi;</li> <li>- sotib olinadigan buyumlarni qo‘llash bo‘yicha tuzilgan vedomostlarni to‘g‘ligi.</li> </ul>
4. Barcha turdagи chizmalar.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- jadvalning 1-punktida berilgan ma’lumotlar;</li> <li>- chizmalarni konstruktorlik xujjatlarning yagona tizimi standartlari talablariga muvofiqligi;</li> <li>- konstruktiv elementlarni, materiallar markalarini, joizliklar turlarini, prokat profillarini va o‘lchamlarini rasional ishlatilishi;</li> <li>- original buyumlarni tipik yoki oldin ishlab chiqilganlarga almashtirish imkoniyatlari.</li> </ul>
5. Detal chizmaları.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- jadvalning 1-chi va 4-chi punktida berilgan ma’lumotlar;</li> <li>- detallarni shartli belgilari (qotiruvchi detallar, armatura, prujinalar, tishli g‘ildiraklar), yuzalar g‘adir-budurligi, o‘lchamlarni joizliklarini belgilanishi, yuzalar shakli va joylashuviga joizliklarni belgilanishi konstruktorlik xujjatlarining yagona tizimi (KXYAT) standartlari talablariga javob berishi;</li> <li>- original konstruksiyalı detalni tipik yoki standartlashtirilgan detalga almashtirish imkoniyatlari;</li> <li>- konstruktiv shakli va funksional vazifasi bo‘yicha o‘xshash, oldin loyixalashtirilgan va ishlab chiqarishda o‘zlashtirilgan detallardan foydalanish imkoniyati.</li> </ul>
6. Sxemalar.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- jadvalning 1-chi va 5-chi punktida berilgan ma’lumotlar;</li> <li>- sxemadagi elementlarining shartli grafik belgilarini konstruktorlik xujjatlarning yagona tizimi (KXYAT) standartlari talablariga javob berishi;</li> <li>- sxemadagi elementlarning soni, belgilanishi va nomlanishi standartlarda belgilangan cheklovchi nomenklaturalarga (ro‘yxatlarga) muvofiqligi;</li> <li>- tipik va unifikasiyalangan sxemalarni ishlatilishi.</li> </ul>


7. O‘zgartirish to‘g‘risida xabarnoma.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- jadvalning 1-punktida berilgan ma’lumotlar;</li> <li>- xabarnoma shaklini o‘rnatilgan talablarga muvofiqligi, uni to‘g‘ri to‘ldirilishi;</li> <li>- kiritilgan o‘zgartirishlar mazmunini standartlarda o‘rnatilgan talablarga javob berishi.</li> </ul>
8. Detalning elektron modeli, yig‘ma birlikni elektron modeli.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- jadvalning 1-chi, 4-chi, 5-chi va 7-chi punktlarida berilgan ma’lumotlar;</li> <li>- yig‘ma birlikni elektron modeli va detalning elektron modelidan olinadigan chizma shakldagi grafikli xujjatlarni detal chizmasi, yig‘ma chizma, umumiyo ko‘rinish chizmasi, gobarit chizma tulipligi va KXYAT (Konstrukturlik Xujjatlarning Yagona Tizimi) da o‘rnatilgan talablarga javob berishi.</li> </ul>
9. Buyumning elektron strukturasasi.	<ul style="list-style-type: none"> <li>- jadvalning 1÷7-chi punktlarida berilgan ma’lumotlar;</li> <li>- buyumning elektron strukturasidan olinadigan xisobot ko‘rinishidagi matnli xujjatlarni (spesifikasiya, spesifikasiyalar qaytnomasi, sotib olinadigan buyumlar qaydnomasi) to‘liqligi va KXYAT (Konstrukturlik Xujjatlarning Yagona Tizimi) da o‘rnatilgan talablarga javob berishi.</li> </ul>



Rasm 1. Sifatsiz o'tkazilgan metrologik ekspertizaning oqibati.

Metrologik ekspertiza xujyatni passiv tekshirish emas, balki u maxsulotni ishlab chikish va undpn foydalanishdagi metrologik ta'minot vazifalarini majmuiy yechishni taklif etadi. Ekspertiza natijalari bo'yicha maxsulotlar chizmalariga va texnologik jarayenlarga o'zgartirishlar kiritiladi, tayyorlash joizliklari murakkablashtiriladi, maxsus nazorat vositalari ishlab chiqiladi va tayyorланади, o'lchash qurilmalari loyixalanadi va tayyorланади.

## **Matnli hujjatlarni sifatini baholash mezonlari** (tushuntirish hati misolida)



2-Rasm. Matnli xujjatlarni sifatini baholash mezonlari.

### **Metrologik ekspertiza natijalarini rasmiylashtirish**

Texnikaviy xujjatlarga metrologik ekspertiza natijalari bo'yicha o'zgartirishlar kiritiladi.

Hujjatni o'zgartirish deganda hujyatning belgilanishini o'zgartirmasdan turib har qanday tuzatishlarni kiritish, biror-bir ma'lumotni chiqarib tashlash yoki qo'shimcha qilish tushuniladi.

Alovida xabarnomalarga ko'ra kiritiladigan joriy o'zgartirishlar, seriyali ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan hujjatlar jamlanmasiga tuzatishlar kiritish paytida kiritiladigan maxsus o'zgartirishlar ehtiyojkorlik bilan obdon tekshirib chiqishni talab qiladi.

Metrologik ekspertizada yo'llanma beruvchi hujjatlar, shuningdek o'zaro bog'liq bo`lgan hujjatlarga o'zgartirishlar kirituvchi hujjatlar tekshiruvdan

o'tkaziladi. Shuningdek me'yoriy-texnik hujjatlarga kiritiladigan o'zgartirishlar ham tekshirib chiqiladi.

Yangidan ishlab chiqilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi xabarnomalar bilan birgalikda taqdim qilingan hujjatlar metrologik ekspertizani amalga oshiruvchi xodimlar tomonidan o'zgartirishlar to'g'risidagi xabarnoma bilan birgalikda bir paytning o'zida tekshirilishi lozim.

Hujjatlarni o'zgartirish yoki bekor qilish faqatgina o'zgartirishlar to'g'risidagi tasdiqlangan xabarnoma asosida amalga oshiriladi.

Xabarnomani tekshirishda taklif qilinayotgan o'zgartirishlar mahsulot yoki uning qismlarini ilgari tayyorlangan mahsulot yoki uning qismlari bilan ishlab chiqarish jarayonida yoki foydalanish paytida o'zaro almashtirishga putur yetkazmasligiga ishonch hosil qilish lozim, aks holda o'zgartirishlar amalga oshirilishi mumkin emas va o'zgartiriladigan hujjat o'rniga yangi texnik hujjat ishlab chiqilishi lozim.

Metrologik ekspertizani amalga oshiruvchi xodim tekshirilayotgan hujjatlarda to'g'irlanishi yoki almashtirilishi lozim bo'lgan elementlarga qalam bilan belgilar (aylanaga olingan raqamlar) qo'yadi. Qo'yilgan belgilar hujjatlar imzolangunga qadar saqlanishi lozim va ularni metrologik ekspertizani amalga oshiruvchi xodim hujjatlar imzolangandan keyin olib tashlashi mumkin. Shartli belgilar (xato va kamchiliklar) "Xato va kamchiliklarni qayd qilish ro'yxati" ga kiritilishi lozim, unda xato va kamchiliklarning mohiyati va metrologik ekspertizani amalga oshiruvchi xodimning takliflari qisqa va aniq tarzda ifodalab berilgan bo'lishi lozim.

Metrologik ekspertizani amalga oshiruvchi xodimning hujjat (loyiha) bo'yicha barcha "Xato va kamchiliklarni qayd qilish ro'yxatlari" ning jamlanmasi hujjatning (loyihaning) bajarilish sifatini baholash uchun boshlang'ich material bo'lib xizmat qiladi.

Metrologik ekspertizachining imzosiga ega bo'lмаган hujjatlar texnik arxivlar tomonidan saqlashga qabul qilinishi mumkin emas, ular ro'yxatga olish va ko'paytirishga tortilmaydi.

Texnik hujjatlarni standartlashtirish xizmatining imzolarisiz chiqarish va ishlab chiqarishga berish uchun bu hujjatlarni chiqargan shaxslar javobgar bo'ladi.

Metrologik ekspertizachi tomonidan imzolangan hujjatlarning asl nusxalarini uning ruxsatisiz tuzatish va o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Xatolar o'zining mohiyatiga ko'ra uchta kategoriya (darajaga) bo'linadi:

1. KXYaT (Konstrukturlik Xujjatlarning Yagona Tizimi) talablarini buzadigan, biroq ishlab chiqarishning to'xtab qolishini keltirib chiqarmaydigan xatolar (o'lchamlar, masshtablarga amal qilmaslik).
2. Ishlab chiqarish xabarnomalarini talab qiluvchi, ya'ni mahsulot ishlab

chiqarishning (ishlab chiqarish jarayonining) to‘xtab qolishiga olib keluvchi xatolar (chizmalarda ba’zi bir alohida o‘lchamlarning bo‘lmasligi, mustahkamlashning – qotirishning standartlarda mavjud bo‘lмаган tiplashgan o‘lchamlariga yo‘llanmalar berish).

3. Yaroqsiz brak-mahsulot ishlab chiqarilishini keltiruvchi xatolar (umumtexnik me’yorlarga – rezbalar radiuslariga, ruxsat beriladigan joizliklarga amal qilmaslik va hokazolar).

Hujjatda ko‘rsatilgan xatolar va kamchiliklar bartaraf qilingandan keyin, u ijro qiluvchi bo‘lim boshlig‘ining ruxsati bilan qayta nazoratdan o‘tkazishga taqdim qilinadi.

Metrologik ekspertiza natijalari bo‘yicha, ularning ijobiy yoki salbiy bo‘lishiga qaramasdan, ekspert xulosa tuziladi. Ekspert xulosani metrologik ekspertizani olib borgan tashkilot raxbari tasdiqlaydi.

### **Nazorat savollari:**

1. Metrologik ekspertizani mahsulotga xujjatlar ishlab chiqishning har bir bosqichiga o‘tkazish maqsadga muvofiqmi ?
2. Texnik va eskiz loyihalarning metrologik ekspertizasida nimalar tekshiriladi?
3. Detal chizmasining metrologik ekspertizasida nimalar tekshiriladi?
4. Matnli xujjatlarni qanday sifatini baholash mezonlari bilasiz?
5. Konstruksiyani (sxemani) parametrlarini o‘lhash imkoniyatlari borligi qanday xujjatlarda tekshiriladi?
6. Metrologik ekspertiza natijalari bo‘yicha qanday tuziladi?
7. Xujjatlarda topilgan 1-chi kategoriyalı xatolarga izoh bering.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Polyakova O.V. Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii./V pomosh nachinayushim metrologam//Prakticheskiy jurnal “Glavniy metrolog” 2009
2. MI1317 «GSI Rezultati izmereniy i xarakteristiki pogreshnostey izmereniy. Formi predstavleniya. Sposobi ispitaniy pri ispitaniyu obrazsov produksii i kontrolyu ix parametrov.»

3. GOST 2.111 YESKD Normokontrol. M.Standart inform 2007
4. Miralieva A.K. Bekmurodov Ch.A. «Meyoriy nazorat va texnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasi» fanidan uslubiy ko‘rsatmalar TDTU 2014yil
5. RMG 63-2003. GSI. Obespecheniye effektivnosti izmereniy pri upravlenii texnologicheskimi protsessami. Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii.
6. O`zDSt 1.21:2002 GSS RUz. Ekspertiza ND.
7. Pravikov Y.M. Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii: metodicheskiye ukazaniya k praktichskim zanyatiyam. Ulyanovsk UlGTU, 2005.
8. <http://www.lex.uz> – 1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
9. <http://www.standart.uz> – Texnik jihatdan tartibga solish Agentligi

## **2-amaliy mashg`ulot: Metrologik ekspertizani o‘tkazish jarayonida topiladigan tipik xatolar.**

**Ishdan maqsad-** texnikaviy xujjatlarning metrologik ekspertizasini o‘tkazish jarayonida topiladigan tipik hatolarni va ularni bartaraf etish yo‘llarini o‘rganish, ekspertiza samaradorligini oshirish yo‘llari to‘g‘risida bilimlar shakllantirish.

### **Masalaning qo‘yilishi**

#### **Mashg‘ulot vazifalari:**

- Xujjatlarda uchraydigan tipik xatolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar to‘g‘risida bilimlarni mustahkamlash;
- Metrologik ekspertiza samaradorligini oshirish yo‘llarini o‘rganish va tahlil qilish.

### **Metrologik ekspertizani o‘tkazish jarayonida topiladigan tipik xatolar.**

Texnikaviy xujjatlarni metrologik ekspertizasini o‘tkazish jarayonida xatoliklar ko‘proq mahsulot ishlab chiqishning dastlabki bosqichida, ya’ni texnik topshiriqni ishlab chiqish bosqichida aniqlanadi. Yuzaki va sifatsiz o‘tkazilgan metrologik ekspertiza mahsulot ishlab chiqarishda katta iqtisodiy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Metrologik ekspertizaning turli masalalari ko‘rib chiqilganida topiladigan tipik xatolarni o‘rganib chiqamiz.

**1.Texnik topshiriqning (TT) “Metrologik ta’minot bo‘yicha talablar” bo‘limida qo‘yilgan talablarning to‘g‘riligi va to‘liqligi baholanganda,** quyidagi tipik xatolar topilishi mumkin:

- a) qo‘yilgan talablarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan me’yoriy xujjatlarning barchasi ko‘rsatilmagan;
- b) turi tasdiqlangan o‘lhash vositalarini qo‘llash to‘g‘risida talablar yo‘qligi;
- v) O‘zDst8.016:2002 ga muvofiq standartlashtirilgan va attestatlangan o‘lhashlarni bajarish metodikalarini qo‘llash to‘g‘risida talablar yo‘qligi;
- g) O‘zDst16.4:2001ga muvofiq attestatlangan sinov qurilmalarini qo‘llash to‘g‘risida talablar yo‘qligi;
- d) O‘zDst8.010.1:2002 ga muvofiq o‘lhash natijalarini qonunlashtirilgan birliklarda ifodalash to‘g‘risida talablar yo‘qligi;
- e) MI 1317-2004 ga muvofiq o‘lhash natijalari berilganda, ularning o‘lhash xatoliklari xarakteristikalarining qiymatlari ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

## **2. O‘lchanadigan va nazorat qilinadigan parametrlarning nomenklaturasini optimalligi baholanganida** quyidagi tipik xatolar topilishi mumkin:

- a) o‘lchanadigan va nazorat qilinadigan parametrlar qatoriga o‘lhashni va nazoratni talab qilmaydigan parametrlar qo‘yilgan bo‘lsa;
- b) o‘lchanadigan va nazorat qilinadigan parametrlar qatoriga o‘lhashni va nazoratni talab qiladigan parametrlar kiritilmay qolgan bo‘lsa;
- v) o‘lhash tizimini ishlab chiqish bo‘yicha texnik topshiriqda o‘lhash kanallarini va ularning metrologik xarakteristikalarini to‘liqsiz ro‘yxati keltirilgan.

## **3. Aniqlik me’yorlarining va o‘lhash natijalarining algoritmini asoslash bo‘yicha texnik yechimlar taxlil qilinganda,** quyidagi tipik xatolar topiladi:

- a) loyixalash xujjatlarida ba’zi-bir parametrlarning yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan og‘ishlarini chegaralari ko‘rsatilmagan;
- b) loyixalash xujjatlarida nazorat ostidagi parametrlarning yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan og‘ishlarini chegaralari asoslanishi kerak yoki ular noto‘g‘ri asoslangan yoki to‘liq asoslanmagan;
- v) o‘lhash xatoligini ja’mi qiymati xisoblanganda, uning ba’zi-bir tashkil etuvchilarini xisobga olinmagan;
- g) xatolikni tasodifiy tashkil etuvchilarini taqsimlanish qonuni noto‘g‘ri aniqlansa (masalan, normal taqsimlanish qonuni emas, balki tekis taqsimlanish qonuni);

d) ja'mi o'lhash xatoligi xisoblanganda, o'lhash vositasining metrologik xarakteristikalariga o'lhash sharoitlarini (temperatura, namlik, vibrasiya va x.z.) ta'siri xisobga olinmagan;

e) o'lhash tizimini ishlab chiqish bo'yicha texnik topshiriqda o'lhash kanallaridagi parametrlarni oraliq o'lhash natijalarini qayta ishlash algoritmlari keltirilmagan;

j) o'lhash tizimini ishlab chiqish bo'yicha texnik topshiriqda o'lhash kanallarining metrologik xarakteristikalarini xisoblash usullari keltirilmagan.

**4. O'lhash vositalariga qo'yiladigan talablarni to'g'riliqi va ularni to'liqligini taxlil qilish jarayonida, tanlangan o'lhash vositalarini rasionalligini baholash jarayonida** quyidagi tipik xatolar topiladi:

a) texnik shartlarda "Qo'llaniladigan o'lhash vositalarining ro'yxati" bo'limi yo'q;

b) o'zini katta o'lhash xatoligi tufayli tanlangan o'lhash vositasi talab etilgan aniqlikka javob bera olmaydi;

v) o'lhash vositasining o'lhash chegarasi noto'g'ri belgilangan, natijada, konstruktorlik xujjatlarda talab etilgan o'lhash aniqligiga erishish mumkin emas;

g) o'lhash vositasining GOSTi yoki texnik sharti noto'g'ri ko'rsatilgan;

d) o'lhash vositalarining Davlat Reyestriga kiritilmagan o'lhash vositasi tanlangan;

e) o'lhash vazifasini shartlariga yoki sharoitlariga rioya qilmaslik oqibatida o'lhash vositasi noto'g'ri tanlangan (masalan, qarshilik o'lchanganda o'lhash tokini chegaralash bo'yicha);

j) o'lhash vositasini qo'llashni iqtisodiy samarasi asoslanmagan (masalan, metrologik va boshqa xarakteristikalari bo'yicha to'g'ri keladigan arzonroq o'lhash vositasi bor bo'lsa, qimmat o'lhash vositasini ishlatish);

z) o'lhash vositasining nomi va metrologik xarakteristikalari noto'g'ri belgilangan yoki belgilanishi to'liq emas.

**5. Mahsulot konstruksiyasini tekshirish imkoniyatlarini baholashda** quyidagi tipik xatolar uchraydi:

a) o'lhash vositasini elektr tarmoqqa ulashga mo'ljallangan moslamalarni yo'qligi tufayli bir qator parametrlarni nazorat qilish imkoniyati yo'q;

b) Birorta qurilmani ichiga joylashtiriladigan o'lhash vositasini rostlash va sozlash elementlari qo'l yetmaydigan yoki ishlatishga noqulay joylarda joylashgan bo'lsa;

v) Aniqlik ko'rsatkichlarini ifodalanish shakli MI 1317-2004 talablariga javob bermasligi mumkin.

**6. Fizikaviy kattaliklar va ularni birliklarini atamalarini, nomlanishini, belgilanishini tekshirish jarayonida** quyidagi tipik xatolar uchraydi:

a) O'zDst 8.010.1:2002 talablariga muvofiq bo'limgan atamalar ishlatiladi (masalan, o'lhash vositasini qiyoslash o'rniga o'lhash vositasini tekshirish, xatolik  $\pm 0,1$  mm o'rniga aniqlik  $\pm 0,1$  mm, granulalar o'lchami o'rniga granulalar kattaligi va x.k.z.);

b) kattalik birliklari noto'g'ri ko'chirish (masalan, bosim birligi MPa ni mm.s.ust. ga ko'chirish), kattalik birliklarini to'g'ri ko'chirish uchun ensiklopedik ma'lumotnomadan foydalanish kerak;

v) asbob shkalasining bo'linma qiymati uning o'lhash xatoligi sifatida berilgan (masalan, tarozilar uchun), bunday holda asbob xatoligi ko'rsatilishi kerak;

g) Kattalik va ularning birliklarini nomlanishi va belgilanishi O'zDst 8.010.1:2002 talablariga javob bermaydi.

Metrologik va standartlashtirish ekspertizadan o'tkazish tajribasi shuni tasdiqlash imkonini beradiki, tiplashgan ob'yektlarni ekspertizadan o'tkazishda bir xil tipdagi xatolar tez-tez uchraydi, ularni aniqlashga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Tipik xatolarning ro'yxatlari xuddi shunday ob'yektlarni ko'p sonli ekspertizadan o'tkazish natijasida to'plangan materiallarni tahlil qilish asosida tarkib toptiriladi. Bunday ro'yxatlarga misollardan biri me'yoriy nazoratchining tanbehlarini raqamli kodlashtirish uchun mo'ljallangan tiplashgan xatolar klassifikatori bo'lib hisoblanadi, u ba'zi bir xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning standartlashtirish bo'linmalarida qo'llaniladi.

**Birgalikda metrologik va standartlashtirish ekspertizadan o'tkazishda aniqlanadigan eng umumiylar xatolarga quyidagilarni kiritish mumkin:**

- alablarni ifodalashning noto'g'riliqi, jumladan ma'lumotlarning bir-biriga zidligi va to'liq emasligi tufayli talablarning nazorat qilishga yaroqsizligi;

- riteriyalar, uslublar va instrumental vositalarning yo'qligi tufayli ishchonchli baholashni ta'minlashning iloji yo'qligi;

- ususiyatlar yoki parametrlarni me'yorlashdagi ziddiyatlar.

So'ngra tipik xatolar ekspertizalarning turlari bo'yicha differensiallanadi.

### **Standartlashtirish ekspertizasida aniqlanadigan tipik xatolarga quyidagilarni kiritish mumkin:**

- hujjatning yoki uning qismining sarlavha va mazmunga mos kelmasligi;
- noto'g'ri atamalar va belgilashlardan foydalanish;
- noto'g'ri foydalanilgan to'g'ri atamalar va belgilashlar, chizmalarda parametrlarning aniqligiga qo'yiladigan talablarni noto'g'ri belgilashni ham o'z ichiga olgan holda;
- bir qiymatli tarzda ifodalanmagan qoidalar, talablar;
- ma'lumotlarning yetishmasligi;
- hujjatda oshiqcha ma'lumotlarning bo'lishi;
- standart elementlar bor bo'lganda nostandard elementlardan zaruratsiz foydalanish;
- parametrlarning aniqligiga qo'yiladigan standart talablarning yo'qligi;
- 

m

atnli hujjatlar yoki texnik talablarning yozuvlarini yoki chizmalarda texnik shartlarni rasmiylashtirishdagi yoki ularning mazmunidagi xatolar.

### **Detallarni rasmiy standartlashtirish ekspertizadan o'tkazishda (me'yoriy nazoratdan o'tkazishda) quyidagi xatolar ko'proq tez-tez aniqlanadi:**

- asosiy yozuvni noto'g'ri rasmiylashtirish (zaruriy ma'lumotlar, sanalarni ko'rsatish bilan imzolarning yo'qligi);
- asosiy yozuvda detal materialining noto'g'ri belgilanishi;
- texnik talablarni yozishning noto'g'ri tartibi;
- fizikaviy kattaliklarning birliklarini talablarni buzish bilan belgilash, umumiyo'li qo'yilishlarni noto'g'ri belgilash;
- shakldagi yo'li qo'yilishlar va yuzalarning joylashuvini noto'g'ri belgilash (masalan, aylanalik, silindriklik, radial urilish va hokazolarning ramkalaridan chiqadigan strelkalarni o'lcham chizig'ining davomiga qo'yish, yoki aksincha, bиргаликда о'qlilik va silindrik yuzaning o'qiga taalluqli bo'lgan yo'li qo'yilishlarning strelkasining o'lcham chizig'ining davomida emasligi).

Statistik ma'lumotlar bo'yicha, xatoliklarning asosiy qismi o'lchash natijalarini qayta ishlash algoritmi va aniqlik me'yorlarini asoslash bo'yicha texnik yechimlar tahlil qilinganda, o'lchash vositalari qo'yilgan talablarga javob berishi tekshrilganda, ularni rasionalligini baholashda topiladi.

### **Metrologik ekspertiza samaradorligini oshirish yo'llari**

Korxonalarda metrologik ekspertizani samaradorligini oshirish yo'llari quyidagilarga bo'linadi:

1. Bosh metrolog bo'limi tomonidan metrolog bo'lmasan mutaxassislarni metrologiya soxasi bo'yicha bilimlarini oshirish bo'yicha tadbirlar tashkil qilish.

Buning uchun korxonada sifat bo'yicha komissiya tuziladi. Komissiya texnologik va konstruktorlik xujjatlarni metrologik ekspertizasida topilgan xato va kamchiliklar bo'yicha masalalarini o'rganib chiqadi va xar oyda shu masalalar bo'yicha korxonaning barcha bo'lim raxbarlarini yig'ib majlis o'tkazadi.

Bosh metrolog bo'limi tomonidan yana quyidagi tadbirlar o'tkaziladi:

- "Konstruktorlik va texnologik xujjatlarni metrologik ekspertizasi natijasida topilgan tipik xatoliklar ro'yxati" jadval shaklida yoki matn ko'rinishida tuziladi;
- "O'lhash natijalarini, o'lhash xatoliklarini, xisoblashlarni qiymatlarini yaqinlashtirish qoidalari", "Sonlarni yozish qoidalari", "Turli o'lchamlar o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari" bo'yicha "Eslatmalar" tuzish.

**Konstruktorlik va texnologik xujjatlarni metrologik ekspertizasida topilgan tipik xatolar ro'yxati.**

No	Texnik xujjatda yozilgan (noto'g'ri)	Texnik xujjatda qanday yozish tavsiya qilinadi (to'g'ri)	Izox
1	2	3	4

2. Ma'lumotlarning elektron bazasidan aktiv foydalanish.

Quyidagi ma'lumotlardan foydalaniladi:

- Davlat Reyestriga kiritilgan va O'zbekistonda ishlatalishiga ruxsat etilgan o'lhash vositalarining texnik xarakteristikalarini to'g'risida;
- davlat metrologik xizmatlari va yuridik shaxslarning metrologik xizmatlari tomonidan o'tkaziladigan qiyoslash va ta'mirlash ishlari to'g'risida;
- metrologiya soxasida me'yoriy va ma'lumotli (spravochnik) xujjatlardan;
- etalonlar va namunaviy o'lhash vositalari to'g'risida;
- ishlab chiqarilayotgan asboblarning elektron kataloglaridan.

3. Ekspert-metroologlar malakasini "O'zstandart" agentligi qoshidagi malaka

## oshirish o‘quv markazlarida oshirish.

4. Ekspert-metrologlar malakasini muntazam ravishda mustaqil o‘qish yo‘li bilan oshirish.

Mustaqil o‘qish quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha olib borilishi mumkin:

- a) yangi o‘lhash, sinash va nazorat vositalarini, ularni ishlatalishini, qiyoslanishini, kalibrланishini, sinalishini o‘rganish, yangi o‘lhash, sinash va nazorat qilish usullarini o‘rganish;
- b) metrologiya soxasiga taalluqli bo‘lgan yangi milliy, mintaqaviy va xorijiy me’yoriy xujjatlarni o‘rganish;
- v) “Standart”, “Glavniy metrolog”, “Sovetnik metrologa” va boshqa texnikaviy jurnallarni o‘rganish;
- g) metrologiya soxasida konferensiyalarda, olimpiadalarda qatnashish.

## **Nazorat savollari:**

1. Metrologik ekspertizasini o‘tkazish jarayonida xatoliklar ko‘proq mahsulot ishlab chiqishning qaysi bosqichida aniqlanadi ?
2. Texnik topshiriqning “Metrologik ta’midot bo‘yicha talablar” bo‘limida qanday tipik xatolar topilishi mumkin?
3. O‘lchanadigan va nazorat qilinadigan parametrlearning nomenklaturasini optimalligi baholanganida qanday tipik xatolar topilishi mumkin?
4. O‘lhash vositalariga qo‘yiladigan talablarning to‘g‘riligi va ularni to‘liqligini tahlil qilish jarayonida, tanlangan o‘lhash vositalarini rasionalligini baholash jarayonida qanday tipik xatolar topiladi?
5. Mahsulot konstruksiyasini tekshirish imkoniyatlarini baholashda qanday tipik xatolar topiladi?
6. Fizikaviy kattaliklar va ularni birliklarini atamalarini, nomlanishini, belgilanishini tekshirish jarayonida qanday tipik xatolar uchraydi?
7. Standartlashtirish ekspertizasida aniqlanadigan tipik xatolarga nimalarni kiritish mumkin?
8. Korxonalarda metrologik ekspertizani samaradorligini oshirishning qanday yo‘llari bilasiz?

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Polyakova O.V. Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii./V pomosh nachinayushim metrologam//Prakticheskiy jurnal “Glavniy metrolog” 2009

2. MI1317 «GSI Rezultati izmereniy i xarakteristiki pogreshnostey izmereniy. Formi predstavleniya. Sposobi ispitaniy pri ispitaniy obrazsov produksii i kontrolya ix parametrov.»
3. GOST 2.111 YESKD Normokontrol. M.Standart inform 2007
4. Miralieva A.K. Bekmurodov Ch.A. «Meyoriy nazorat va texnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasi» fanidan uslubiy ko'rsatmalar TDTU 2014yil
5. RMG 63-2003. GSI. Obespecheniye effektivnosti izmereniy pri upravlenii texnologicheskimi protsessami. Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii.
6. O`zDSt 1.21:2002 GSS RUz. Ekspertiza ND.
7. Pravikov Y.M. Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii: metodicheskiye ukazaniya k praktichskim zanyatiyam. Ulyanovsk UlGTU, 2005.
8. <http://www.lex.uz> – 1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
9. <http://www.standart.uz> – Texnik jihatdan tartibga solish Agentligi

### **3-amaliy mashg`ulot:Tashkilotning standartlarini metrologik ekspertizasi.**

**Ishdan maqsad-** Tashkilotning standartlari to'g'risida, uning tuzilishiga qo'yiladigan talablar to'g'risida va belgilanishi va klassifikasiyasiga qo'yiladigan talablar to'g'risida bilimlar shakllantirish.

#### **Masalaning qo'yilishi**

##### **Mashg`ulot vazifalari:**

- Tashkilotning standartlarini tuzilishiga qo'yiladigan talablar to'g'risida bilimlarni mustahkamlash;
- Tashkilotning standartlarini belgilanishi va klassifikasiyasiga qo'yiladigan talablarni o'rganish va tahlil qilish.
- Davlat standartlarining metrologik ekspertizasini o'tkazish to'g'risida bilimlar shakllantrish.

#### **Tashkilotning standarti**

Tashkilotning standarti O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish davlat markazi (O'zstandart agentligi) ning 2014 yil "02" fevraldag'i 05-520- sonli qarori bilan tasdiqlandi va joriy etildi. Tashkilotning standarlari asosida tadbirkorlar turli mahsulotlar ishlab chiqishadi yoki turli xizmatlar ko'rsatishadi.

Standart O'zDSt 1.28:2013 "Standartlashtirish tizimi. Tashkilotning standarti. Ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi" deb nomlanadi.

Quyidagilar tashkilotlarda standartlashtirish ob'yektlari bo'lishi mumkin:

- mahsulot (xizmatlar, ishlar va jarayonlar);
- sinov, o'lhash yoki tahlil qilish usullari;
- yangi yaratilgan va ushbu tashkilot tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar.

Tashkilot standartlarini ishlab chiqish xalqaro standartlar talablari, shuningdek O'zbekiston respublikasining bir hil mahsulotlar guruxiga nisbatan tatbik etiladigan davlat standartlari talablari asosida amalga oshirilgan. Tashkilot standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibini belgilashda tashkilotning keng doiradagi xodimlari va boshha tashkilotlarning vakillari uchun standartlarning loyixasini muxokama qilishda erkin ishtiroq etish uchun shart sharoitlar yaratiladi.

Tashkilot standartini ishlab chiqish quyidagi reja asosida tavsiya qilinadi:

- 1) standartlashtirish ob'yektlari va ularning qo'llash doirasi;
- 2) standart bo'linmalari va standart tomonidan belgilangan asosiy ko'rsatkichlarning nomenklaturasi;
- 3) standartni ishlab chikish bosqichlari (bajarish muddatlari bilan);
- 4) standart loyixasi kelishib olishi kerak bo'lgan mansabdor shaxslar, shuningdek tashkilotlar va korxonalar ro'yxati.

Tashkilot standartining loyihasini barcha muvofiqlashtiruvchi tashkilotlarga bir vaqtning o'zida yuborish taklif etiladi. Tashkilot standartlari va ularga o'zgartirishlar O'zstandart agentligi yoki uning xududiy organlarida, O'zstandart agentligi tomonidan tayyorlangan va ro'yxatga olish tartibi to'g'risidagi nizomga muvofik ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

### **Tashkilotning standartini belgilash va tasniflash.**

Tashkilot standartining belgilanishi standartni ishlab chiqadigan tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

Tashkilot uchun standartni belgilash odatda quyidagicha bo'ladi:

Ts XXXXXXXX-XXX:XXXX  
1            2            3            4

Bu yerda:

- 1- Ts tashkilot standartining xarfli indeksi;

- 2- korxona va tashkilotlarning milliy klassifikatori (OKPO) bo'yicha sakkiz xonali tashkilot kodi;
- 3- tashkilot standartining tartib raqami;
- 4-standartni tasdiklash yili.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan shaxslar OKPO kodi o'rniga tashkilotning ro'yxatga olish raqamini ko'rsatadi.

Tashkilot standartining tasniflash kodi (KSS) O`zDSt002 standartlarining milliy klassifikatoriga muvofiq belgilanadi va tashkilotning standarti bilan qamrab olingan mahsulotlarning tasnifi kodeksi (OKP) yoki xizmatlar (OKU) tashkilotning standartidagi bibliografik ma'lumotlar bo'yicha berilgan.

O'zstandart" agentligi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi qonunchilik talablariga rioya qilinishini ta'minlash departamenti (Departament) mutaxassislari tomonidan joriy yil davomida tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va ularga qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida bir turdag'i mahsulotlarga yagona talablarni belgilovchi 10 ta davlat standartlari ishlab chiqildi. Ushbu standartlar, talablari turlicha bo'lgan 279 ta tashkilot standartlari o'rniga ishlab chiqilgan bo'lib, tadbirkorlarimizga bepul beriladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tadbirkorlarimiz endilikda ushbu mahsulotlar uchun yangidan tashkilotning standarti ishlab chiqishga mablag' va vaqt sarflash tashvishidan ozod bo'lish bilan birga, ushbu standartlar xalqaro me'yorlar bilan uyg'unlashtirilganligi tufayli o'z mahsulotini eksportga yo'naltirish imkoniga ham ega bo'lishadi. Masalan, makkajo'xori qalamchalari ishlab chiqarishni ixtiyor qilgan har bir tadbirkor alohida Tashkilot standarti (Ts) ishlab chiqishi va har besh yilda uni yangilab turishi shart edi. Endilikda ushbu mahsulot ishlab chiqaradigan 24 nafar tadbirkor va ushbu faoliyat bilan kelgusida shug'ullanadigan ishbilarmonlar uchun yagona, xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirilgan O'z DSt\_2019 "Makkajo'xori qalamchalari. Texnikaviy shartlar" ishlab chiqildi. Yoki xuddi shunday tadbirkorlar tomonidan ko'plab ishlab chiqariladigan polimer shlanglar (26-ta Ts o'rniga), oqartiruvchi vositalar (36-ta Ts o'rniga), kosmetik gliserin (21-ta Ts o'rniga) ishlab chiqaruvchilar uchun ham yangi davlat standartlari ishlab chiqildi.

### **Davlat standartlarining loyihamalarini metrologik ekspertizadan o'tkazish.**

Davlat standartlari loyihamalarining metrologik ekspertizasi o'lchashlarning birxilliligini ta'minlash, shuningdek standartlashtiriladigan ob'yektlarni texnik va iqtisodiy asoslangan metrologik ta'minlash maqsadida o'tkaziladi.

Metrologik ekspertizadan o‘tkazishga mahsulotlar va xizmatlar, ishlar (jarayonlar), nazorat qilish (sinovlardan o‘tkazish, o‘lchash, tahlil qilish) uslublariga davlat standartlarining loyihalari, shuningdek ularda quyidagilar reglamentlangan boshqa davlat standartlarining loyihalari tortiladi:

- o‘lchashlarning xatoligi, o‘lchaydigan nazorat qilishning ishonchlilikiga qo‘yiladigan talablar;
- o‘lchashlarni bajarish uslubiyatlari, o‘lchash vositalari, standart namunalar, attestasiyadan o‘tkazilgan namunalarga qo‘yiladigan talablar;
- o‘lchashlarni bajarish, tahlil qilish, sinovlardan o‘tkazish, o‘lchaydigan nazorat qilish uslubiyatlari;
- moddalar va materiallarning xossa va xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, jumladan standart spravochnik ma’lumotlari;
- moddalar va materiallarning standart namunalarining qo‘llanilishi;
- o‘lchash vositalarini qiyoslash (kalibrlash) uslubiyatlari.

Davlat standartlari loyihalarining metrologik ekspertizasini standartni ishlab chiqishni tashkil qiladigan, standartning loyihasini ko‘rib chiqadigan va Davlat standartlashtirish va metrologiya qo‘mitasiga (O‘zstandart) yo‘llaydigan texnik qo‘mitalar (MTQ va TQ) va ularning tagqo‘mitalari o‘tkazadi.

Standart loyihasining birinchi tahririni metrologik ekspertizadan o‘tkazish ko‘proq afzal bo‘lib hisoblanadi. Zarurat bo‘lganda metrologik ekspertizaga ikkinchi va undan keyingi tahrirlar ham yo‘llanishi mumkin. Davlat metrologiya tekshirushi va nazorati doirasida qo‘llaniladigan o‘lchashlarni bajarish uslubiyatlarini reglamentlaydigan standartlarning loyihalarini metrologik ekspertizadan o‘tkazishni davlat ilmiy metrologiya markazlari amalga oshiradi. O‘lchashlarning birliligini ta‘minlash Davlat tizimi doirasidagi O‘zstandart agentliginining metrologiya institutlari tomonidan ishlab chiqiladigan davlat standartlarining loyihalari metrologik ekspertizadan o‘tkazishga yo‘llanmaydi. Davlat standartlarining loyihalarini metrologik ekspertizadan o‘tkazishni bajaradigan tashkilotlar davlat ilmiy metrologiya markazlari, metrologiya xizmatining akkreditasiyalangan bosh va bazaviy tashkilotlari, shuningdek o‘lchash vositalari, o‘lchashlarni bajarish uslubiyatlari, metrologiya ta‘minoti bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishni bajaradigan ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bo‘lishi mumkin.

Davlat standartlarining loyihalarini metrologik ekspertizadan o‘tkazishni bajarishda ularni “O‘lchashlarni birliligini ta‘minlash Davlat tizimi” talablariga va metrologik talablar ifodalangan boshqa standartlarga muvofiqligi tekshiriladi.

*Metrologik ekspertizani o‘tkazishda ishlab chiqiladigan davlat standarti loyihasining turi va mazmuniga bog‘liq ravishda tahlil qilish bajariladi va quyidagilar aniqlanadi:*

- o‘lchanadigan parametrlar nomenklaturasining rasionalligi;

- o‘lhashlar xatoligiga qo‘yiladigan talablarning optimalligi;
- o‘lhash vositalarining metrologik tavsiflariga qo‘yiladigan talablarning to‘liqligi va to‘g‘riliqi;
- o‘lhashlar xatoligining berilgan talablarga muvofiqligi;
- mahsulotning (o‘lhashlar tizimining) nazorat qilishga yaroqliligi;
- o‘lhash vositalariga samarali metrologik xizmat ko‘rsatish imkoniyati (jumladan qiyoslash, kalibrlash, ish qobiliyatini nazorat qilish, ta’mirlash imkoniyati);
- tanlangan o‘lhash vositalari va o‘lhashlarni bajarish uslubiyatlarining rasionalligi, jumladan ularning davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati doirasida qo‘llaniladigan o‘lhash vositalari va uslubiyatlariga qo‘yiladigan talablarga muvofiqligi;
- o‘lhashlar natijalariga ishlov berish algoritmining o‘lhash vazifasiga muvofiqligi;
- metrologik atamalar, o‘lchanadigan kattaliklarning nomlari va ularning birlikdan foydalanishning to‘g‘riliqi.

*O‘lchanadigan parametrlar nomenklaturasining rasionalligini tahlil qilish va aniqlash.*

O‘lchanadigan parametrlar nomenklatusasining rasionalligi mahsulot, texnologiyalar va hokazolarga beriladigan me’yoriy hujjatlar bilan aniqlanadi. Bunda ekspert quyidagi asosiy qoidalarga asoslanadi:

- mahsulotlarning uzellari va tarkibiy qismlari uchun nazorat qilish o‘lchamli va funksional bir-binining o‘mini bosa olishni ta’minlashi lozim;
- tayyor mahsulot uchun asosiy tavsiflar va mahsulot miqdorini nazorat qilish ta’minlangan bo‘lishi lozim;
- texnologik asbob-uskunalar, nazorat qilish va boshqarish tizimlari uchun unumdarlik va tejamkorlik bo‘yicha optimallikni belgilaydigan parametrlarni o‘lhash amalga oshirilishi lozim;
- ishlarni bajarishning xavfsizligini nazorat qilish, ekologik xavfsizlikni nazorat qilish.

O‘lhashlarga va o‘lchanadigan nazorat qilishga tortiladigan parametrlarni tahlil qilishda quyidagilarni nazarda tutish lozim bo‘ladi:

- tayyor detallar, uzellar va mahsulotlarning texnik tavsiflarining bir qismi texnologik jarayonlarning oldingi bosqichlari yoki asbob-uskunalar, jihozlar bilan belgilanadi, shu sababli nazorat qilinadigan parametrlarni bu bosqichlar va ob’yektlarga rasional taqsimlash zarur bo‘ladi;
- texnologik jarayonda parametrlarning qiymatlari o‘zaro bog‘lanadi va bu bog‘lanishlardan nazorat qilinadigan parametrlarning nomenklatusasini qisqartirish uchun, ko‘proq muhim bo‘lgan parametrlar uchun esa – o‘lhashlarni aniqligi va

o'lchaydigan tizimlarning ishonchlilagini oshirish uchun foydalaniladi; – o'lhashlar va o'lhash vositalariga metrologik xizmat ko'rsatishga ketadigan asoslanmagan xarajatlardan qochish uchun o'lchanadigan parametrlarning oshiqchaligini aniqlash.

*Mahsulotning (o'lhash tizimining) nazorat qilishga yaroqlilagini aniqlash.*

Mahsulotning (o'lhash tizimining) nazorat qilishga yaroqliligi deganda montaj qilish, yo'lga qo'yish, sinovlardan o'tkazish, ekspluatasiya qilish, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash jarayonida uning parametrlarini nazorat qilish imkoniyati tushuniladi. Asosiy e'tibor montaj qilish, yo'lga qo'yish, sinovlardan o'tkazish, ekspluatasiya qilish, xizmat ko'rsatish va ta'mirlash jarayonida mahsulotning ish qobiliyatini belgilaydigan parametrlarni o'lchaydigan nazorat qilishni amalga oshirish imkoniyatlariga qaratiladi.

O'lhash tizimlariga beriladigan davlat standartlarining loyihamalarini ekspertizadan o'tkazishda o'z-o'zini nazorat qilish va tashxislash qurilmalari va tagtizimlarining borligi va ularning tavsiflari baholanadi.

*O'lhash vositalariga samarali metrologik xizmat ko'rsatish (jumladan, qiyoslash, kalibrlash, ish qobiliyatini nazorat qilish, ta'mirlash) imkoniyatini aniqlash.*

Bunda O'lhashlarning birlilagini ta'minlash Davlat tizimining hujjalari bilan reglamentlangan qiyoslash uslublari va vositalariga asoslaniladi. O'lhash tizimlari va murakkab texnik tizimlar uchun ekspluatasiya qilish jarayonida nosozliklarni tashxislash yoki ish qobiliyatini nazorat qilish talablari va (yoki) uslublari ko'rsatilishi lozim.

*Tanlangan o'lhashlarni bajarish vositalari va uslublarining rasionalligini, jumladan ularning davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati doirasida qo'llaniladigan o'lhashlarni bajarish vositalari va uslublariga qo'yiladigan talablarga muvofiqligini aniqlash.*

Bunda quyidagilar tekshiriladi:

- davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati yoyiladigan sferalarda qo'llaniladigan tasdiqlangan tipdagи o'lhash vositalaridan foydalanishi;
- berilgan shart-sharoitlarda o'lhash vositalaridan foydalanish imkoniyati;
- o'lhash operasiyalari va o'lhash vositalariga metrologik xizmat ko'rsatishning mehnat sig'imi va narxi;
- statistik nazorat qilish uslublaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligi;
- texnika xavfsizligi va ekologik xavfsizlik talablarining qanoatlantirilishi.

*Standartning loyihasida ko'rsatilgan o'lhashlarni bajarish uslubiyatlarining rasionalligini aniqlash.*

Bunda ustivorlik standartlashtirilgan uslubiyatlarga berilishi lozim. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati doirasida qo'llaniladigan o'lhashlarni bajarish uslubiyatlari (O'BM) attestasiyadan o'tkazilgan bo'lishi lozim. Keltirilgan

o‘lchashlarni bajarish uslubiyatlarining to‘liqligi standartlar talablariga muvofiq baholanadi.

### ***O‘lchashlar natijalariga ishlov berish algoritmining o‘lchash vazifasiga muvofiqligini aniqlash.***

Bunda hisoblash algoritmi o‘lchanadigan kattalikning to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchashlar natijalari bilan (kattaliklarning o‘lchash vositalariga kirishdagi qiymatlari bilan) bog‘laydigan funksiyaga qanchalik mos kelishini baholash zarur bo‘ladi.

*Metrologik atamalar, o‘lchanadigan kattaliklarning nomlari va ularning birliklarining belgilanishlaridan foydalanishning to‘g‘riligini nazorat qilish.*

Bunda standartlarda keltirilgan metrologik atamalar, o‘lchanadigan kattaliklarning nomlari va ularning birliklarining belgilanishi standartlar talablariga muvofiqligi tekshiriladi.

Respublikamiz xududida yuritiladigan standartlarda va boshqa me’yoriy xujjatlarda keltirilgan atamalar va ta’riflar O`zDSt 8.010.1:2002, O`zDSt 8.010.2:2003, O`zDSt 8.010.3:2004, O`zDSt1.10 standartlarda belgilangan talablarga javob berishi talab etiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Tashkilotlarda standartlashtirish ob’yektlariga nimalar kiradi?
2. Tashkilotning standartini ishlab chiqish qanday reja asosida tavsiya qilinadi?
3. Tashkilotning standarti qanday belgilanadi va tasniflanadi?
4. Qanday maqsadda bir turdagи mahsulotlarga yagona talablarni belgilovchi davlat standartlari ishlab chiqilmoqda?
5. Qanday maqsadda davlat standartlari loyihibarining metrologik ekspertizasi o‘tkaziladi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. MI1317 «GSI Rezultati izmereniy i xarakteristiki pogreshnostey izmereniy. Formi predstavleniya. Sposobi ispitaniy pri ispitaniy obrazsov produksii i kontrolyu ix parametrov.»
2. GOST 2.111 YESKD Normokontrol. M.Standart inform 2007
3. Miralieva A.K. Bekmurodov Ch.A. «Meyoriy nazorat va texnikaviy hujjalarning metrologik ekspertizasi» fanidan uslubiy ko‘rsatmalar TDTU 2014yil
4. RMG 63-2003. GSI. Obespecheniye effektivnosti izmereniy pri upravlenii texnologicheskimi protsessami. Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii.

5. O`zDSt 1.21:2002 GSS RUz. Ekspertiza ND.
6. Pravikov Y.M. Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii: metodicheskiye ukazaniya k praktichskim zanyatiyam. Ulyanovsk UlGTU, 2005.
7. <http://www.lex.uz> – 1. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
8. <http://www.standart.uz> – Texnik jihatdan tartibga solish Agentligi

## V. KEYSALAR BANKI

**1-Keys:** Bir qator korhona va tashkilotlarda me'yoriy nazoratning ahamiyatiga etarlicha baho berilmaydi va uni joriy qilish zarur emas deb hisoblashadi, yangi mashinalarni loyihalashtirishda esa berilgan mahsulot ishlab chiqarishga qabul qilingandan keyingina birhillashtirish (unifikaciyalash) va davlat standartlari talablariga rioya qilish zarur deya ta'kidlash bilan uni umuman kerak emas deb hisoblaydilar. Bunday qarashlarga ega bo'lish chuqur hatoga yo'l qo'yishdir. Muammo echimini izlab toping va takliflar kiriting.

### Keysni amalga oshirish bosqichlari

Bosqichlar	Topshiriqlar
1-bosqich	Taqdim etilgan aniq vaziyatlar bilan tanishib chiqing. Muammoli vaziyat mazmuniga alohida e'tibor qarating. Muammoli vaziyat qanday masalani hal etishga bag`ishlanganligini aniqlang.
2-bosqich	Keysdagagi asosiy va kichik muammolarni aniqlang. O'z fikringizni guruh bilan o'rtoqlashing. Muammoni belgilashda isbot va dalillarga tayaning. Keys matnidagi hech bir fikrni e'tibordan chetda qoldirmang.
3-bosqich	Guruh bilan birgalikda muammo echimini toping. Muammoga doir echim bir necha variantda bo'lishi ham mumkin. Shu bilan birga siz topgan echim qanday natijaga olib kelishi mumkinligini ham aniqlang.
4-bosqich	Guruh bilan birgalikda keys echimiga doir taqdimotni tayyorlang. Taqdimotni tayyorlashda sizga taqdim etilgan javdalga asoslaning. Taqdimotni tayyorlash jarayonida anqlik, fikrning ihcham bo'lishi tamoyillariga rioya qiling

**2-Keys:** Amaliyot shuni ko'rsatadi-ki, mashinalarning yangi konstrukciyalarini o'zlashtirish muddatlarining qisqaligi oqibatida birhillashtirish (unifikaciyalash) bilan bog`liq bo'lgan biror-bir o'zgartirishlarni kiritish qiyinlashadi. Bir qator hollarda mashinalarni loyihalashtirishda ularda standartlashtirilgan detallar va qismlarning qo'llanilishini maksimal darajada oshirish, konstruktiv elementlarning tiplashgan o'lchamlarini, foydalilaniladigan materiallarning markalari va sortamentini qisqartirish kabi o'ta muhim masalalar konstruktorlar e'tiboridan chetda qoladi, buning natijasida ishlab chiqarishga standartlashtirish va bir hillashtirishning past darajasiga ega bo'lgan mashinalar qabul qilinadi. Bu ularni o'zlashtirish muddatlarining uzayishiga va ishlab chiqarish tannarhining ortishiga olib keladi. Muammo echimini izlab toping va takliflar kriting.

### Keysni amalga oshirish bosqichlari

Bosqichlar	Topshiriqlar
1-bosqich	Keys bilan tanishib chiqing. Muammoli vaziyat mazmuniga alohida e'tibor qarating. Muammoli vaziyat qanday masalani hal etishga bag`ishlanganligini aniqlang.
2-bosqich	Mahsulotga berilgan tehnikaviy topshiriq me'yoriy nazoratdan o'tkazildimi, aniqlang. Me'yoriy nazoratda qanday hato va kamchiliklar topildi, izohlang.
3-bosqich	Mashinalarni loyihalashtirishda ularda standartlashtirilgan detallar va qismlarning qo'llanilishini maksimal darajada oshirish, konstruktiv elementlarning tiplashgan o'lchamlarini, foydalilaniladigan materiallarning markalari va sortamentini qisqartirish kabi o'ta muhim masalalar ko'rib chiqildimi, aniqlang.
4-bosqich	Keys echimi bo'yicha o'z fikr-mulohazangizni yozma ravishda yoriting va taqdim eting.

### KEYSLI VAZIYATLAR

*(O'quv mashg`ulotlarida foydalanish uchun tavsiya etiladi)*

**1-Keys:** Mashinalarni ishlab chiqishda ularni o'zlashtirish muddatlarining uzayishiga va ishlab chiqarish tannarhining ortishiga qanday sabablar olib keladi. Muammo echimini izlab toping va takliflar kriting.

*Sizning fikringizcha bu muammoni hal qilishning qanday yo'li yoki yo'llari mavjud? O'z fikringizni bildiring.*

**2-keys:** Tehnologik jihozlarni, tajriba namunalarini tayyorlash jarayonida, sotiladigan detallar, qismlar va materiallarga buyurtmalarni bajarish imkonini bo'lmaydi. Buning natijasida hujjatlarni to'qirlash va hato shifrlangan detallar va qismlar partiyalarini qaytadan tayyorlash bilan boqliq bo'lgan vaqt yo'qotilishi sodir bo'ladi.

*Bu muammolarning oldini olish uchun hujjatlarni to'g`rilash va hato shifrlangan detallar va qismlar partiyalarini qaytadan tayyorlash kerakmi? O'z fikringizni bildiring.*

**3 -Keys:** Ihtisoslashtirilgan korhonalar tomonidan etkazib beriladigan sotib olinadigan detallar va materiallarda standartlar va tehnik shartlar raqamlarining noaniq yozilishi kerak bo'lmasligi nomenklatura va tiplashgan o'lchamdagini detallar va materiallarni etkazib berishga olib keladi. Bularning barchasi mashinalarning yangi konstrukciyalarini o'zlashtirish muddatlarining uzayishiga olib keladi.

*Sizning fikringizcha bu muammoni hal qilishning qanday yo'li yoki yo'llari mavjud? O'z fikringizni bildiring.*

## GLOSSARIY

Termin	O`zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
xalqaro standart	- standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot doirasida qabul qilingan standart;	- a standard adopted within the framework of an international
international standard		

		standardization organization;
<b>mintaqaviy yoki davlatlararo standart regional or interstate standard</b>	- standartlashtirish sohasida mintaqaviy tashkilot doirasida qabul qilingan standart	standard adopted within the regional organization in the field of standardization
<b>xorijiy mamlakatning standarti</b> <b>standard of a foreign country</b>	— xorijiy davlatning standartlashtirish bo'yicha vakolatli organi tomonidan qabul qilingan standart	a standard adopted by the competent authority for standardization of a foreign state
<b>Manfaatdor tomonlar stakeholders</b>	manfaatdor tomonlar - Standartlarni qabul qilish va (yoki) ularni qo'llashdan manfaatdor bo'lgan mahsulotlarning (hizmatlarning) tegishli turlarini ishlab chiqaruvchi yoki iste'mol qiluvchi davlat va ho'jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar.	Stakeholders - state and economic administration bodies and other organizations that produce or consume the relevant types of products (services) interested in the adoption and (or) application of the Standards.
<b>Standartlashtirish bo'yicha texnik qo'mita (TQ)</b> <b>Technical Committee for Standardization</b>	— faoliyatning biriktirilgan sohasi bo'yicha milliy, mintaqaviy, davlatlararo va xalqaro standartlashtirish ishlarini amalga oshirish bo'yicha manfaatdor tomonlarning hamkorlik qilish shaklidir.	The Technical Committee for Standardization (TC) is a form of cooperation between stakeholders in the implementation of national, regional, interstate and international standardization work in the attached area of activity.
<b>O'lchash natijasi measurement result</b>	O'lchash natijasida olingan ma'lumot, ahborot. Obъekt to`g'risida ma'lumot bo'lib, ob`ekt harakteristikalarini to'liq mazmun - mohiyatini aks ettiruvchi signallar yordamida uzatiladi.	Any quantities attributed to a measurand from a measurement together with other relevant information. Environmental conditions or measurement uncertainty are two

		examples of other relevant information.
<b>Termin</b>	O`zbek tiltdagi sharhi	Ingliz tiltdagi sharhi
<b>Texnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasi</b>  <b>Metrological examination of technical documentation</b>	bu buyumlarni tayyorlash, sinovlardan o`tkazish, ekspluatasiya qilish va ta'mirlash jarayonida ularni o'lchanadigan parametrlarini tanlash, aniqlik me'yorlarini o'rnatish, o'lchash vositalarini tanlash bo'yicha texnik yechimlarni tahlil qilish va baholashdir.	- Analysis and evaluation of technical solutions for the selection of parameters to be measured, the establishment of accuracy standards, the choice of measuring instruments in the process of manufacturing, testing, operation and maintenance of products.
<b>Me'yoriy hujjat</b>  <b>Normative document</b>	Standartlashtirish har hil faoliyat turlari va uning natijalariga dahldor qoidalar umumiyl qonun koidalar yoki tafsiflarni o'zida qamrab olgan hujjatdir.	Standardization is a document that contains general legal rules or descriptions of the various types of activities and the rules relating to their results.
<b>Texnologik xujjat</b>  <b>Technological document</b>	Grafikli yoki matnli hujjat bo'lib, alohida o'zi yoki boshqa hujjatlar bilan birga tehnologik jarayonni yoki mahsulotni tayyorlash operaciyasini yoritib beradi.	It is a graphic or text document that describes the technological process or product preparation operation separately or together with other documents.
<b>Ekspluatasion xujjat</b>  <b>Operational documentation</b>	Matnli konstruktorlik xujjat bo'lib, maxsulotni ekspluatasiya qilish qoidalarini belgilaydi va uni ishlab chiqaruvchi tomonidan kafolatlangan asosiy xarakteristikalarini va parametrlarini aks etadi. Ekspluatasion xujjatlar matnli, grafik va multimedia shaklida ishlab chiqariladi.	These are the documents used to study the product and the rules of its use, ie used in maintenance, transportation, storage, repair.
<b>Konstruktorlik hujjatlar</b>	Grafik va matnli hujjatlar bo'lib, ular birgalikda yoki alohida mahsulotning tarkibiy	Graphic and text documents are documents that define the

<b>Design documents</b>	qismini va tuzilishini belgilashadi va shu mahsulotni ishlab chiqishga, ishlab chiqarishga, nazorat qilishga, ekspluataciyasiga va ta'mirlashga zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.	composition and structure of a product, either together or separately, and contain the information necessary to design, manufacture, inspect, operate, and repair that product.
<b>Texnik topshiriq</b>	Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning dastlabki hujjati bo'lib, uning asosiy vazifasini, ulchamlariga va massasiga ko'yiladigan talablarni chidamlilagini, tashish va saqlash sharoitlarini, ma'lum bir mehanik, iqlimiylar va boshqa ta'sirlar ostida ishga yaroqlilagini belgilaydi.	It is the initial document of the manufactured product, which determines its main function, durability requirements for size and mass, transport and storage conditions, serviceability under certain mechanical, climatic and other influences.
<b>Me'yoriy nazorat yoki standartlashtirish ekspertizasi</b>	O'rnatilgan me'yor va talablarga rioya etilishini tekshirish	Verification of compliance with established norms and requirements
<b>Normative control or standardization expertise</b>		
<b>Mahsulot sifati Product quality</b>	Mahsulotning vazifasiga binoan muayan ehtiyojlarini qanoatlantirishga yaroqlilagini belgilaydigan hossalar yig`indisi tushuniladi.	Depending on the function of the product, a set of properties is defined that determines its suitability to meet certain needs.
<b>Texnologik xujjalarning yagona tizimi (TXYaT)</b>	Texnologik hujjatlarning yagona tizimi bu mahsulotlarni ishlab chikarish, nazorat qilish, kabul kilish va ta'mirlash (modernizaciya qilish) jarayonida ishlataladigan texnologik hujjatlarni ishlab chikish, yig`ish, ro'yxatdan o'tkazish va muomalaga chikarish tartibi to'g`risidagi	The single system of technological documentation is a set of interstate standards and recommendations defining interrelated rules on the procedure for development, collection, registration and issuance of technological
<b>Unified system of technological documentation</b>		

	o'zaro bog`liq qoidalar belgilaydigan davlatlararo standartlar va tavsiyalar to'plamidir.	documentation used in the production, control, acceptance and repair (modernization) of these products.
<b>Termin</b>	O`zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<b>Texnik topshiriq</b>  <b>Terms of Reference</b>	Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning dastlabki hujjati bo'lib, uning asosiy vazifasini, ulchamlariga va massasiga ko'yiladigan talablarni chidamliligin, tashish va saqlash sharoitlarini, ma'lum bir mehanik, iqlimiyl va boshqa ta'sirlar ostida ishga yaroqliligin belgilaydi.	It is the initial document of the manufactured product, which determines its main function, durability requirements for size and mass, transport and storage conditions, serviceability under certain mechanical, climatic and other influences.
<b>Davlat standarti</b>  <b>State standard</b>	Davlatning milliy standartlashtirish organi tomonidan qabul qilingan va foydalanzuvchilarining keng doirasi uchun mo'ljallangan standart.	A standard adopted by the national standardization body of the state and intended for a wide range of users
<b>Davlatlararo standart</b>  <b>Interstate standard</b>	Davlatlararo standart – Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo'yicha davlatlararo kengashi tomonidan qabul qilingan va Evroosiyo iktisodiy ittifoqi hududida ixtiyoriy ravishda qo'llaniladigan mintakaviy standart.	Interstate standard is a regional standard adopted by the Interstate Council for Standardization, Metrology and Certification of the Commonwealth of Independent States and voluntarily applied in the territory of the Eurasian Economic Union.
<b>Me`yoriy hujjat</b>  <b>Normative document</b>	Standartlashtirish har hil faoliyat turlari va uning natijalariga dahldor qoidalar umumiyl qonun- qoidalar yoki tafsiflarni o'zida qamrab olgan hujjatdir.	Standardization is a document that contains general legal rules or descriptions of the various types of activities and the

		rules relating to their results.
<b>Mahsulot parametri</b> <b>Product parameter</b>	Mahsulot parametri - har qanday hususiyatlarini yoki holatlarini miqdoriy ravishda tavsiflovchi mahsulot ko'rsatkichi.	A product parameter is a product indicator that quantitatively describes any feature or condition.
<b>Sifat ko`rsatkichi</b>  <b>QUALITY INDICATOR</b>	Sifat ko`rsatkichi (mahsulot) - bu uning sifati bilan bog`lik bo`lgan va uni yaratish va ishlatish yoki iste'mol kilishning muayyan shartlarini belgilaydigan bir yoki bir nechta xususiyatlarning miqdoriy xarakteristikasi.	A quality indicator (product) is a quantitative characteristic of one or more properties that are related to its quality and are related to certain conditions of its creation and use or consumption.
<b>Texnikaviy talablar</b>  <b>Technical requirements</b>	Funktional talablarga javob beradigan mahsulot, xizmat yoki jarayonni ishlab chiqarish, etkazib berish va qabul qilish paytida bajarilishi kerak bo`lgan talablarni belgilaydigan texnik hujjat.	A technical document that specifies the requirements that must be met during the production, delivery, and acceptance of a product, service, or process that meets functional requirements.
<b>Termin</b>	O`zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
<b>Me'yoriy nazorat yoki standartlashtirish ekspertizasi</b>  <b>Normative control or standardization examination of technical documentation</b>	Texnikaviy hujjatlarni o'rnatilgan me'yor va talablarga rivoja etilishini tekshirish	Verification of compliance of technical documentation with established norms and requirements
<b>Texnologik xujjatlarning yagona tizimi (TXYaT)</b>  <b>Unified system of technological documentation</b>	Texnologik hujjatlarning yagona tizimi bu mahsulotlarni ishlab chikarish, nazorat qilish, kabul kilish va ta'mirlash (modernizaciya qilish) jarayonida ishlatiladigan texnologik hujjatlarni ishlab chikish, yig`ish, ro'yxatdan o'tkazish va muomalaga	The single system of technological documentation is a set of interstate standards and recommendations defining interrelated rules on the procedure for development, collection, registration and issuance

	chikarish tartibi to'g`risidagi o'zaro bog`liq qoidalar belgilaydigan davlatlararo standartlar va tavsiyalar to'plamidir.	of technological documentation used in the production, control, acceptance and repair (modernization) of these products.
<b>Konstruktorlik hujjatlarning yagona tizimi (KHYaT)</b>  <b>Unified System of Design Documents (UNDC)</b>	Konstruktorlik hujjatlarining yagona tizimi- bu mahsulotning hayotiy ciklining barcha bosqichlarida ishlab chiqilgan va qo'llaniladigan konstruktorlik hujjatlarini ishlab chikish, rasmiylashtirish va muomalaga kiritish bo'yicha o'zaro boqlik koidalar, talablar va me'yorlarni belgilaydigan davlat standartlari to'plamidir.	A single system of design documentation is a set of state standards that define the interrelated rules, requirements and standards for the development, design and implementation of design documentation, developed and applied at all stages of the product life cycle.
<b>Birhillashtirish (unifikaciyalash) Unification</b>	- bu asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlar, xizmatlar va jarayonlarning optimal o'lchamlari va turlarini tanlash.	- selection of optimal sizes and types of products, services and processes produced to meet these basic needs.
<b>Mahsulotni konstruktorlash jarayonda birhillashtirish (unifikaciyalash)</b>  <b>Unification of the product in the design process</b>	Mahsulotni konstruktorlash jarayonida birhillashtirish - bu dizayndagi bir xil qismlar, detallar va sirt shakllaridan ko'p marta foydalanishdir.	Unification of the product during the design process is the repeated use of the same parts, details and surface shapes in the design.
<b>Mahsulotni texnologik jarayonda birhillashtirish (unifikaciyalash) Unification of products in the technological process</b>	Texnologik jarayonda birhillashtirish - bu mahsulot ishlab chiqarishda ishlatiladigan asbob va uskunalar nomenklaturasining qisqartirilishi	Unification in the technological process is a reduction of the range of tools and equipment used in the production of a product

<b>Passiv me`yoriy nazorat</b> <b>Passive regulatory control</b>	Passiv nazorat - faqatgina tehnik hujjatlarni tekshirishdir.	Passive control is only the verification of technical documentation.
<b>Aktiv me`yoriy nazorat</b> <b>Active regulatory control</b>	-faqat tekshirish o'tkazish bilan cheklanib qolmasdan, balki boshqa hujjatlarning chizmalarida ham keltirilgan ma'lumotlar, shuningdek ba'zi bir holatlarga konstruktiv, tehnologik va ekspluatacion echimlarni yahshilash maqsadida kiritilgan o'zgartirishlarni ham nazorat qilishdir.	- control not only the inspection, but also the information provided in the drawings of other documents, as well as changes made in some cases to improve the design, technological and operational solutions.

## VII. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

### Maxsus adabiyotlar:

1. Hebra, Alex. The Physics of Metrology. Springer. 2010
2. Waldemar Nawrocki. Introduction to Quantum Metrology: Quantum Standards and Instrumentation 2015th Edition/ Springer. London, 2015, 273 page.
3. Matyakubova P.M., Kuziev B.N., Miraliyeva A.K. "Hujjatlarning ekspertizasi". O'quv qo'llanma,-T.:2020. -187 b.
4. Ismatullaev P.R., Matyakubova P.M., To'rayev Sh.A. "Standartlashtirish asoslari". Darslik. -T.: - 2019.
5. Ismatullaev P.R., Kodirova Sh.A., «Metrologiya asoslari», Darslik,-T.:2020.
6. Sergeyev, A. G. "Standartizatsiya i sertifikatsiya: uchebnik i praktikum dlya SPO". —M.: Izdatelstvo Yurayt, 2018. -323 s
7. Lifits, I. M. "Standartizatsiya, metrologiya i podtverjdeniye sootvetstviya: uchebnik i praktikum dlya SPO". I. M. Lifits. — 12-ye izd., per. i dop. — M.: Izdatelstvo Yurayt, 2018. — 314 s.
8. Pravikov Y.M."Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii: metodicheskiye ukazaniya k prakticheskim zanyatiyam. Ulyanovsk UlGTU,2005.
9. Polyakova O.V. "Metrologicheskaya ekspertiza texnicheskoy dokumentatsii./V pomosh nachinayushim metrologam"/Prakticheskiy jurnal "Glavniiy metrolog" 2009

10. Miralieva A.K. Bekmurodov Ch.A. «Meyoriy nazorat va texnikaviy hujjatlarning metrologik ekspertizasi» fanidan uslubiy ko‘rsatmalar TDTU 2014yil

**Internet resurslari:**

- 1.<http://www.uzstandart.uz/>;
- 2.<http://www.unim.ru/>;
- 3.<http://www.easc.org.by>;
- 4.<http://www.nlr.ru/>;
- 5.<http://www.msu.ru/>;
- 6.<http://lex.uz/>;
- 7.<http://www.window.edu.ru>
- 8.<http://www.ziyonet.uz>
- 9.<http://www.edu.uz>